O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI INV. N

Kuch — bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

ENLIGHTENMENT * XALQ ZIYOLILARI GAZETASI *

1931-yildan chiqa boshlagan | 2003-yil 26-fevral, chorshanba | № 16 (7521)

**Da'vat**

*Haqiqiy do'st eng buyuk boylik, ayni paytda u shunday boylikki, uni topish uchun juda ham kam qayg'urishadi.*

Fransua de LAROSHFUKO

**Ibrat**

*Jizzax shahridagi "Olmazor" mahallasi hududida hashar yo'li bilan bir yo'la 4 ta bolalar sport maydonchasi qurilishi boshlab yuborildi.*

## SO'NGGI UCH KUN MUJDALARI

### DAVRA SUHBATI

Oliy Majlisning demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'mitasi notijorat huquqlar xalqaro markazi (USAID) va USAID (Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy o'quv dasturi) ("STRFT" loyihasi) bilan hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasi nodavlat notijorat tashkilotlarning tadbirkorlik faoliyati" mavzuida davra suhbati o'tkazdi.

### NUFUZLI KO'RGAZMADA YOSH RASSOM IJODI

Badiiy akademiyaning markaziy ko'rgazmalar zalida Leonardo da Vinchi tavalludining 550 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ko'rgazmada nodir asarlar qatorida 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning xorijda ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Umid" jamg'armasi grantini qo'lga kiritib, Italiyaning Komo shahridagi Al'do Gali nomidagi nafis san'at akademiyasi magistri darajasiga erishgan yosh rassom Kamol Boboevning ijod namunalari ham namoyish etilmoqda.

### FAYOZTEPA FAYZLI BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Yaponiya hukumati va UNESCO vakillarining ko'hna Fayoztepa shahristonini asrash hamda ta'mirlash loyihasi bo'yicha 2003-2004 yillarga mo'ljallangan ish rejasi muhokama etildi. Buddaviylik madaniyatining eng qadimiy yodgorliklaridan biri bo'lgan ushbu qadamjoni ta'mirlash joriy yilning yozida boshlanib, bu loyiha respublikamiz Madaniyat ishlari vazirligining yodgorliklarni saqlash boshqarmasi hamkorligida Yaponiya hukumati tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga hamda Surxondaryo viloyati hokimligi ko'magida amalga oshiriladi.

# БЕЛЛАШУВЛАР ҚИЗҒИН ПАЛЛАДА



Маълумки, олий ва ўрта махсус ҳамда халқ таълими тизимини ўз ичига олган 3 бўғиндан иборат спорт мусобақалари йилдан йилга такомиллашиб, оммавийлашиб бораяпти. Айни кунларда Самарқанд вилоятида мазкур мусобақаларнинг ўрта бўғини — ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизими доирасида ўтказиладиган "Баркамол авлод" спорт ўйинларининг иккинчи босқичи қизғин паллага кирган.

5 февралдан 21 мартгача давом этадиган вилоят миқёсидаги иккинчи босқич ўйинларининг очилиш маросимида сўзга чиққан вилоят ҳокими ўринбосари Й.Сунов мусобақа иштирокчиларига оқ йўл тилар экан, апрель-май ойларида Андижонда ўтказиладиган Республика миқёсидаги мусобақаларда вилоятимиз шарафини дадил ҳимоя қилишларига ишонч билдирди.

(Давоми 7-бетда)

## ГАЗЕТАНИ ВАРАҚЛАГАНДА:

УЗОҚНИ КЎЗЛАБ... 3-бет

ДИПЛОМЛИЛАР НЕГА МАКТАБГА БОРМАЯПТИ? 4-бет

СИЁСИЙ ПАРТИЯ ВА ЖАМИЯТ: УЛАРГА МУНОСАБАТ ҚАНДАЙ? 4-бет

ҲАЙРАТ. АЛИШЕР НАВОИЙ "МУНОЖОТ" АСАРИНИ ЎҚИБ... 5-бет

КИМ АЙБДОР: ЗАМОНАМИ ЁХУД ЎЗИМИЗ? 5-бет

БУЮК ШАХСЛАР СИЛСИЛАСИ (БЕШИНЧИ МАҚОЛА) 5-бет

ТЕМИР ЙЎЛ АТРОФИДАГИ БОЛАЛАР 6-бет

АВГУСТ ЭСБОРННИНГ НИКОҲИ (HIKOYA) 8-бет

# ДАРСЛИК — БИЛИМ, МАЪЛУМОТ ВА АХБОРОТ МАНБАИ

## ёхуд унинг қандай яратилиши хусусида

*Fikr, mulohaza, taklif*

Халқимизнинг маърифий меросини таҳлил қиладиган бўлсак ўқувчи, талабаларни китоб билан дўстлашишга, мутолаага ўргатиш ота-оналар ва устоз-мураббийлар фаолиятининг асосини ташкил қилганлигининг гувоҳи бўламиз.

Дурдона асарлар — "Қобуснома", "Шоҳнома", "Юсуф ва Зулайҳо" ҳамда Навоий, Фузулий, Жомий, Бобур, Машраб девонлари узоқ асрлар давомида маълум маънода дарслик вазифасини ўтаб келганлиги айни ҳақиқатдир. Даврлар ўтиб, ўқиш ва ўқитиш ишлари такомиллашиб борган сари дарсликлар яратишга бўлган эҳтиёж кучайди. Миллатимизнинг илғор вакиллари томонидан XX асрнинг бошларида дастлабки дарсликлар яратилганлиги маълум. Жумладан, Мунавварқори Абдурашидхонов, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Фитрат, Элбек каби маърифатпарварлар томонидан кўплаб дарсликлар яратилган. Шуниси диққатга сазоворки, ушбу дарсликларда ўзбек халқининг миллий қадриятлари, урф-одатлари, халқ оғзаки ижоди намуналари, панд-насиҳатлар, қиссадан-ҳисса ҳикоялар берилган эди. Булар эндигина шаклланаётган ўқувчи шахсида миллий дунёқарашни, зукколикни, одоб-ахлоқни, ёмонликка нафрат, эзгуликка рағбатни, топқирликни, мустақил фаолият кўрсатиш имкониятларига эга бўлиш хусусиятларини қарор топтиришга хизмат қилган эди. Шу билан бир қаторда ўша даврда яратилган дарсликлар ўзбек халқ педагогикасининг энг яхши анъаналарини, тамойил ва воситаларини татбиқ этган ҳолда яратилган эди.

30-йиллардан кейин тартиб берилган дарсликларда эса ягона "типовой" дастурлар талабига амал қилинди. Узоқ давом этган бу ҳол педагогика фанида миллий мактабларда таҳсил олаётган ўқувчиларнинг физиологик, психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда дарсликлар яратиш билан боғлиқ назарий муаммоларнинг тадқиқ этилишига ғов бўлди. Натижада дарсликларнинг мазмунига ўта назарий, мураккаб, ўзбек ўқувчиларининг руҳияти, ҳудудий хусусиятлари ва минталитетига ёт бўлган, уларнинг ижтимоий тажрибасига кирмайдиган ўқув материаллари, тушунчалар, атамалар, билимлар, талқинлар сингдирилди. Шунинг учун ҳам истиқлолга эришилган дастлабки йиллардан бошлаб дарсликларнинг янги авлодини яратиш, улар билан ўқувчиларни таъминлаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Республикамиз Президенти Ислом Каримов Олий Мажлиснинг биринчи чақириқ IX-XIV сессияларида, фан ва маданият ходимлари билан бўлган учрашувда, 2000 йил 8 июнда "Fidokor" газетаси мухбири саволларига берган жавобларида ҳам дарсликларнинг янги авлодини яратиш ўта долзарб ва масъулиятли иш эканлигини қайта-қайта уқтириб ўтган эди. Албатта ҳар қандай дарслик биринчи навбатда муайян назарий асосга таянилган ҳолда яратилмоғи лозим. Педагогик технология таълим жараёнини ташкил этиш, тайёрлаш, илмий-методик жиҳатдан таъминлаш, амалга ошириш, таълим натижаларининг сифатини баҳолашдан иборат бўлган яхлит тизимда ўз ифодасини топади.

Шу нуқтаи назардан педагогик технология доирасига кирадиган тушунчалар икки катта гуруҳга мужассамлашади:

1. Шахсга таълим бериш, таълим воситаларини ўзлаштириш ва уни ривожлантириш.
2. Таълим жараёнини ва унинг натижаларини назорат қилиш, ташхис қўйиш ҳамда ўқувчиларнинг ўқув фаолияти ва натижасида олган баҳосини яхшилашни таъминлаш.

(Давоми 2-бетда)

# АТТЕСТАЦИЯ ХУЛОСАЛАРИ ХОЛИСМИ?

*Миатто*

2001 йилдан бошлаб таълим муассасалари Давлат аттестациясининг жорий этилиши Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг II босқичига тўғри келиб, жамиятимиз ижтимоий ҳаётига таълим тизимида рўй бераётган ўзгариш ва янгиланиш, ислоҳотлар кўламини баҳолашга кучли омил сифатида кириб келди. Эндиликда, таълим муассасасининг давлат аттестациясига тортилишидан бошлаб, хулосаларнинг муҳокамаси, расмийлаштирилиши, то аттестация бошқармасига тегишли ҳужжатларнинг келиб тушишига қадар бўлган жараён таҳлил этилиб, мамлакатимизда таълим муассасалари аттестациясининг янги механизми ишлаб чиқилган, деб тўлиқ ишонч билан айтиш мумкин.

Маълумки, таълим муассасалари аттестацияси тўғрисидаги Низомга мувофиқ, аттестация бевосита маҳаллий ҳокимиятлар қошидаги ҳудудий Давлат аттестация комиссиялари томонидан амалга оширилса, унинг хулосаларини расмийлаштириш эса вилоят Халқ таълими бошқармалари зиммасига юклатилган. Ўтган икки йил мобайнида Аттестация Бошқармаси номига ҳудудий Давлат аттестация комиссияларидан келиб тушган 2.5 минг аттестация хулосалари экспертизадан ўтказилди. Ва тегишли хулосалар чиқарилди. Аммо, уларнинг экспертизалари — жойларда аттестациянинг талаб даражасида ўтмаётганлигини, аксарият ҳолларда унинг самарасиз кечаётгани ва депсинаётганини кўрсатиб берди.

Маълумотларга кўра, Давлат аттестациясига 2.140 та мактаб тортилган бўлиб, (22 фоиз), улардан 95 фоизи аттестациядан ижобий ўтганлиги эътироф этилган. Бу ўринда, Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошириш бўйича республика комиссиясининг кенгайтирилган мажлисида кўтарилган материалларига тўхталиб ўтиш жоиздир. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари томонидан умумтаълим мактабларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш дастурлари қабул қилинган бўлса-да, лойиҳа асосида қурилган, шинам муассасалар билан бир қаторда авария ҳолатидаги мактаблар мавжудлиги, 31 фоиз мактаблар капитал таъмирлашга муҳтож эканлигини айтиб ўтиш жоиздир. Аммо, бу кўрсаткичларнинг биронтаси ҳам аттестация хулосаларида ўз аксини топмагани, ташвишга солади, албатта. Мисол учун Қашқадарё вилоятини олиб кўрайлик: вилоятда 15 та туман, шаҳар, маҳаллий ҳокимиятлари қошида ташкил этилган Давлат аттестацияси комиссиялари фаолият кўрсатмоқда. Ҳудуд бўйича қайд этилган 1521 та таълим муассасаларидан 411 таси Давлат аттестациясидан ўтган бўлиб, бу кўрсаткич икки йиллик режаларнинг 68 фоизи бажарилганлигини кўрсатиб турибди. Уларнинг 4 фоизгинасида "аттестациядан шартли ўтди", деб эътироф этилган. Биринчи қарашда бу рақамлар ижобий жой олиши лозимдек туюлади.

(Давоми 2-бетда)

*Ta'lim va hokimiyat*

# "БОЙҚОЗОН"ДАН ТАЪЛИМГА УЛУШ

## ЁХУД МАКТАБ ВА БОЛАЛАР БОҒЧАСИГА 10 МИЛЛИОН СЎМ МАБЛАҒ АЖРАТГАН РАИС ҲИММАТИ ХУСУСИДА

Шундай инсонлар бўладики, уларнинг эл-юрт, мамлакат фаровонлиги йўлида қилаётган меҳнатлари ҳақида жўшиб гапиргинг, кўз-кўз қилиб ҳикоя қилгинг келади. Яхши одам яхши-да! Улардан ибрат олиб, ҳавас қилмай бўладими, ахир?

Ҳикоямиз қаҳрамони ажойиб инсон, ғамхўр, меҳрибон, меҳнаткаш, айниқса, таълими ходимларининг юрагидан жой олиб улгурган Тоҳир Холтоевдир. Мақсадимиз бутун фикри-хаёли юрт ободлигини таъминлаш, халқ таълими моддий-техник базасини мустаҳкамлашда бўлган инсон хусусида икки оғиз сўз юритиш.

Айни пайтда у киши Тошкент вилояти, Паркент туманидаги "Бойқозон" ширкат хўжалиги бошқаруви раисидир. Т.Холтоев раҳбарлик қилаётган жамоада 1160 нафар ишчи-хизматчи меҳнат қилади. Хўжаликнинг 1406 гектар ер майдони бўлиб, шундан 790 гектари суғориладиган ер майдонларини ташкил этади. Хўжалик меҳнат аҳли ўтган йилда 665 миллион сўмлик маҳсулот сотиб, 328 миллион 469 минг сўм фойда кўрди. Ишлаб чиқаришда сарф қилинган харажатлардан ташқари, 230 миллион 356 минг сўм соф фойда олинди.

Даромадга қараб буромад, дейишади. Хўжалик кўп тармоқли. Шу боис қишлоқ хўжалик экинларидан ташқари ғаллачилик, узумчилик, боғдорчилик ва чорвачиликдан ҳам мўл ҳосил олдилар.

"Бойқозон" ширкат хўжалиги ҳудудида 5 та умумтаълим мактаби (1, 2, 10, 30, 31-мактаблар), битта мактабгача таълим муассасаси (15-болалар боғчаси) жойлашган. Бундан ташқари, бир неча маҳалла аҳли ширкат хўжалиги ҳудудида истиқомат қилади.

Паркент тумани ҳокими М.Куччиевнинг буйруғига асосан халқ таълими бўлимига қарашли 43 та умумтаълим

(Давоми 2-бетда)

## O'qituvchi yon daftariga

### TADQIQOT NATIJALARI

Amerikalik olimlarning «Uilkinson» zondi orqali olgan ma'lumotlarini dunyo mutaxassislari nihoyatda muhim deya ta'kidlashmoqda. WMAP nomi bilan ataluvchi mazkur zond o'tgan yilning yozida uchirilgan bo'lib, ayni paytda quyosh yaqiniga borgan. Undan olingan ma'lumotlar tahlili, koinot bundan 13,4 milliard yil ilgari «katta portlash» oqibatida vujudga kelganligini ko'rsatmoqda.

### ULGURISHARMIKAN?

Germaniyalik qirq nafar yozuvchi mamlakatning «O'quvchilar jamg'armasi» tashkilotchiligida kitob chiqarish bo'yicha jahon rekordini o'rnatishmoqchi. Bunda kitob g'oyasi tug'ilgandan boshlab savdo rastasiga chiqqunga qadar 12 slat o'tish kerak. Shu yil 23 aprel kuni ertalab soat 7.30 da yozuvchilar guruhi asar yozishga o'tirar ekanlar, mo'ljalga ko'ra, kun oxirida tayyor kitob Germaniyaning 10 ta shahrida sotuvga chiqish, kerak.

### YANGI SAYYORAMI?

So'ngi vaqtlarda fazoni tadqiq etuvchi optik asbob-uskunalarning tobora takomillashib borayotganligi koinotdagi ko'plab jumboqlarga yechim topib bermoqda. Shu taraqqiyot natijasi o'laroq, astronomlar Yerdan 6,5 milliard kilometr uzoqlikda sayyoraga o'xshash ob'ekt borligini aniqlashgan. Tahminlar to'g'ri chiqsa, Quyosh sistemasidagi sayyoralar soni to'qqizdan o'ngacha yetadi. Mutaxassislar «o'ninchi sayyora»ga Kvaoar deya nom berishgan.

### DARAXTDAGI YORUG'LIK

Shimoliy Afrikada mahalliy aholi «shayton daraxti» deb ataydigan bir daraxt o'sadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, tanasidan taralayotgan yorug'lik tufayli daraxt yonida tunda bemalol kitob o'qish mumkin. Mutaxassislar daraxtning nur chiqarishini ta'minlayotgan narsa ildizlarida mavjud bo'lgan ko'p miqdordagi fosfor ekanligi aniqladilar.

**Homiy ajratgan mablag‘ evaziga 31-maktabning 5 nafar ilg‘or o‘qituvchilari 20-25 ming so‘mdan pul mukofoti bilan taqdirlandi.**

**Darsliklarning formati, hajmi va dizayni ham o‘quvchining yosh va fiziologik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi lozim.**



# АМАЛИЁТЧИЛАР ФИКРИ ҲАМ ТИНГЛАНДИ

*Tagdimot*

**Яқинда Республика Таълим марказида таълим ўзбек тилида олиб бориладиган мактабларнинг 9-11-синфлари учун ДТС асосида яратилган “Русский язык” дарсликларининг тақдимоти бўлиб ўтди. Унда Тошкент вилояти ва шаҳар ўқитувчилар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш институти тингловчилари, ўқитувчи ва ХТБ услубчилари қатнашди.**

**Тақдимотда дарслик муаллифларидан Р.Толипова, Ю.Азизхонова, С.Исломбековалар, шунингдек, Сирғали туманидаги 300-мактаб ўқитувчиси Н.Сырцова, Акмал Икромов туманидаги 106-, 295-мактаб ўқитувчилари Р.Толипова, Н.Юсупова, Ўрта Чирчиқ туманидаги 38-мактаб ўқитувчиси З.Норбекова ва ШЎМОҚТИ услубчиси Р.Буранова ва бошқалар сўзга чиқишиб, яратилган дарсликлар моҳияти ҳақида гапирдилар**

**— Бизга 10-11-синф дарсликларида берилган “Сухомлинскийнинг ўғлига мактуби”, “К.Симоновнинг очиқ хати”, “Ўқитувчи олдидаги бурч” каби матнлар манзур бўлди, — дейди З.Норбекова. — Аммо 9-синфдаги адабий матнларни қайта кўриб чиқиш зарурати борга ўхшайди. Бугун биз тақдимотда кўпгина янгиликлардан воқиф бўлдик. Истардикки, жойларда бу каби семинарлар ташкил этилса, нур устига нур бўлур эди.**

***Маҳмуда ВАЛИЕВА,***
***“Ma’rifat” мухбири***

# ҲИНДИСТОН — БОЛАЛАР НИГОҲИДА

*Tadbir*

Юртимиздаги Ҳиндистон элчихонаси ва Республика ўқувчилар саройи Маърифат маркази билан ҳамкорликда тайёрланган мазкур тадбир “Ҳиндистон — болалар нигоҳида” деб номланди. Саройга кираверишдаги расмлар кўргазмаси — болалар томонидан чизилган суратлар, улар ясаган кичик ҳайкалчалар киши эътиборини тортади. Болалар бу суратларда Ҳиндистон ҳақидаги тасаввурлари ва қизиқишларини зўр маҳорат билан ифодалашган. Айрим ўқувчиларнинг ҳинд тилида суҳбатлашишлари ҳам бизда ажабтовур кайфиятни уйғотди.

Тадбирга меҳмон сифатида Ҳиндистон миллий маданият маркази директори Жозеф Лапо, марказдаги ҳинд рақслари устаси Манжели хоним ташриф буюришди. Жозеф Лапо Ҳиндистон билан Ўзбекистон ўртасидаги дўстлик алоқаларига алоҳида тўхталиб ўтди. Саройдаги дуторчи қизлар гуруҳи ўз куйлари билан кечага файз киритишди. Ўзбек қизларининг ҳинд ва ўзбек миллий куй-рақсларини маҳорат билан ижро этишлари тадбир иштирокчиларига завқ бағишлади.

Ранг-тасвир, миниатюра, ҳайкалтарошлик, графика, расмлар ранг-баранглиги, энг оригинал расм йўналишлари бўйича ўринлар белгиланди ва ғолиб ўқувчилар Ҳиндистон элчихонаси тақдим этган совғалар билан тақдирландилар.

— Бу тадбирдан кўзланган мақсад, болалар онгида дунёни шакллантириш, дўстлик тушунчасини янада мустаҳкамлаш ва Ҳиндистон ҳақидаги тасаввурларни бойитишдан иборат эди, кўзлаган мақсадимизга эришдик деб ўйлайман, — деди биз билан суҳбатда Республика ўқувчилар саройи раҳбари Элмурод Исломов.

***Саида ҚОРАБОЕВА,***
***Наргиза РАҲМОНҚУЛОВА,***
***ЎзМУ талабалари***

# ЗАМОНАВИЙ ЖИҲОЗЛАР ТАЪЛИМ МАЗМУНИГА ҲИССА ҚЎШМОҚДА

*Anjuman*

Ўтган ҳафтада Тошкент педиатрия тиббиёт институти қошидаги Юнусобод академик лицейида “Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида Жанубий Кореядан келтирилган жиҳозлардан биология фани лаборатория машғулотларида фойдаланиш” мавзусида семинар бўлиб ўтди. Унда Тошкент шаҳри ва вилояти академик лицей, касб-ҳунар коллежларида ўқувчиларга биология фанидан сабоқ берувчи 60 дан зиёд ўқитувчилар икки гуруҳга бўлинган ҳолда машғулот олиб бордилар.

Таъкилаш лозимки, айни пайтда биология фани ўқитилаётган академик лицей ва табиий, тиббий йўналишдаги касб-ҳунар коллежларида турли замонавий жиҳозлар ёрдамида ўқувчиларга фан сирлари ўргатилмоқда. Шунингдек, юксак замонавий технологиялар — компьютер, мультимедиа воситалари, видеонигоҳ, видеокодоскоплар билан жиҳозланган ўқув лаборатория хоналарида назарий ва амалий машғулотларни ўтказишда хорижда ишлаб чиқарилган компьютер дастурларидан ҳам кенг фойдаланилмоқда.

Анжуман давомида Юнусобод академик лицейи биология кафедраси педагогик жамоасининг ўқувчилар билан биргаликда фаннинг турли мавзуларини ўрганишга мўлжалланган 28 та амалий машғулотлари тақдимоти бўлиб ўтди.

— Лицей ўқувчиларидан бир неча нафари биология фани йўналишида илмий изланишлар олиб бормоқдалар, — дейди Юнусобод академик лицейи биология кафедраси мудири А.Бекмуҳаммедов. — Улар ўз мустақил илмий тадқиқотлари билан ЎзФА томонидан ўтказилган республика ЎМКҲТ муассасалари талабаларининг илмий-амалий анжуманида иштирок этиб, фахрли иккинчи, учинчи ва тўртинчи ўринларни эгалладилар, ҳамда турли қимматбаҳо совринлар билан биргаликда Фанлар Академиясининг махсус стипендиясига сазовор бўлдилар.

Ўтказилган мазкур анжуман биология фани ўқитувчиларини тиббий, замонавий воситалардан самарали фойдаланиш ва уларни дарс жараёнида кенг қўллаш борасидаги тажриба ва маҳоратларини оширишда шунингдек, турли йўналишдаги илмий тадқиқотларни олиб боришда муҳим аҳамиятта эга бўлиши шубҳасиздир.

***Муҳаммаджон ИСРОИЛОВ,***
***“Ma’rifat” мухбири***

## ҒОЛИБЛАР ТОШКЕНТГА БОРАДИ

*Бухоро вилояти Маънавият ва маърифат марказида вилоят туманларидаги болалар ижодиёти уйлари ва мактаб ўқувчиларининг фото ва кино соҳасида яратган асарлари танлови ўтказилди.*

*Фотосуратлар “Мустақил Ўзбекистон”, “Спорт”, “Табиат”, “Мактаб ва жамоатчилик ҳаёти” мавзуларига бағишланди.*

*Танлов ташкилотчилари қайд этишганидек, ўқувчилар мавзуни ўзига хос усулда ёритишга муваффақ бўлишган. Ҳар бир ижодкор Бухоро воҳаси манзараларини ўзича очишга ҳаракат қилади. Танловда спорт, ёшларнинг мактабдан ташқари юмушларини акс эттирган суратларга ҳам кенг ўрин берилган.*

*Болалар ўз ишларида барча ранглардан фойдаланишган, — деди ҳакамлар ҳайъати раиси Шавкат Болтаев. — Ғиждувонлик А.Арабов, пешкулик С.Иноятов, когонлик К.Қаҳҳоровааларнинг ишлари совринли ўринларни олди. Эндиликда улар Тошкентдаги Киночилар уйида ўтказиладиган республика танловида қатнашадилар.*

***“Туркистон-пресс”***



**“Уста кўрмаган шогирд ҳар мақомга йўрғалар” дейди доно халқимиз. Зебо ва нафосатли қизларимизнинг севимли касбларидан бири бўлган тикувчиликда ҳам ушбу ақидага амал қилганлар асло ютқазишмайди. Айни пайтда, республикамизда юзлаб турли йўналишлардаги касб-ҳунар коллежларида таҳсил олаётган қизларга моҳир тикувчи- усталар меҳнат таълими фани орқали тикувчилик касби сирларини ўргатмоқдалар. Ана шулар орасида Чироқчи тумани қишлоқ хўжалиги касб-ҳунар коллежи меҳнат таълими фани ўқитувчиси Назира Ҳасанованинг ҳам талабаларни бичиш-тикиш сирларини ўрганишида хизматлари катта бўлмоқда.**

**Суратда: Ўқитувчи Назира Ҳасанова талабаларга аёлларнинг устки кийимини тикишда андоза олиш ва уни тайёрлашни ўргатмоқда.**

**Бурҳон РИЗОҚУЛОВ олган сурат**

# “БОЙҚОЗОН”ДАН ТАЪЛИМГА УЛУШ

## ЁХУД МАКТАБ ВА БОЛАЛАР БОҒЧАСИГА 10 МИЛЛИОН СЎМ МАБЛАҒ АЖРАТГАН РАИС ҲИММАТИ ХУСУСИДА

**(Давоми. Боши 1-бетда)**

мактаби ва 17 та мактабгача таълим муассасасига ташкилот, корхоналар, хўжаликлар оталиқ сифатида бириктириб қўйилган. Улар таълим муассасалари моддий-техник базасини ривожлантириш, ўқитувчи, ўқувчиларнинг маданий-маиший шароитларини яхшилаш, ободончилик ва кўкаламзорлаштириш каби тадбирларда яқиндан ёрдам бериб келадилар.

Шу боис ХТБ тасарруфидаги 31-мактаб ҳамда 15-болалар боғчасини “Бойқозон” ширкат хўжалиги ўз оталиғига олган. Бундан ташқари, хўжалик 1-,2-,10-,30-умумтаълим мактаблари ҳамда Мозорхўжа, Кўл ичи, Сурхи, Танбалак маҳаллаларига ҳам имкон даражасида беминнат ёрдам бериб келаётир.

— Муаллим миллатнинг юзи, — дейди раис Т.Холтоев. — Устозларга, таълимга қанча ҳиммат, эъзоз кўрсатсак оз. Бизларнинг шундай обрў, мартаба, ҳурматларга эришишимизда ана шу устозларнинг хизмати катта. Инсоннинг обрў-эътибори унинг бажараётган меҳнатида эмас, балки теварак-атрофдагиларга бўлган меҳрида деб биламан.

Ҳа, элни севган элга ёқади. 2003 йилнинг январь ойида хўжалик 31-мактабнинг жорий таъмири учун бир миллион сўм пул берди. 15-болалар боғчаси тарбияланувчиларига кунига 20 литрдан сут бериб боришни йўлга қўйган. Болаларни овқатлантириш учун эса ойига 300-350 минг сўм ажратади. Булардан ташқари, мактаб педагогик кенгаши қарори тавсиясига асосан ҳомий ажратган маблағ эвазига 31-мактабнинг 5 нафар илғор ўқитувчилари 20-25 минг сўмдан пул мукофоти билан тақдирланди.

Ўтган 2002 йилда ҳам мактабларни таъмирлаш учун хўжалик ҳисобидан 8 миллион 70 минг сўм, болалар боғчаси учун 2 миллион 746 минг сўм миқдорда, маблағ ажратилди ва таъмирлаш ишлари бажарилди. Маҳалла, мактаб, боғча теварак-атрофини ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш ишларига 20 миллион 714 минг сўм маблағ сарфланди. 5 та умумтаълим мактаблари 1-синф ўқувчиларига 2 миллион сўмлик (ҳар бири 500-1000 сўмдан) янги йил совғалари етказиб берилди. Биргина хўжаликнинг таълим тизимини ривожлантиришга қўшаётган ҳиссаси бу. Айни вақтда кўп ҳудудларда мактаб бинолари эскириб бораётганининг гувоҳи бўлаяпмиз. Янгиларини қуриш у ёқда турсин, эскиларини ҳам дурустроқ таъмирлашга маблағ тополмаётган ташкилотлар борлигидан ҳам хабаримиз бор. “Бойқозон” ширкат хўжалиги меҳнаткашлари эса таълим соҳаси ходимларини ёлғизлатиб қўймаяптилар.

2002 йилнинг декабр ойида туман ҳокимлигида бўлиб ўтган маслаҳат кенгаши алоҳида мазмун кашф этган эди. Айниқса, халқ таълими ходимлари, ота-оналарнинг қувончларини айтмайсизми! Катта йиғинда, раҳбарлар орасида ёш раис Тоҳир Холтоев Танбалак маҳалласидаги қурилиши ниҳоясига етказилмай қолган мактаб биносини 2003 йил — Мустақиллигимизнинг 12 йиллиги байрами арафасида ишга тушириб бериш ташаббуси билан чиққан эди. Мазкур мактаб биноси қачонлардир қурилиб, бунёд этилганди-ю, аммо пардозлаш, томларини ёпиш масаласи поёнига етмай қолган эди. Ғиштлар иссиқ-совуқда емирилиб бораётганди. Тоҳир Холтоев ана шу бинони пойдеворидан бошлаб қайта бунёд этиш масъулиятини ўз зиммасига олди. Шу боис 420 ўринли янги мактаб биноси байрам арафасида ўқувчилар учун фойдаланишга топширилишига ҳеч ким шубҳа қилмаяпти.

Хўжалик ғаллакорлари ўтган йилда ялпи дон етиштиришни гектарига 74,1 центнерга етказганди. Вилоятда ғалла етиштириш бўйича биринчи ўринни олганликлари учун хўжалик вилоят ҳокимлигининг қарорига асосан “Тико” енгил автомашинаси билан тақдирланди.

Хўжаликда замонавий бинолар ҳам қад ростлаётир. Жумладан, “Бойқозон” аҳоли турар жойи марказида бевосита хўжаликнинг ҳисобидан 3 минг ўринли стадион, 300 ўринли теннис корти, 300 ўринли спорт зали, 400 ўринли клуб қурилиб, фойдаланишга топширилди.

Дарҳақиқат, саховатпешалик ҳикоямиз қаҳрамони фазилатида мужассам. Хўжалик жорий йилда ҳам анчагина фойда олишни режалаштирган. Олинадиган даромад сарфланиши зарур бўлган тадбирлар ҳозирданоқ белгилаб борилмоқда. Албатта, бу режада таълим муассасалари ҳам ўрин олган. Бундай савобли ишлар ибрат олишга арзийди. Зеро, кўпнинг дуоси барака келтиради.

***Абдузуҳур ҚОРАБОЕВ,***
***журналист***

## Ma'rifat МАСЛАҲАТХОНАСИ

***Навоий вилояти, Зарафшон шаҳридаги 4-ўрта мактаб ўқитувчиси Ж. Хожановдан***

**САВОЛ:** 1. Агар ўқитувчи 1,5 ставкада ишласа 1 ставкадан 25 фоиз микдорида, ундан ортиғи ва қўшимча ўтган соатларидан 36 фоиз миқдорида даромад солиғи ушланадими?

2. Бир синфни 2 гуруҳга бўлиб ўтадиган ўзбек тили ёки рус тили ўқитувчисининг бири касалланиб қолганда иккинчиси 2 гуруҳни қўшиб ўқитса, унга меҳнат ҳақи қандай тўланади?

3. I тоифали математика ўқитувчиси чизмачиликдан дарс ўтса ёки II тоифали бошланғич синф ўқитувчиси Давлат тилидан сабоқ берса, ўқитувчига тоифа бўйича ҳақ тўланадими?

**ЖАВОБ:** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 1994 йил 12 майдаги 250-сон қарори билан тасдиқланган ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг 1, 2, 3-рўйхатларига кирувчи меҳнат қилиш шароитлари ғоят оғир ва зарарли, ўта оғир ишлаб чиқаришларда ишлайдиган ходимларнинг даромадларидан солиқлар олишнинг имтиёзли тартиби белгиланган. Фуқароларнинг юқорида қайд этилган тоифалари даромадларидан ушлаб қолинадиган солиқлар миқдори 25 фоиздан ошмаслиги керак. Ўқитувчилар ҳам шу тоифага кириб, уларнинг даромадларидан солиқлар ушлаб қолиниш даражаси 25 фоиздан ошмайди.

2. Бир синфни 2 гуруҳга бўлиб ўтаётган ўқитувчилардан бири касал бўлиб қолса, унинг меҳнат ҳақи дарсни ўтаётган ўқитувчига ёзиб берилади.

3. I тоифали математика ўқитувчиси чизмачиликдан дарс ўтса ёки II тоифали бошланғич синф ўқитувчиси Давлат тилидан дарс ўтса, ўқитувчига мутахассис сифатида ҳақ тўланади.

***Й.АҲМЕДОВ***
***Ўзбекистон таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси Марказий қўмитаси бош мутахассиси***

## ДАСТУР ТАРБИЯ ВОСИТАСИ

*Taqimot*

*1998 йилдан буён халқ таълими тизимида “Чекмасдан ёшлик гаштини сур” лойиҳаси доирасида “Мен ўз йўлимни танладим” тарбиявий дастури босқичма-босқич амалга оширилмоқда. “Bioekosan” Республика ёшларининг ўқув-услубий мажмуасида ушбу дастурнинг учинчи босқичини амалга оширишда ёрдам берувчи ўқитувчилар учун услубий қўлланма ва ўқувчилар учун ишчи дафтарининг тақдимоти ўтказилди. Дастур йил давомида умумтаълим мактабларида амалга оширилади. У ҳақида ўқув-услубий мажмуа директори Рўзимуҳаммад Султонов “Туркистон-пресс” мухбирга қуйидагиларни сўзлаб берди.*

*— Қандай қилиб ёшларни ўзига чорловчи турли иллатларга берилмаган ҳолда тарбиялаш лозим? Қандай қилиб уларга тўғри йўлни танлашда ҳамда ҳаётда нимани устун қўйиш лозимлигини уқтириш мумкин? Бу каби саволларга мазкур тарбиявий дастур жавоб беради. Бироқ бу билан биз дастурни ёшларни барча балолардан қутқарувчи ҳимоя воситаси деб айта олмаймиз. Сабаби, болани тарбиялашда энг биринчи ва асосий босқич — оиладир. Минг афсуслар бўлсинки, аксарият ҳолларда оилада ота тамаки маҳсулотларини истеъмол қилади. Бу болага яхшигина “сабоқ” бўлади. Мазкур дастур эса ўсмирни комил инсон бўлиб шаклланишида яқиндан ёрдам беради.*

*Тарбиявий дастур ўсмирни ўзини ва бошқаларни тушунишга ўргатади, ҳаётида учрайдиган муаммолар ва уни ҳал этишда холис бир фикрга келишга ундайди.*

***И.ЭГАМҚУЛОВА***
***“Туркистон-пресс”***

# ДАРСЛИК — БИЛИМ, МАЪЛУМОТ ВА АХБОРОТ МАНБАИ

**(Давоми. Боши 1-бетда)**

Биринчи гуруҳга мансуб элементлар таълим стандартларини, таълимнинг давлат дастурларини ишлаб чиқиш, шахсни ривожлантиришга йўналтирилган таълим мазмунини ва воситаларини аниқлаш, таълим-тарбия жараёнини эркинлаштириш ва амалга ошириш механизмларини ишлаб чиқишни, бу жараённи ўқув-методик мажмуалар билан таъминлашни тақозо қилади. Иккинчи гуруҳга мансуб элементлар ўқитувчининг педагогик маҳоратини, таълим жараёнини бошқариш санъатини, педагогик-психологик билим савиясини оширишни, назорат ва ташхиснинг янгидан-янги воситаларини аниқлашни, усулларни кашф этишни талаб қилади. Жумладан: тил воситаларини ва математик амалларни ўрганиш жараёнига коммуникатив моделни жорий этиш баробарида ўқув материалларини таҳлил, мутолаа қилиш усулидан фойдаланиш эҳтиёжи вужудга келди. Бу эса ўз навбатида ўқувчининг нутқ ва муомала маданиятини бойитади ва ижтимоийлашиш жараёнини тезлаштиради. Демак, ҳар қандай педагогик технология учун ижтимоий меъёр асосий мезон бўлиши керак.

Ўқувчиларга билим шаклида тақдим қилинган таълим моделлари, турли формула ва жадваллар жамият аъзоларининг ижтимоий тажрибасида синовдан ўтган билимларга таянган тақдирда шахсга нисбатан ривожлантирувчи характер касб эта олади. Худди мана шундай билимларни ўзида мужассамлаштирган таълим модели муайян бир педагогик технологиянинг таркибий қисми сифатида намоён бўлади. Айни бир ўқув предмети бўйича таълим технологиясининг таркибини аниқлаганда биринчи навбатда ўқувчи шахсининг ривожланиш динамикасини таъминлаш учун қайси мезонларга таяниш лозимлигини аниқлаш талаб этилади. Бу ўринда фалсафанинг эркинлик, ҳурфикрлилик категорияларининг ҳаётий татбиқидан келиб чиққан ҳолда шахснинг дунёқарашини шакллантиришга йўналтирилган ўқув материалларига кенг ўрин ажратиш назарда тутилади. Чунки дунёқараш шахс камолотининг асосини ташкил қилади. Она тили, тарих, адабиёт каби бир қатор ўқув предметларидан таълим беришни назарда тутган таълимий технологиялар ўз таркибида шахснинг миллий-маънавий қарашларининг мужассам ифодаланишига эришиши талаб этилади.

Дарсликларнинг янги авлоди ўзида ўқув предметининг мазмуни ҳамда ўқувчилар билиш фаолиятининг кўринишларини мужассамлашган тарзда ифодалаши талаб этилади. Фақатгина кўп тармоқли гиперматнларгина ўқувчи шахсининг ривожланиш жараёнини таъминлай олади. Масалан, она тили дарсликларига киритилган матнларда бир томондан шахснинг тил бойлигини мунтазам ошириш, иккинчидан унинг моддий борлиқ, табиат, жамият ҳақидаги тасаввурларини кенгайтириши назарда тутилади. Шунингдек, дарсликларнинг янги авлоди таркибига киритиладиган машқ ва матнлар мультимедиум ёндашув асосида танланиб, уларда янгидан-янги ахборотларни мужассам эттирилиши талаб этилади. Бунда дарсликларнинг янги авлоди мавжуд моделларни инветаризациялаш ҳақида ҳамда тасниф қилиш натижаларига таянади.

Янги педагогик технологияга асосланган дарсликларнинг дидактик модели ўз таркибига иккита компонентни мужассамлаштириши талаб этилади: а) таълим мазмуни; б) таълим берувчи методик инструментарийнинг фаолияти, яъни ўқитувчининг касб маҳорати, ўқув предметининг лойиҳасини ифодалаган карта ва ҳоказо. Чунки, бизнинг минтақавий хусусиятларимиз билан боғлиқ ҳолда ўқувчиларда мавжуд бўлган физиоло-гигиеник ҳамда психологик хусусиятлардан, Давлат таълим стандарти талабларидан келиб чиққан ҳолда дарсликларда баён қилинадиган ўқув материалининг ҳажми, ўқув материалларини структуралаштириш муаммолари, дарсликларда методик инструментарийнинг ўрни, ўқувчини дарслик билан ишлатиш йўллари, бу жараёнда ўқитувчининг тутган ўрни каби муаммолар чуқур татқиқ этилиши лозим.

Дарсликларнинг янги авлодини яратишда Давлат таълим стандарти талаблари ва ўқув дастури ҳажмида меъёрланган ўқув юкламасининг модели ва тақдим этилаётган ўқув материалларининг таълимий-тарбиявий қийматлигини таъминлаш параметрларига, ўқувчиларни янги билим ва ахборотлар билан қуроллантиришнинг дидактик ва технологик асосларига таяниш мақсадга мувофиқдир.

Ўқувчиларнинг дарслик материаллари билан эркин тарзда мулоқотга киришишларини таъминлаш муҳим масалалардан биридир. Чунки, дарслик материаллари орқали ўқувчига тақдим этиладиган билимлар ва ахборотларнинг дидактик субстанциялар сифатида ифодаланишини таъминлаш, ўқув-билув жараёнининг яхлитлигига эришиш имконини беради. Бунда дарсликларда берилган матн, машқ ва масалаларни, уларга ҳамоҳанг тарзда иллюстратив материаллар, жадвалларни танлаш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, уларни амалиётга самарали татбиқ этиш учун ўқув-билув фаолиятини бошқариш, яъни дарс жараёнига раҳбарлик қилиш, дарслик материаллари воситасида ўқувчиларнинг билим, кўникма, малакалари, эгаллаган шахсий сифатларини назорат қилишнинг ўзига хос механизмини ишлаб чиқиш лозим.

Дарсликларнинг формати, ҳажми ва дизайни ҳам ўқувчининг ёш ва физиологик-психологик хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда белгиланиши лозим.

Шахснинг маънавий қиёфаси, тафаккури ҳамда ақлий-интеллектуал салоҳияти, илмий дунёқарашини ривожлантиришга хизмат қиладиган дарсликлар чуқур илмий педагогик асосга ва дидактик, психологик, физиоло-гигиеник, техник-технологик талабларга таянган ҳолда яратилиши шарт. Шунингдек, дарсликлар яратиш соҳасидаги тарихий тажрибаларни ҳамда илғор мамлакатлар тажрибасини ўрганиш, оммалаштириш ҳам алоҳида самара беради.

Дарсликлар яратиш муаммосининг муҳим масалалари сифатида қуйидагиларни таъминлаш алоҳида аҳамиятга эга:

- ўқув фани асосларининг мазмуни, яъни ўқув модели билан ўқувчилар билиш фаолияти кўринишларини уйғун ҳолда ифодалаш;
- кўп тармоқли ўқув материаларини тақдим этиш;
- гиперматнларни бериш, мультимедиум ёндашувга асосланиш;
- информацион банкларни тақдим этиш;
- ўқув материаларини техник ва технологик талаблар асосида ифодалаш;
- дарсликнинг ўқувчилар билан бевосита мулоқотга киришишини таъминлаш. Бунинг учун эса янги дарсликлар типологиясини илмий-педагогик жиҳатдан асослаш ва ишлаб чиқиш талаб этилади;
- таълим жараёнини дарсликлар, ўқув қўлланмалар, методик воситалар, ўқув луғатлари ва диафильмлар билан таъминлашга эришиш;
- дарсликлар, ўқув қўлланмалар мазмунини “Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар ва тамойиллари” билан бойитиш;
- кўп тармоқли ўқув материалларини дарслик ва қўлланмалар орқали тақдим этишга эришиш;
- дарслик ва ўқув қўлланмаларининг ўлчамлари ва ҳажми устида жиддий изланишлар олиб бориш;
- дарслик дизайни соҳасида тадқиқотлар олиб бориш, бу борада жаҳон ва тарихий тажрибаларни уйғунлаштиришга эришиш;
- дарслик ва ўқув қўлланмалари таълим жараёнининг ахборотли модули сифатида намоён бўлишини таъминлаш учун кенг кўламли тадқиқотларни йўлга қўйиш;
- интегратив дарсликлар яратишни таъминлаш ва бошқалар.

Келажакда ўқув-методик мажмуаларнинг салоҳиятини кўтариш ва Давлат таълим стандарти талаблари даражасида ўқувчиларда билим, кўникма ва малака ҳосил қилиш учун таълим жараёнини юқоридаги талаблар асосида яратилган ўқув-методик мажмуалар билан таъминлаш зарур.

Юқоридаги вазифаларни муваффақиятли ҳал қилиш, дарсликнинг таълим жараёнининг ахборотли модули сифатида намоён бўлишини таъминлаш учун биринчи навбатда:

а) дарсликлар назариясини ҳар томонлама бойитиш;

б) дарслик соҳасидаги монополияга чек қўйиш;

в) бошланғич синфлар, айниқса, 1-2-синфлар учун дафтарлар шаклида бир марта фойдаланиш учун мослаштирилган ёрдамчи дарсликлар чоп этиш лозим, деб ҳисоблаймиз.

***У.МУСАЕВ,***
***Халқ таълими вазирининг ўринбосари,***
***Р.САФАРОВА,***
***ЎзПФИТИ Илмий ахборотлар ва таълим прогностика муаммолари бўлими мудири, педагогика фанлари доктори***

## *Асл манбага қайтиб*

# УЗОҚНИ КЎЗЛАБ...

***Бугун — Кадрлар тайёрлаш миллий модели ва миллий дастурини амалга оширишнинг иккинчи босқичи ҳаётга тадбиқ қилинаётган пайтда, босиб ўтилган йўлга яна бир бор назар солиб, эришилган ютуқларни чуқур мушоҳада этиш билан биргаликда, олдимизда турган вазифалардан келиб чиққан ҳолда Президентимизнинг Миллий модель замирига сингдирган ғояларининг моҳиятини бутун теранлиги ва миқёси билан англаб етиш ҳаётий заруратга айланмоқда.***

***Гап шундаки, Миллий моделнинг туб мазмун ва моҳияти, афсуски шу пайтгача аксарият олимлар ва мутахассислар диққат-эътиборидан четда қолмоқда. Асосий урғу ( гарчи бу ҳам ўз-ўзидан долзарб ва муҳим бўлса-да) Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг ташкилий, технологик жиҳатларига қаратилмоқда.***

***Мазкур мақолада асл манба — Кадрлар тайёрлаш миллий моделига бугунги ва эртанги кун нуқтаи назаридан мурожаат этишга, мамлакатимиз ва хорижда таълимнинг турли соҳалари мутахассисларини ташвишга солаётган бир қатор саволларга жавоб топишга ҳаракат қилинди.***

***Таълим соҳаси ўзига юклатилган юксак масъулиятни тўла англай олаяптими? Ушбу жараёнда вужудга келаётган муаммоларнинг ечимларини излаш ва топишнинг тўғри йўлини кўрсата олаяптими? Ушбу тизим келажакда қай тарзда ва қайси йўл билан ривожланиши лозим. Унинг стратегик йўналишлари ва қадриятлари, бош вазифаси нималардан иборат бўлиши керак? Миллий модел шу сингари муҳим саволларга жавоб бераяптими, унинг ғоялари ва талаблари дунёвий анъаналар, жараёнлар ва ҳодисалар билан уйғунлаша оладими?***

Шу жиҳатдан олиб қараганда, Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг мазмун ва моҳиятини ҳар томонлама чуқур ўрганиш жаҳон ҳамжамиятида мавжуд таълим тизимларининг ислоҳоти ва ривожланиши жараёнида, хусусан, таълим тизимининг ҳозирги ва айниқса эртанги кундаги роли ва вазифаларини белгилашда ўта муҳим масала ҳисобланади. Инсоният янги минг йилликда дуч келган таҳдид ва хавф-хатарларнинг олдини олиш ва бартараф этишда ушбу соҳанинг ўрни қандай бўлмоғи керак?

Зеро, жаҳон ва инсоният тақдирига хавф солаётган турли таҳдид ва тазйиқлар таълим тизимига ҳам бевосита дахлдордир. Таълим тизими ўзининг бош вазифаси — шахсни шакллантириш, уни ўқитиш, тарбиялаш, ҳар томонлама ривожлантириш, башарият томонидан тўпланган бой тажрибани ўсиб келаётган авлодга етказиш билан бир пайтда, бу вазифани шахс ва жамиятнинг тақдири билан боғлиқ долзарб ва истиқболий муаммоларнинг ечими билан доимо мувофиқлаштириб ва мослаштириб бориши лозим.

Миллий модель ғоя ва талабларига, унинг теран моҳияти, мазмуни ва фалсафий қарашларига тор манфаатдорлик нуқтаи назаридан муносабатда бўлиш, фикримизча, кадрлар тайёрлаш жараёнини амалга ошириш билан боғлиқ қарорларнинг аҳамиятини пасайтиради. Шу билан бирга мустақил Ўзбекистон Республикаси олдида турган буюк мақсадга эришиш йўлида таълим тизимининг тутган ўрнини англаб етишга боғлиқ ижтимоий ва шахсий тафаккурнинг шаклланишига салбий таъсир кўрсатади.

Бошқача қилиб айтганда, Миллий модел замирига сингдирилган бош мақсад — «равнақ топаётган, кучли демократик давлат, фуқаролик жамиятининг шаклланиши»га эришишга хизмат қилиши лозим бўлган ғоянинг қудратли салоҳиятини англамоқ ва тушуниб етмоқ зарур. Бу эса, ўз навбатида ушбу салоҳиятни қандай, қайси йўл билан рўёбга чиқариш ва кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга оид амалий тадбирларни ҳаётга жорий этиш билан боғлиқ кўплаб саволларга жавоб топиш имконини беради.

Кейинги пайтларда кадрлар тайёрлаш ва таълим тизимини такомиллаштириш муаммоларига бағишланган турли хил халқаро анжуманларда иштирок этиш, ҳамкасблар билан мазкур соҳада ўтказилаётган ислоҳотларнинг истиқбол йўналишлари хусусида фикр алмашишга, айни пайтда, ушбу мавзуда чоп этилган илмий материалларни махсус ўрганиш, таҳлил этишга тўғри келди. Шу ўринда чуқур мамнуният ва фахр билан таъкидлаш жоизки, жаҳон ҳамжамиятида таълим соҳасида рўй бераётган жараёнлар, амалга оширилаётган ислоҳотлар, шунингдек, таълим масалалари бўйича ўтказилаётган илмий баҳс-мунозараларда мамлакатимизда амалга оширилаётган Кадрлар тайёрлаш миллий дастури энг юксак халқаро талабларга жавоб берадиган ўзига хос модел сифатида ҳамиша мутахассисларнинг диққат-эътиборида эканлиги намоён бўлмоқда. Табиийки, унинг рўёбга чиқарилиши бўйича турли хил фикр-мулоҳазалар билдирилмоқда...

Энг муҳими, миллий моделимиз ҳеч кимни лоқайд қолдираётгани йўқ, бу эса унинг тараққиёт истиқболларини белгилашда ноёб хусусиятга эга бўлиб, чуқур илмий асосланганлиги, доимий ривожланишдаги ҳаёт талабларига мослигини яна бир бор исботлаб турибди.

Шу ўринда бир нарсани айтиб ўтиш лозимки, кўпгина хорижий ҳамкасбларимиз ўзимизнинг айрим мутахассисларга қараганда ҳам Миллий моделнинг мазмун-моҳияти, илмий миқёси ва салоҳиятини чуқурроқ тушунибгина қолмасдан, жиддий қизиқиш билдираётгани ҳам диққатга сазовордир. Асл манбага қайтишимизнинг яна бир сабаби ҳам ана шу омил билан изоҳланади.

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Президенти И.Каримовнинг энг нуфузли халқаро ташкилотлардан бири ЮНЕСКОнинг Ибн Сино номидаги Олтин медали билан мукофотланиши, жаҳоннинг қатор обрўли таълим ва илмий марказларининг фахрий доктори ва профессори этиб сайланганни ҳам Миллий моделимиз асосида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг халқаро эътирофига ёрқин ва ишончли далилдир.

Табиийки, шу ўринда "нима сабабдан таълимнинг айнан назарий-услубий масаласи махсус илмий журналда эмас, газета саҳифасида кўтарилмоқда, мақола кимлар учун мўлжалланган", деган савол туғилади.

Тўғри, бу мақола фақат мутахассислар ва педагоглар учунгина мўлжалланган эмас. Агарда тарбиявий, демакки, педагогик фаолият узвий, яъни моҳиятан ҳар бир оиланинг, бутун жамиятнинг вазифаси ҳар бир инсон ўзининг бутун умри давомида ўқиши ва билимларини ошириш билан шуғулланиши ҳаётий зарурат эканлигини инобатга оладиган бўлсак, ўз- ўзидан қуйидаги хулосага келамиз: биз бугунги кунда жамиятни **глобал педагогикалаштириш,** яъни жамият ҳаётининг барча соҳаларига педагогик ғояларнинг кириб келиши арафасида турибмиз. Айни пайтда, Кадрлар тайёрлаш миллий модели ва дастури миллий истиқлол ғоясининг ажралмас таркибий қисми, Ўзбекистон фуқароларининг янги авлодини шакллантиришнинг асосий пойдевори эканлигини ҳам унутмаслигимиз керак.

Шунинг учун ҳам мақолада кўтарилаётган масалалар ўз атрофига синчков муштарийларнинг кенг доирасини жалб этибгина қолмасдан, бутун жамоатчиликнинг диққат-эътиборини тортадиган муҳокама мавзусига айланиши лозим.

Қўйилаётган саволларга нисбатан шахсий нуқтаи назаримизни шарҳлашдан олдин баъзи мулоҳазаларга тўхталиб ўтмоқчимиз. Сир эмас, шу пайтгача, ҳатто мутахассислар ўртасида ҳам Кадрлар тайёрлаш миллий модели ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини айнан бир нарса деб қараш тушунчаси мавжуд.

Миллий модел, бизнинг назаримизда таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимининг вазифаси ҳамда тараққиётининг ғояси ва тамойилларини яхлит тарзда ўзида мужассамлаштирган, мустақил фалсафий-методологик ва ижтимоий-иқтисодий йўналишларнинг мажмуидир.

Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури эса аслида Кадрлар тайёрлаш миллий моделини ҳаётга тадбиқ этишнинг меъёрий асоси, восита ва механизмидир.

Шак-шубҳасиз, модел ва дастур ўзаро чамбарчас боғлиқ бўлиб, бир-бирини тўлдиради ёки халқ тили билан айтганда "бирбири учун яратилган» ва ўзаро бирликда амалга ошириладиган жараёндир. Аммо, тадқиқ қилишда уларни алоҳида ажратган ҳолда, мустақил тарзда айри-айрича таҳлил этиш зарурдир.

x x x

Хорижий давлатларда, айниқса, собиқ шўро давлати ҳудудидаги мустақил мамлакатларда амалга оширилаётган таълим тизимини такомиллаштириш борасидаги ислоҳотлар тажрибасини ўрганиш, етук олимлар ва мутахассислар илмий тадқиқотларини таҳлил этиш натижасида қуйидаги хулосага келиш мумкин: Миллий моделимиз ўз хусусиятига кўра, таълим тизими ва ислоҳотларнинг асосий мақсадини тарихий ва илмий жиҳатдан тўғри асослаб берган нодир моделдир.

Таълимнинг муҳим хусусиятларини бирбири билан узвий боғлиқ бўлган учта нуқтаи назардан — давлат, жамият ва шахс манфаатлари орқали қараш ва баҳолаш муҳим аҳамиятга эга. Ушбу қадриятларнинг ўзига хос муҳим жиҳатларини бир-биридан аниқ фарқлаб олиш, нафақат "таълимдан ким нимани ҳоҳлайди ва кутади» деган саволга жавоб берибгина қолмасдан, энг асосийси, таълим ривожининг стратегик мақсадларини рўй-рост белгилаб олиш имконини беради.

XX асрнинг тажрибасидан маълумки, жаҳоннинг аксарият мамлакатларидан фарқли ўлароқ, собиқ шўролар иттифоқида **"таълимнинг давлат қадрияти»** каби "хусусияти" устунлик қилди. Бу охир-оқибатда қандай натижаларга олиб келди?

Таълимни мавжуд тузумнинг сиёсий ва иқтисодий салоҳиятни юксалтириш қуролига айлантиришни мақсад қилиб олган социалистик давлат тузуми мазкур соҳа олдига «мафкуравий қобиққа солинган», яъни коммунистик ахлоқ тамойиллари асосида тарбияланган фуқарони ва ўз меҳнати натижаларидан ҳамда ижтимоий-сиёсий жараёнларни бошқаришдан узоқлаштирилган «социалистик мулк»ни кўпайтиришга хизмат қиладиган меҳнаткашни тарбиялаш вазифасини қўйди. Таълим тизимини маъмурий-буйруқбозлик бошқаруви талаблари асосида ташкил қилиш ва бошқариш, уни коммунистик мафкуранинг қулига айлантирди. Натижада ўқув юртлари етук мутахассислар, фаол фуқаролар ўрнига "социалистик тузумнинг хизматини қиладиган оддий мурват"ни тайёрлашга хизмат қилиб келди.

"Таълимнинг давлат қадрияти» сифатида талқин қилиниши, уни сирти ялтироқ, ичи қалтироқ шўровий ғояларнинг тарғиботчисига айлантириб қўйди.

Дарҳақиқат, ҳар бир давлатнинг таълим тизимини ривожлантиришга эътибор бериши, уни ўз сиёсатининг устувор соҳаларидан бирига айлантириши табиий ҳол. Аммо, таълимнинг давлат аҳамиятига эга эканлиги тўғрисидаги ғояни амалга оширишнинг аниқ тадбирлари белгиланмас экан, дабдабали шиор ва чақириқлар орқали сезиларли натижага эришиб бўлмайди.

Кенг қамровли ижтимоий ислоҳотлар (бунга таълим тизимидаги ислоҳотлар ҳам киради) бутун жамиятнинг онгли равишда қизғин қўллаб-қувватлашини, барча фуқароларнинг ва ҳар бир шахснинг фаол иштирокини тақозо қилади.

Таълимнинг сиёсий-ижтимоий аҳамияти ва қимматини белгилаб берувчи муҳим омиллардан бири — мустақил шахсни шакллантиришга йўналтирилганлиги ҳамда ҳар инсоннинг ўз билими, унинг даражаси ва сифатини оширишга бўлган онгли муносабатини камол топтиришга қаратилганидир.

Шу нуқтаи назардан олганда, юқорида тилга олинган қадриятларнинг умумий ва ўзига хос фазилати уларнинг ўзаро уйғунлиги ва бир-бирини тўлдириб боришидадир. Бу эса ушбу фазилатларнинг таҳлилига изчил (тизимли ёндошув) муносабатда бўлишни талаб этади. Изчиллик эса ўз навбатида "таълим қиймати" атамасининг тўлиқ моҳиятини англашга хизмат қилади.

Миллий моделнинг қимматбаҳо хусусиятларидан бири, унда ана шу бош мақсадга эришиш йўлидаги давлат, жамият ва шахснинг манфаатлари узвий равишда бир-бирига чамбарчас боғланиб кетганидадир.

Шуни яна бир бор таъкидлаш лозимки, шахс Моделнинг изчиллигини ва яхлитлигини таъминлайдиган асосий унсур бўлиб, Миллий дастурда айтилганидек, "Республикада амалга оширилаётган таълим соҳасидаги ўзгаришларнинг бош мақсади ва ҳаракатлантирувчи кучи, бу инсон омили, унинг ҳар томонлама ривожланиши ва фаровонлигидир» деган қоиданинг асосий моҳиятини ташкил этади.

Миллий модел ва дастурда туб ўзгаришларнинг асл мақсади, таълим тизимини (моделда анча кенг маънода — кадрлар тайёрлаш тизими) ислоҳ қилиш туфайли рўй берадиган барча ўзгаришларнинг асоси ва бош йўналиши, айни пайтда бу жараёнлардаги давлат ва жамиятнинг ўрни ва вазифалари аниқ-равшан кўрсатиб берилган. Яъни: ***"Шахснинг ҳар томонлама ривожланишини шакллантириш, уни замонавий, ўзгариб бораётган жамият ҳаёти билан мувофиқлаштириш, таълим ва касбий дастурларни онгли равишда танлаш ва уларни босқичма-босқич ўзгартириш, жамият, давлат ва оила олдида ўзининг масъулиятини ҳис қила оладиган фуқароларни тарбиялашдан иборат"***.

Бугунги куннинг ўзида ишонч билан айтиш мумкинки, ***"Кадрлар тайёрлаш миллий модели ва дастури Ўзбекистон мустақиллигининг меваси ва муваффақияти бўлиб, умумхалқ ишига айланиб, мамлакат тараққиётида стратегик мақсадларга эришишга асос бўлади»***.

Миллий модел шу тарзда " Таълим тизимида ислоҳотлар нима мақсадда ўтказилмоқда, бу ижобий ўзгаришлар мамлакатимизда вужудга келган янги ижтимоий-иқтисодий вазият талабларидан келиб чиқан ҳолда давлат, жамият ва шахс олдида турган қандай стратегик мақсадларга эришишга хизмат қилади?" каби асосий ва жуда муҳим саволга жавоб беради.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш лозимки, мазкур саволларга жавоб бериш билан Миллий моделнинг вазифаси тугамайди. Чунки, у таълим тизимини яхлит ва изчил ривожланишининг кафолатидир.

Шу ўринда Миллий моделимиз таълимнинг давлат, жамият ва шахсни шакллантиришдаги стратегик мақсадлари аниқ-равшан белгиланган йўналиш сифатида халқаро назария ва амалиётдаги тенги йўқ намунадир, десак асло хато қилмаган бўламиз.

Кўпгина мамлакатлар учинчи минг йиллик бошида ўзларининг таълим тизимларини замон талабларига мувофиқ такомиллаштириш ва янгилашга, яъни замон талаблари асосида қайта қуришга ўтдилар (ёки ўтишини эълон қилдилар). Масалан, таълим тизимининг атоқли етук мутахассиси, Россия Федерацияси Таълим Академияси умумий ўрта таълим институти директори, академик Ю.И.Дикнинг айтишича, Россияда таълим соҳаси олимлари ва мутасаддилари кўп вақтдан буён ва кўп ҳолларда мажбурий ҳамда умумий ўрта таълимнинг муддатлари, ягона имтиҳон тизимини жорий этиш, таълимни стандартлаштириш, ўқитувчилар меҳнатини рағбатлантириш, уларнинг ижтимоий мавқеини кўтариш ва ҳоказо масалалар бўйича муросага келишга уринаётганларига қарамасдан, бирорта натижага эриша олмаганлар.

Дарҳақиқат, бу муаммоларнинг жуда муҳимлиги ва долзарблигини ҳеч ким инкор этмайди! Аммо, Юрий Ивановичнинг таъкидлашича, уларнинг ечими ҳақидаги фикрлар ҳозирча шахсий ёки айрим гуруҳларнинг ташаббуси сифатида эътироф этилиб, давлат ва жамият томонидан қўллаб-қувватланаётгани йўқ. Оқибатда Ўзбекистондан фарқли ўлароқ шу пайтгача ислоҳотларнинг стратегик мақсадлари, уларни амалга оширишнинг аниқ усуллари белгиланмаган, қонуний асослари ишлаб чиқилмаган.

Ушбу фикримизга 2002 йил декабрь ойида Россия ректорлар Кенгаши съездининг бўлиб ўтганлигини яна бир далил сифатида келтириш мумкин. Биз бу ерда ҳам "ҳукумат» билан мутахассислар, олимлар ўртасидаги қизғин мунозараларнинг гувоҳи бўлдик. Кун тартибига эса яна ўша юқорида таъкидланган «маҳаллий», тор даражадаги (гарчи, бу масалалар ҳам муҳим бўлса-да) масалалар қўйилгани туфайли, кутилган самарага эришилмади.

Таълимнинг мақсадли йўналтирилганлиги уни жамият таркибий тизимининг ***таянчларидан бири*** сифатида баҳолаш муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Миллий моделда кўзда тутилган илмий асосланган ёндашув таълимни жамиятда (шу билан бирга халқаро ҳамжамиятда) рўй бераётган сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, демографик, экологик ва бошқа жараёнлар билан ўзаро боғлиқликда ва узвий алоқада кўриш имконини беради. Шу билан биргаликда таълимнинг ҳар бир таркибий қисми ушбу алоқадорликнинг муайян қирраларини ўзида акс эттиради.

Шунинг учун ҳам Миллий моделни ўзаро ҳаракатда уйғунлашган таркибий қисмлар (компонентлар)нинг яхлит мажмуи сифатида қабул қилиш ва тушуниш мақсадга мувофиқдир.

Миллий моделда таълим тизими ўзгарувчан, такомиллашиш ва ривожланишда бўлган жараён сифатида акс эттирилган. Инсоният тараққиётининг маълум бир босқичида пайдо бўлган таълим тизими замон талабларига кўра шакли ва ташкил этилиши, мазмуни жиҳатидан доимий равишда ислоҳ қилиб борилган. Табиийки, ушбу янгиланишларнинг сабаб ва моҳиятларини аниқ билиш ва таҳлил этиш таълим тизимининг ривожланиш жараёнини самарали бошқариш имконини беради.

Хусусан, кадрлар тайёрлаш ва таълим тизими тараққиётига бевосита таъсир кўрсатувчи асосий қирралар ва шартларни тўғри тадқиқ этиш, унинг истиқбол йўлларини аниқ кўра билишнинг асосий омилларидан биридир. Бундай ёндошув ислоҳотлар жараёнида таълим тизимининг шакли ва мазмунида содир бўладиган ўзгаришларни таҳлил этиш учун имконият яратади.

Миллий моделнинг юқорида келтирилган мақсади ва моҳияти ҳақида тавсифлардан қандай хулоса келиб чиқади? Уларнинг амалий самараси ва аҳамияти нималардан иборат?

Хулоса шуки, таълимни ташкил қилиш ва бошқариш борасида ўтказилаётган ислоҳотлар, таълимий-касбий дастурлар ва тарбиявий-маърифий лойиҳаларнинг моҳиятини белгилаш, ахборий ва педагогик технологияларни танлаш ва шу кабилар доирасида бу тизимнинг асосий вазифаси, яъни таълимнинг давлат, жамият ва шахсий қадриятларни уйғунлаштириш орқали «баркамол шахснинг шаклланиши»га йўналтирилган Миллий моделининг бош мақсадини аниқлаб бориш, моделнинг стратегик ғоялари ва талабларига қабул қилинажак қарорларнинг мос бўлишига эришиш, мунтазам равишда таълим тизимига нисбатан ташқи омилларнинг таъсири ва ички сифат ўзгаришларини инобатга олиш зарур экан.

Миллий модел замирига жамиятнинг **маданий-маърифий салоҳиятини** юксалтиришга йўналтирилган қудратли ғоя сингдирилган, деймиз. Бу таъриф нимани англатади?

Маълумки, минг йилликлар арафасида таълим тизими ўзининг асосий вазифаси – турли фанларга оид билимларни бериш вазифасини бажарибгина қолмасдан, маданий-маърифий салоҳиятни ривожлантиришга хизмат қилиши, яъни авлодлардан авлодларга мерос бўлиб келаётган маънавий, маданий, ахлоқий қадриятлар ва ғояларни ҳам ёшлар қалбига сингдириш борасида самарали воситага айланиши шарт ва зарурлиги тўғрисидаги тушунча қарор топди.

Дарҳақиқат, сўнгги икки юз йил давомида таълим аниқ фанларга оид маълумотларни, яъни фан-техника тараққиётига хизмат қиладиган "технологиялаштирилган» билимлар, малакалар ва кўникмаларни ёш авлодга етказиб беришда маълум муваффақиятларга эришди. Шу йўналишда таълим тизимлари ва ўқитиш технологияларининг ўртасидаги "мусобақалашув» ушбу билимлар, малакалар ва кўникмаларни "ким яхшироқ ва тезроқ» етказиб беришига қаратилди. Мана шу бирёқламаликка барҳам бериш учун эса тизимни тубдан ислоҳ қилиш, яъни бошқача самарали йўлларни танлаш зарурати пайдо бўлди.

Тан олиш керакки, Миллий дастур жорий этилаётган илк кунлардан тортиб, шу бугунгача ҳам ўрта махсус, касб-ҳунар таълим дастурларининг 60 фоизини умумий ўрта таълим асосларини сингдиришга қаратиш мақсадга мувофиқлиги борасидаги ноўрин фикрлар билдирилмоқда.

Шу ўринда ҳали ҳам таълим тизимининг вазифасига қотиб қолган тушунчалар билан ёндошаётган мутахассисларга яна бир бор эслатиб қўйиш лозимки, Миллий моделнинг асл моҳияти ва бош мақсади, ёшларга шунчаки билим бериш эмас, балки уларни **баркамол шахс сифатида шакллантиришдир**.

Миллий моделимизнинг бошқа таълим моделларидан мутлоқ фарқи ҳам айнан шундадир. Келгусида ҳам ушбу жиҳат ислоҳотларнинг янги босқичига оид меъёрий- услубий ҳужжатларни тайёрлаш, қарорлар қабул қилишда асосий таянч бўлиши лозим.

Дарвоқе, АҚШнинг машҳур "Миллат хавф остида» доктринасини эсга олайлик. Бунда илмий-табиий фанлар соҳасида билим беришда барча давлатлардан ўзиб кетиш, илғор информацион воситаларни таълим жараёнига жорий этиш, "технократик билимдонлик» ҳисобига технология соҳасида кескин юксалишни таъминлаш мақсад этиб қўйилди. Бу албатта жуда муҳим ва олийжаноб мақсад бўлса-да, аммо ягона ва чамаси, асосийси эмасдир.

Чунки, бундай дастурларда шахс, унинг қизиқишлари ва эҳтиёжлари ҳисобга олинмай қолади. Устуворлик таълимнинг айнан "моддий», "давлат аҳамиятига молик" қадриятларига бериларди. Натижада талабаларда уларнинг ҳар бирининг ўз халқига, инсониятнинг ягона ҳамжамиятга дахлдорлигини англаш туйғусини шакллантириш, миллий ва умуминсоний маънавий, маданий, ахлоқий қадриятлар ва ғояларнинг авлоддан авлодга етказишда ўзининг ўрнини англаш; маданиятлараро мулоқотларнинг тамойилларини тушуниш орқали турли халқларнинг миллий қадриятларидан баҳраманд бўлиш, пировардида инсонни қуршаб турган моддий ва маънавий дунёнинг яхлитлигини ҳис этишга ўргатиш иккинчи даражали вазифага айланиб қоларди. Яъни, таълимнинг маърифий-тарбиявий ва инсонпарварлик моҳияти ҳақидаги гаплар қуруқ шиордангина иборат бўлиб қолар, ёки очиқдан-очиқ инкор этиларди.

Ўрни келганда, халқаро терроризмнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш масалаларига тўхталиб ўтмасликнинг иложи йўқ. Террорчилик ҳаракатларининг кучайиб бораётганидан хавотирланган ғарблик ҳамкасбларимиз, хусусан Карл Дуйсберг жамғармаси (Германия, Ташқи ишлар вазирлигининг ташаббуси билан) вакиллари 2002 йилнинг сентябрь ойи охирида Шарқ ва Ғарб маданиятларининг таълим орқали ҳамфикрлилигига эришишнинг йўлларини топишга бағишланган алоҳида халқаро анжуман ўтказишди.

Уларнинг бир қисми таълимнинг айнан амалий масалалари ҳақида, масалан, саводхонликни ошириш (Покистон, Эрон, Ироқ...) ёки таълим даражаси ва кадрларнинг касбий маҳорати (Германия, Бельгия, ...) тўғрисида сўз юритган бўлсалар, аксарият форум иштирокчиларида мустақил Ўзбекистоннинг таълим соҳасида олиб бораётган ислоҳотлари, Миллий модели, хусусан, унинг замиридаги маърифий-маданий мақсадлар, шахсни шакллантиришга йўналтирилган тамойиллари катта қизиқиш уйғотди.

Машҳур мутахассислар (Оливер Рамсейер — Европа таълим жамғармаси, Уве Гюнер, Рейнхард Клозе — (ЦГБ), Германия; Барбара Бланкмейстер — (ФКД) Германия; Десаи Гоаидбхай — М.Ганди номидаги жаҳон университети ва бошқалар) Миллий моделимизнинг фундаментал ғоялари, дунё халқлари маданиятларининг ҳамфикрлилиги ва ҳамкорлигини мустаҳкамлаш, инсониятни зўравонлик ва террор домига тушиб кетишдан сақлаш йўлида катта аҳамиятга молик эканлигини алоҳида эътироф этдилар.

Бу эса ҳақли равишда фахрланиш туйғусини уйғотибгина қолмасдан, Миллий моделни янада чуқурроқ ва кенгроқ тадқиқ қилиш, ўрганиш, англаш борасидаги фаолиятимизни чуқурлаштириш ва ривожлантиришга даъват этадиган омиллардан биридир!

Миллий моделнинг яна бир муҳим жиҳати — дастурни амалга оширишга оид чора-тадбирлар мажмуига эътибор бериб, кўп миллатли, кўп элатли ва кўп конфессияли ҳамжамиятда долзарб бўлган **"хилма-хиллик оша бирликка эришиш"** тамойилини турмушга тадбиқ этиш масаласига мурожаат қиламиз.

Бизнинг фикримизча, бу муаммони **иккита ўзаро бир-бирига боғлиқ** нуқтаи назардан таҳлил этиш мақсадга мувофиқдир.

**Биринчидан,** Миллий моделнинг вазифаси ва бурчини аввало Ўзбекистон халқининг миллий истиқлол ғоясида қамраб олинган мақсад ва тамойиллари асосида бирлашуви, қолаверса барча тиллар, миллатлар, динларни сақлаб қолиш ҳамда ривожлантириш, шунингдек, жамиятимизнинг "ички» муаммоларини ҳал қилишдаги аҳамиятига кўра ўрганиш лозим.

**Иккинчидан,** Миллий моделнинг жаҳон таълим тизимларидаги ўрнини аниқ белгилаб олган ҳолда миллий таълим тизимининг халқаро таълим ҳамжамиятига қўшила боришига эришиши ва айни пайтда ўзига хослигини сақлаб қолган ҳолда, ўзига мос йўлни танлаши ва ривожланишига эътибор қаратилиши даркор.

Ишончимиз комилки, Миллий моделда "хилма-хиллик оша бирликка эришиш" тамойилининг юқорида қайд этилган таркибий қисмлари аниқ кўрсатилибгина қолмасдан, балки Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида ўз ифодасини топган.

Миллий модел ва дастур истиқбол вазифаларини адо этиш, жамиятнинг орзу-умидларига ҳамоҳанг ҳолда, уларни такомиллаштиришга фаол таъсир кўрсатишнинг ёрқин намунасидир.

Ушбу вазиятда " истиқболни кўра билиш ва олға етаклаб бориш вазифаси»ни икки жиҳатдан, яъни "ички ва ташқи илгарилаб бориш" нуқтаи назаридан баҳолаш мақсадга мувофиқдир.

Биринчи жиҳат ўзида Миллий модел ва дастурнинг "таълим ва таълим хизматларининг ички бозорида ишлаш" салоҳиятини, яқин келажак ва олис истиқболдаги давлат, жамият ва шахснинг эҳтиёжларини "олдиндан кўра билиш» имкониятларини мужассамлаштиргандир. Маълумки, битта мақола доирасида модел ва дастур истиқбол имкониятларининг барча қирраларини қамраб олиш мушкул вазифа. Аслида улар ислоҳотларнинг бош мақсадларидан тортиб, стратегик йўналишларгача бўлган мазмунда етарли даражада акс этган.

Иккинчи жиҳат эса Миллий модел салоҳиятининг таълим тизимлари ривожида умумжаҳон тенденцияларини ҳисобга олиш ва илгарилаб боришни ўз ичига олади. Улардан айримларини санаб ўтамиз: давлат томонидан кафолатланган мажбурий ўқиш муддатининг мутахассислик берилиши ҳисобига кўпайтирилганлиги, шахс камолотига йўналтирилганлик; "таълим бутун умр давомида" тамойилининг тадбиқ этилиши; тарбиявий-ривожлантирувчи тамойилнинг устуворлиги, таълимда маданий-маърифий йўналишнинг кучайиши; таълимни демократиялаштиришдир, инсонпарварлаштириш ва ижтимоийлаштириш; таълимнинг дифференциялашуви ва индивидуаллашуви; таълимда илғор информацион ва педагогик технологияларни қўллаш ва ҳоказо. Энди бошқа давлатларда таълим соҳасида амалга оширилаётган жараёнларга таққослаб кўрадиган бўлсак, Миллий модел ва уни жорий қилишнинг амалий тадбирлари нафақат хорижий дастурларга асосланганлигини, балки кўп ҳолларда улардан олдинга ўтиб кетганлиги яққол намоён бўлади.

Шу ўринда газетхон диққатини Миллий моделнинг яна бир ўзига хос хусусиятига қаратмоқчимиз. Бу унинг **технологик ва процессуал** жиҳатдан мустаҳкамланганлиги, яъни стратегик мақсадларни амалиётга тадбиқ этишнинг йўллари, усул ва воситалари тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ва йўриқномаларнинг Кадрлар тайёрлаш миллий дастури орқали жорий этилишидир.

Юқорида қайд этилган Миллий моделнинг асосий, яъни, унинг истиқболни қамраб олиш ва технологик хусусиятлари орқали Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини ҳаётга тадбиқ этиш жараёнларида туғилиши мумкин бўлган (ёки пайдо бўлган) чеклашлар ва тўсиқларни аниқ пайқаб олиш мумкин.

Жумладан, Миллий модел талабларига мос равишда педагог кадрлар тайёрлаш масаласини олиб қарайлик.

Бошқача қилиб айтганда, замон олдимизга жамият қадриятларининг ўзгариш қонуниятларини зийраклик билан пайқайдиган ва уларга мослаша борадиган, шу билан бирга болалар тарбиясига оқилона ва ўта масъулият билан ёндошадиган педагогларни (мураббийлар, тарбиячилар, маориф ходимлари) тайёрлаш масаласини қўймоқда.

Шунинг учун ҳам асосий эътибор фақатгина ўқув фани асосларини ўргатишга қаратилмасдан, балки боланинг улғайиш жараёнида ривожланаётган қизиқиш ва қобилиятини юракдан ҳис қиладиган, англайдиган ва ижобий муносабатда бўладиган кенг фикрловчи ва билимдон педагогни тайёрлашга йўналтирилган бўлиши керак.

Моделнинг бу ғояси, яъни педагогиканинг шахс тарбиясига йўналтирилганлик ғояси бугунги кунда ўзининг кейинги ривожини топмоқда; ўсиб келаётган авлодни шунчаки яшашга ўргатадиган, ахлоқий панд-насиҳат бериш билан чегараланувчи педагог — педагог эмас, балки бола тақдирини ўз тақдиридай ҳис қила оладиган ҳамда унинг ички, маънавий-ахлоқий, умуммаданий ўсишига сездирмай кўмаклашадиган, болаларни қуршаган атроф-муҳитни кенгайтира бориб, болалар ва катталар ҳамжамиятининг мустаҳкамланишига таъсир кўрсата бориб, ўзи ҳам ўсиб бораётган педагог — ҳақиқий педагогдир.

Шу боисдан ҳам ҳақиқий педагог бугун нафақат билим доираси кенг мутахассис, балки юксак маданиятли, болалар ва ўсмирлар билан ҳамкорликда ишлаш борасида ижодкор шахс бўлишига эришиш лозим. Чунончи, ***"... эртага ўқув аудиторияларига кимнинг кириб бориши ислоҳотлар ва ўсиб келаётган авлод тақдири билан бевосита боғлиқдир...".***

Шу ўринда ҳақли савол туғилади: малакали мутахассислар тайёрлаш, Ўзбекистон фуқароларининг янги авлодини тарбиялашда педагоглар фаолиятининг самарадорлиги қай даражада? Бугун педагогларни тайёрлаш борасида тадбиқ этилаётган барча жараёнлар Миллий моделнинг юксак мақсади давлат, жамият, шахснинг ўсиб бораётган талабларига мувофиқ келадими? Мазкур муаммо мураккаб ва кўп тармоқли бўлиб, у биринчи навбатда ва тез фурсатда ҳал этишни тақозо этади.

Ушбу йўналишда давлатимиз томонидан олиб борилаётган амалий ишлар сирасида биргина мисолни келтириш мумкинки, Осиё Тараққиёт Банки томонидан жалб этилган 108,5 млн. АҚШ долларига тенг имтиёзли кредит маблағининг қарийб 40 млн. АҚШ доллари бевосита педагогларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимини шакллантириш ва такомиллаштиришга йўналтирилди. Яқин кунларда бу тизимда 250 мингдан зиёд ўқитувчи-педагоглар қайта тайёргарликдан ўтадилар.

Яна бир мисол, бу таълимнинг янги тури ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимини шакллантириш ва ривожлантиришга берилаётган эътибордир. Аммо, бу соҳада амалга оширилаётган ишлар Миллий моделнинг ғоя ва талабларига тўлиқ мос келадими? Таълимнинг янги йўналишини такомиллаштириш мақсадида давлат ва жамият томонидан сарфланаётган катта куч ва ҳаракатлар кутилган самарасини бераяптими? Амалга оширилаётган ислоҳотлар давлат, жамият, шахснинг эҳтиёжларига тўлиқ жавоб бераяпти, деб айта олиш мумкинми? Шубҳасиз, ислоҳотлар даврида кўпгина ютуқларга эришилди, ушбу йўналишда стратегик масалаларни амалга оширишга муваффақ бўлинди. Бироқ, бу соҳада ўз ечимини кутаётган масалалар ҳали анчагина бор. Бу — таълим-касбий дастурларнинг таълим ва тарбия жараёнларнинг узлуксиз ва узвийлигини таъминлаши; шахснинг ҳар томонлама ривожланишини таъминловчи тарбиявий жараёнлар мазмунини шакллантириш ва ташкил этиш; давлат бюджети, маҳаллий ва хорижий сармоядорларнинг маблағларидан оқилона фойдаланиш; фан, ишлаб чиқариш ва таълимнинг амалий жиҳатдан уйғунлашувини таъминлаш масалалари билан боғлиқдир...

Хулоса сифатида яна бир бор таъкидлаш жоизки, ҳозирги жамиятдаги умумжаҳоний (глобал) ва маҳаллий (локал) муаммоларни оддий йўл билан ечиш мумкин эмас. Бу ўзига хос фавқулодда янги ғояларни ҳаётга тадбиқ этишга дадиллик ва қатъият билан ёндашувни талаб этади.

Бу ғоя ва ёндашувлар тор прагматик ва технократик тафаккур таъсиридан қутила олмаётган кишилар учун амалга ошмайдиган хомхаёл бўлиб туюлиши мумкин. Шу нуқтаи назардан олганда юртдошларимиз дунёқарашини ана шундай эскича тушунчалар исканжасидан халос қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Ҳар ким буюк янгиланишлар аслида ғоядан бошланишини англаб етмоғи зарур.

Айнан Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг пайдо бўлишига Президент Ислом Каримовнинг ғояси пойдевор бўлганини унутмаслигимиз лозим.

Масаланинг бутун моҳияти **Моделни амалиётга тадбиқ этишни таъминлаш**, ғоянинг назарий мақсадларини ҳаётий талабларга жавоб берадиган концепцияга, яхлит ва мукаммал ҳаракат дастурига, фаолиятимизнинг ёрқин режасига айлантиришнинг уддасидан чиқа олишдадир.

**Ушбу мураккаб ва юксак мақсадлар Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида ўзининг тўлиқ ифодасини топган.**

Асл манбага қайтиш — ягона мақсад ёки қуруқ файласуфона мушоҳада юритиш воситаси эмас, балки Кадрлар тайёрлаш миллий моделини ҳаётга татбиқ этишнинг амалий зарурати ва давр тақозосидан келиб чиққан вазифадир. Буни, фақат ислоҳот жараёнида ўзимизда ва хорижда орттирилган назарий тажрибалар эмас, балки Миллий дастурни бажариш пайтида орттирилган хулосалар ҳам тақозо этмоқда.

Юқоридаги фикрлар мазкур масалага кенг жамоатчиликнинг диққат-эътиборини жалб этиш орқали "Ислом Каримов модели» номи билан эътибор қозонган Миллий моделимизнинг моҳиятини янада кенгроқ ва теранроқ ўрганиш, унинг замиридаги бош мақсад ва муддаоларни тўлиқ англаш ва шу йўналишдаги илмий-тадқиқот ишларини янада такомиллаштириш зарурлигини яна бир бор таъкидлайди.

Юртбошимизнинг сўзлари билан айтганда: **"Бизнинг аждодларимиз ҳамиша узоқни кўзлаб яшаган. Миллат, Ватан, халқ истиқболи, деган муқаддас тушунчалар ҳамма вақт қалбимизнинг тўридан жой олиб, ҳар биримизнинг онгимизда чарх уриб туриши даркор."**

***Ш. ҚУРБОНОВ***
***педагогика фанлари доктори, профессор***

**Lekin, bir narsa aniq: ijtimoiy taraqqiyotning bundan keyingi holati siyosiy partiyalar faoliyati tufayligina sodir bo'lishi mumkin. Bu — aksioma.**

**Qolaversa, ularga "hozirgi yoshlar bilan ishlash qiyin, bekorga sog'liging ketadi, hech kim senga rahmat aytmaydi", deb aql o'rgatuvchi shaxslar ham oramizda kam emas.**



(Давоми. Боши 1-бетда)

Лекин, Касби туманидаги 1- ва 26- ҳамда Ғузор туманидаги 1-мактабларнинг аттестация хулосалари сайланма тартибда мутахассислар томонидан жойида кўриб чиқилганда уларнинг моддий-техник базаси аттестация жараёнида баҳоланганидан ҳам ночор эканлиги ("моддий-техник базаси"га ажратилган 150 баллнинг бор- йўғи 57 бали — 38 фоиз) тасдиқланди. Аттестация баллари холисона қўйиб берилган ҳолда, экспертлар моддий-техник базани "аттестациядан ўтмади" деб эътироф қилишга журъат этмаганлар. Ва бу ҳолатга ҳеч қандай чора, зудлик билан бажарилиши лозим бўлган тадбирларни белгиламаганлар.

ўқув лабораторияси хонаси 30 фоиз жиҳозланган" деб топилганлиги ушбу мактаб жамоалари ҳаётида қандай ўзгаришлар олиб келиши мумкин деб ўйлайсиз?

Педагогик кадрлар салоҳияти 28 ёки 45 балл билан баҳоланган бўлса, бу кўрсаткич таълим муассасасининг эҳтиёжини қоплаш- қопламаслиги, аниқланган ҳолатни ўзгартириш чоралари ҳақида аттестация комиссиясининг муносабати билдирилмаган.

Гарчи, аттестация хулосаларида педагогик кадрлар талабга жавоб бермаслиги қайд этилган бўлса, бунинг асосий сабаби нимада? Уларнинг олий ўқув юртидаги тайёргарлигими ёки охирги марта 20 йил олдин малака оширганлигидами? Педагогик салоҳиятни кўрсатиш билан кифояланиб қолмоқда. Бу жуда қулай ва вақтни тежайди. Бунда таълим муассасасини текшириб ўтириш ҳам талаб этилмайди. Лекин, савол туғилади — бундай аттестация кимга керак? У қандай мақсадни кўзлайди?

Қайд этилганларни умумлаштириб, ҳаммаси аттестациянинг "техник" кўрсаткичлари деб, эътироф этиш мумкин. Аттестация тадбирларининг аслига мос равишда холисона баҳоланиши, мазмун-моҳияти, сифат кўрсаткичлари ва натижаларига қараб ҳар бир муассасанинг тараққиёт йўлини белилаб бериши, яқин беш йил ичида унинг ривожланиш дастурини ишлаб чиқиш эса — уни давлат мақоми даражасига кўтаради.

Натижада, янги ўқув йили бошида жойлардаги таълим бошқарув органлари аттестация қарорига мос равишда чуқурлаштириб ўқитиладиган фанлар бўйича мактабни тарификациядан ўтказа олмайдилар ва ўқув режаларига зарурий ўзгаришлар кирита олмайдилар. Чунки, аттестация ҳужжатларида мактабга бундай ҳуқуқ берилмаган ва унинг мақоми тегишли равишда расмийлаштирилмаган. Лўнда қилиб айтганда, муассаса — жорий этилган умумий ўрта таълим давлат стандартлари доирасида аттестациядан ўтган ва шунга аккредитация олиши лозим.

Бу ҳол, барча Давлат аттестация комиссиялари ва уларнинг таркибида фаолият кўрсатаётган эксперт гуруҳларига тааллуқли бўлиб, улар томонидан давлат аттестациясининг юридик кучи ва моҳиятини тўлиқ тушуниб етмаганлигини кўрсатади.

# АТТЕСТАЦИЯ ХУЛОСАЛАРИ ХОЛИСМИ?

Ёки бўлмаса, Сурхондарё вилоятида аттестациянинг боришини мисол қилиб кўрсатиш мумкин. Ҳудудий давлат аттестация комиссиялари таркибидаги эксперт гуруҳлар мукаммал шакллантирилмаганлиги, улар билан махсус ўқувлар ташкил этилмаганлиги, аттестация бўйича тавсия этилган баҳолаш мезонлари, хусусида тушунтиришлар етарли даражада олиб борилмаганлиги сабабли, уларнинг таълим муассасаларида олиб борган фаолиятлари кўзлаган натижани бермади ва давлат аттестацияси мақомига эга бўлган ҳужжат "аттестация хулосаси" — оддий текширув маълумотномаларидан фарқ қилмай қолди.

Масалан, Олтинсой туманидаги 12-мактабнинг аттестация хулосасида педагогик кадрларнинг салоҳияти таҳлил этилганда ўқитувчиларнинг 51 фоизи ўрта махсус маълумотли педагог ходим эканлиги, Денов туманидаги 80-мактаб моддий-техник базасининг экспертизаси "... мактабнинг физика-кимё

ятни кўтариш, уни янада кучайтиришга қарата мақсадли тадбирларни ишлаб чиқишда давлат аттестацияси ўқитувчиларнинг заиф томонларини кўрсатиб бердими?

Афсуски, Давлат аттестация комиссияси ва эксперт гуруҳлар томонидан аттестация жараёнида шу каби аниқланган камчиликлар умуман эътиборсиз қолдирилмоқда. Таълим муассасаси аттестация хулосалари аксарият ҳолларда "миқдорий" баҳолаш билан кифояланиб, уларда асосий мақсад — таълим мазмуни, кадрлар тайёрлаш жараёни, унинг сифати етарли даражада ёритиб берилмаган. Тўғри, ҳукуматимиз томонидан қабул қилинган қарорларнинг ижроси санаб ўтилган бўлса-да, уларнинг муайян таълим муассасаси фаолиятини ислоҳ қилишда тутган ўрни, аҳамияти кўрсатилмаган.

Наманган вилоятининг айрим туманларидаги Давлат аттестация комиссиялари ўз ҳужжатларини тўлиқ компьютерга тушириб, фақат мактаб ёки боғча рақамини

Таълим муассасаси аттестация хулосаси мезон бўйича олинган баллар асосида, ушбу ўқув маскани ўқув режа ва дастурлари, педагогик кадрлар салоҳияти, унинг моддий-техник ва ўқув базасининг Давлат таълим стандартлари асосида таълим-тарбия жараёнини ташкил этиши, унинг аттестациядан ижобий ўтиши — муайян мактабга белгиланган намунадаги шаҳодатномани бериш ҳуқуқини — аккредитациясини тасдиқлайди. Аммо, экспертизага олинган ҳужжатларнинг барчаси "... таълим муассасаси 9 йиллик умумий ўрта таълим берувчи таълим муассасаси мақомига эга" эканлигини кўрсатди.

Давлат аккредитациясига тақдим этилган расмий ҳужжатларнинг биронтасида (Тошкент шаҳри бундан мустаснодир) мактабларнинг ихтисослиги, муайян бир мактабда қайси фанлар чуқурлаштирилиб, ўқитилиши мумкинлиги белгилаб берилмаган. Бошқача айтганда, мактаб бу йўналишда аккредитациядан ўтмаган ҳисобланади.

Республика мактабларининг 2 йиллик режаси 55 фоиз бажарилиши — аттестация суръатларининг суст эканлигидан далолат беради. Бунда, болалар боғчалари аттестация режалари 64 фоиз мактабдан ташқари таълим муассасалари атиги 17 фоиз бажарилганлигига изоҳнинг ҳожати йўқдир.

Албатта, аттестация ишларига бундай ёндашув — жойлардаги комиссиялар фаолиятига, режаларнинг вақтида бажарилмаслигига, бевосита аттестациянинг сифатига салбий таъсир кўрсатиши табиийдир.

**С.АБДУЛЛАЕВА,**
**ДТМ қошидаги Кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш, педагог кадрлар ва таълим муассасалари аттестацияси бошқармаси бош эксперти**

*Ta'kid*

# ДИПЛОМЛИЛАР НЕГА МАКТАБГА БОРМАЯПТИ?

Маълумки, мамлакатимизда педагогика йўналишидаги олий ўқув юртларини ҳар йили турли фанлар бўйича кўплаб мутахассис педагоглар битириб чиқади. Аммо республикамиз мактабларида, коллеж, лицейларда ҳанузгача турли фанлар бўйича ўқитувчилар сони етарли эмас. Шу боис табиий савол туғилади: нима сабабдан ёш ўқитувчилар ўз касби бўйича ишлашни хоҳлашмайди, нима учун улар бошқа идораларда, ташкилотларда, бутунлай бошқа соҳада ишлашга интиладилар?

Бунинг асосий сабаби ўзлари танлаган касбларини севмаганликларидадир. Шунингдек, педагогика билим юртларида ўқитувчилик касбига меҳр-садоқат уйғотадиган фанлар жуда суст ўтилади. Талабаларимиз бугун ўқитувчилик касбининг машаққатларини, қийинчиликларини амалда кўриб турибдилар. Қолаверса, уларга "ҳозирги ёшлар билан ишлаш қийин, бекорга соғлигинг кетади, ҳеч ким сенга раҳмат айтмайди", деб ақл ўргатувчи шахслар ҳам орамизда кам эмас. "Устоз отангдай улуғ" деган мақол ҳам ҳозирги кунда фақат чиройли сўзга айланиб қолди.

Лекин, ишончим комилки, ўқитувчи асабининг, соғлигининг тўғри сарфланиши, қилган иши учун фақатгина раҳмат эшитиши, обрў қозониши, энг аввало, унинг ўзига боғлиқ. Ўқитувчининг ақли, заковати, иродаси таълим олувчилардан қанчалик кучли бўлса, у ҳар қандай ўқувчини бошқара олади, турли вазиятда ўқитувчининг маҳорати, ақл-заковати, инсонпарварлиги, маданияти, кучли иродаси уни ҳамиша ҳурматта сазовор этади. Ёш ўқитувчиларимизда айнан шу фазилатларни тарбиялайдиган фанларнинг ўтилишига алоҳида эътибор беришимиз лозим.

Педагогика фанлари илмий текшириш институтининг диссертацион жамғармасида ўқувчи-ёшларни касбга йўналтириш ҳақида қатор илмий тадқиқот ишлари мавжуд. Лекин амалда ушбу илмий ишлар асосида кўрсатилган тавсия, усул-услублар етарли даражада қўлланилмаётганлиги аён. Олимларимиз илмий тадқиқотларини таълим-тарбия жараёнига жорий этмасак, улар илмий жиҳатдан асослаб берган илғор тажрибаларидан кенг фойдаланмасак, тадқиқот ишлари, диссертация ҳимояси билан чекланиб қолаверса, амалиётда кенг оммалаштирилмаса, у ҳолда баркамоллик ҳақидаги ғоялар амалиётда фақатгина кенг маънодаги чиройли сўзга айланиб қолмайдими?! Фан номзоди ёки доктори илмий унвонини олишга мушарраф бўлган педагог олимларимиз ўз тажрибаларини методик қўлланмалар шаклида таълим муассасаларига етказишса, ўқитувчиларимиз илғор педагогик технологиялардан бохабар бўлар эдилар. Зеро, диссерта-цияларни фақат илмий иш билан шуғулланаётган шахсларгина ўқиш ҳуқуқига эга.

Ҳозирги кунда нафақат педагогика ОЎЮларида, балки ЎМКҚТ муассасаларида ҳам психология, методика, педагогика, этика-эстетика дарсларининг ўқитилишига алоҳида эътибор қаратилиши лозим. Чунки айнан шу фанлар ўқитувчилик касбининг қизиқарли, шарафли, ижодий ва ижобий томонларини ёритади. Бунинг учун сўнгги йиллар мобайнида педагогика ва психология бўйича ҳимоя қилинган диссертацияларда кўрсатилган методик ва педагогик тавсиялар асосида педагогика билим юртларининг ўқитувчилари учун қўлланмалар яратилиб, улардан бўлажак муаллимларни тарбиялаш дарсларида тўла-тўкис фойдаланиш лозим.

Таълим муассасалари кутубхоналарида ўқитувчилар учун алоҳида "Илғор педагогик технологиялар" бурчаги ташкил этилса, бунда педагог олимларимизнинг илғор технологиялар, тажриба ва натижалари хусусидаги асарлари, қўлланмалар тўпланса ва илм-фан ривожланишига кўра доимий равишда тўлдириб борилса, ўқитувчиларимизга катта ёрдам кўрсатган бўлар эдик. Шунингдек, ёш педагог талабаларнинг ўқув амалиёти даврида улар ўқитган синфлардан махсус тест олиниши жорий этилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Токи, ушбу тест бўлғуси ёш ўқитувчига илк ўқувчилари томонидан берилган холисона баҳо бўлса.

**Зарина ШАМИЕВА,**
**аспирант**



**Сирдарё вилояти Шароф Рашидов туманидаги 21- "Шодлик" мактаби вилоятдаги таълим жараёни илғор даражада йўлга қўйилган илм маскани саналади. Мазкур таълим муассасасининг Ўзбекистон педагогика илмий-тадқиқот институти синов майдончаси ҳисобланишининг сабаби ҳам шунда. Мактабнинг таълим жараёнидаги илғорлиги эса бошланғич таълим сифатига боғлиқлиги сир эмас. Демак, илм масканида бу борадаги ишлар ҳам намунали йўлга қўйилганидан дарак беради.**

**Суратдаги бошланғич синф ўқитувчиси Шоира Асатова ҳам мактабнинг таълим-тарбия илғорлигига эришишида катта улуши бор.**

**Бурҳон РИЗОҚУЛОВ олган сурат.**

# СИЁСИЙ ПАРТИЯ ВА ЖАМИЯТ: уларга муносабат қандай?

***Жамият давлат томонидан бошқарилади ва идора этилади. Турли ижтимоий-сиёсий гуруҳлар, оқимлар, ташкилотлар, ҳаракатлар ҳам муайян ғоя доирасида бирлашади. Дунё миқёсидаги йирик, ўртача давлат сифатида эътироф этишга арзийдиган барча мамлакатларнинг ҳам худди шундай устувор кучи бор. Ўз мустақиллигини мустаҳкамлаш йўлидан бораётган Ўзбекистон учун ҳам бу ҳолат бегона эмас.***

***Сиёсий партияларнинг ҳаракат йўналишлари хусусида фикр юритар эканмиз, Ўзбекистонда бир қанча партиялар фаолият юритаётганини таъкидлаш ўринлидир. Хўш, замондошларимиз жамиятдаги сиёсий партиялар фаолиятини қандай баҳолашади? Умуман, ҳозирги вақтда Ўзбекистонда фаолият кўрсатаётган бир нечта сиёсий партияларнинг роли ва мавқеи хусусида нималар дейиш мумкин? Қуйидаги мулоҳазалар шу ҳақда.***

**Абдуҳалил МАВРУЛОВ, Тошкент давлат маданият институти биринчи проректори, тарих фанлари доктори, профессор:**

— Биз ҳозир ижтимоий тараққиётнинг ҳар томонлама янги, сифат жиҳатдан фарқланувчи босқичида турибмиз. Юртбошимиз таъкидлаганидек, биз "... тарихимизнинг ўша туб бурилиш нуқтасида, ғоят хатарли ва мураккаб кунларда ҳақиқатдан ҳам яккаю ягона тўғри йўлни танладик. Яъни, мустабид тузум, ўта мафкуралашган, миллий ўзлигимизни топтаган эски тузумдан воз кечиб, халқимизнинг хоҳиш-иродаси, азму қарорини бажо келтириб, очиқ демократик ва ҳуқуқий давлат қуриш, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини шакллантириш йўлини танладик" ("Халқ сўзи", 2002 й. 30 август).

Дарҳақиқат, шундай. Ана шу янги йўлга ўтишнинг воситалари ва усуллари турлича бўлиб, уларнинг энг муҳимларидан бири кўппартиявийликдир. М.Вебернинг таъкидлашича, "... партиялар ўз аъзоларининг ихтиёрийлигига асосланган, ўз олдига аъзоларининг моддий фойда ёки шахсий имтиёзлар олиш учун маънавий ва моддий шароитлар яратиш мақсадида сиёсий ҳокимиятни эгаллашга йўналтирилган жамоат ташкилотларидир".

Ушбу таърифда диққатни тортадиган ягона мантиқ — сиёсий ҳокимиятни эгаллашга интилиш масаласи. Ўзбекистоннинг ҳозирги ижтимоий-сиёсий ҳаётида мавжуд партияларнинг бу борадаги ўрни қандай? Сиёсий партияларнинг аҳоли маълум қисми ёки қатламини ўз дастури асосида ягона мақсад сари йўналтиришига тўсиқ бўлаётган нарса нима?

Биз шу нарсага аминмизки, ушбу саволларга ягона ва тўғри жавобни топиш қийин. Бироқ, бу биздан айрим мулоҳазаларни баён этиш ҳуқуқини ҳам олиб қўя олмайди. Тўғрисини айтиш керак, Ўзбекистонда ҳозирда фаолият кўрсатаётган барча партиялар "партиявий вазифа"ни бажара олмаяпти. Мамлакатимиздаги барча партияларни худди эгизакларга қиёслаш мумкин. Уларнинг дастурида принципиал жиҳатдан ажралиб турувчи ҳеч қандай фарқ йўқ. Бошқача сўз билан айтганда, фуқароларимиз мавжуд тўрт партиянинг қай бирига аъзо бўлмасин, улар ҳеч нарса "йўқотмайди"лар. Чунки улар бир хил.

Маълумки, демократик ҳуқуқий жамият қуриш билан жамиятни эркинлаштириш мантиқий уйғун вазифа. Шу ўринда аввал жамиятни демократлаштириш, ундан сўнг пировард натижада эркинлаштиришга эришиш лозимми ёки жамиятни эркинлаштириш туфайли демократик мамлакат барпо этиш керакми, деган тарзда масалани кўндаланг қўйишнинг унчалик аҳамияти бўлмаса керак.

Лекин, бир нарса аниқ: ижтимоий тараққиётнинг бундан кейинги ҳолати сиёсий партиялар фаолияти туфайлигина содир бўлиши мумкин. Бу — аксиома.

Ҳозирги кунда сиёсий партиялар фаолияти учун тенг ҳуқуқий имконият ва шарт-шароитлар яратилмоқда. Бундай сиёсий уюшмалар зарур эканлигини ҳам кўпчилик билади. Лекин шунга қарамасдан уларнинг ижтимоий-сиёсий нуфузи даражаси паст. Унинг сабаблари фикримизча қуйидагилардан иборат.

**Биринчидан** ва энг асосийси, фуқароларда тафаккур ўзгаришига эришиш лозим. Яъни уларда соғлом эҳтиёжларни пайдо қилиш керак. Мавжуд ҳолатдан қониқиш ҳосил қилиш эса кишиларда ўзининг "иккинчи табиати"ни очишга ҳалақит бермоқда.

Одамлардаги мавжуд ҳолатга мослашув уларда турғунликни юзага келтиради. Турғунлик — ҳаракатсизлик. Шу аснода таъкидлаш лозимки, жамиятда сиёсий партияларга муҳтожликнинг йўқлиги ёки камлиги тафаккуримиздаги турғунлик ҳолатининг кучлилиги билан белгиланади.

**Иккинчидан,** сиёсий партиялардаги "эгизаклик", "умумийлик" улар нуфузининг ортишига йўл қўймаяпти. Умумийликдан хусусийликка ўтишда ўз "йўли"га эга бўлиш ўта муҳимдир.

Бир нарсани аниқ билиб олиш лозим: мақсадимиз тайин — демократик, ҳуқуқий, инсонпарвар жамият қуриш. Бироқ, ушбу мақсадга эришиш йўлларини такомиллаштириш мумкинлиги аён-ку! Мақсадга етакловчи воситаларнинг ранг-баранглиги, йўл, усулларнинг турфалиги сиёсий партияларнинг ижтимоий обрўйини ошириши мумкин.

**Учинчидан,** фуқароларда ижтимоий фаолликнинг сустлиги сиёсий партиялар каби ўта зарур феноменал ҳодисанинг зарурлик даражасига жиддий соя солмоқда. Шундай шароитда айрим қадриятларимизни ҳам бошқатдан ўрганишимиз, уларга учинчи мингйилликда содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар моҳиятидан келиб чиққан ҳолда баҳо беришимиз лозим.

Ижтимоий фаолликнинг сустлиги эса фуқароларда сиёсий маданиятнинг етишмаслиги оқибатида содир бўлади. Сиёсий маданият — моддий-иқтисодий, маиший муаммоларни рад этмаган ҳолда кўпроқ миллий, ижтимоий-сиёсий нуқтаи назардан фикр юритиш ва шунинг асосида у ёки бу миллатнинг жаҳон цивилизацияси тараққиёт даражасидан ортда қолишига йўл қўймайдиган, аксинча, ушбу этник бирликни бирлаштирувчи, уюштирувчи, ягона мақсад йўлида сафарбар этувчи қадриятдир.

**Миродил БАРАТОВ, Тошкент давлат юридик институти ўқитувчиси:**

— Бугунги кунда дунё тамаддунида, ижтимоий ҳаётда турли жамоат ташкилотлари каби сиёсий партияларнинг ҳам ўрни беқиёс ошиб бормоқда. Биламизки, сиёсий партия ҳам жамоат бирлашмасининг шакли ҳисобланади. Аммо жамиятдаги вазифасига кўра, сиёсий партия жамоат бирлашмаларидан кескин фарқланади. Жамоат бирлашмаси амалдаги қонунларга кўра ташкил топадиган ихтиёрий тузилма бўлиб, у фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини, давлат ва жамият ишларини бошқаришда улар иштирокини ривожлантириш, ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларида муштарак манфаатларни рўёбга чиқариш учун хизмат қилади. Ҳеч муболағасиз айтиш мумкинки, жамоат бирлашмаларининг, бинобарин, сиёсий партияларнинг ҳам мавжудлиги ва ишчан фаолияти демократиянинг ўзига хос тантанасидир. Айтганимиздек, жамоат бирлашмалари орасида сиёсий партиянинг давлат ва жамият ҳаётида алоҳида ўрни бор. Сиёсий партияларнинг асосий мақсади — бу ҳокимиятга интилиш, ҳокимиятни эгаллашдир. Қарашларнинг турли-туманлиги, сайловолди сиёсий платформаларнинг турфалиги сиёсий партияларни бир-биридан фарқлаб туради.

Дунёнинг илғор, маърифий давлатларида сиёсий партиялар кураши жуда ҳам сезиларли. Аҳолининг кенг қатламлари орасида "сиёсий очко" йиғиш, пировардида, сайловларда ғалаба қозониб, ҳукуматни ўз аъзоларидан ёки иттифоқчилардан тузиш ҳаракати кучаяди. Бундай фикрни биз ўзимизга нисбатан айта оламизми? Афсуски, аҳолининг кўпчилик қисмида шу кеча-кундуздаги тирикчилик важидан сиёсий фаоллик, уюшқоқлик, фуқаролик позицияси фаоллиги кучли даражада сезилмаяпти. Ваҳоланки, бутун дунёда бугунги кунда давлатлар, миллатлар "приоритет" учун курашмоқдалар. Алламбало саъй-ҳаракатлари, тиришқоқликлари эвазига дунё аҳлини ўзларига жалб этмоқдалар. Америкада республикачилар, Англияда консерваторлар партияси борлигини бутун дунё билади. Япония партияларидан бири раҳбарининг давлатимиз бошлиғи билан бевосита мулоқотга киришуви — булар ҳазил гапларми, ахир? Шу маънода айтмоқчимизки, бизнинг ҳам бир тан, бир жон бўлиб, шу азиз Ватан барчамизники, меники деб, Ватаним тақдири — менинг тақдирим, деб яшашнинг мавруди аллақачон келган. Ушбу йўлда сиёсий партиялар аҳоли ўртасида восита ролини ўйнаши керак.

**Азамат МУХТОРОВ, Тошкент давлат иқтисодиёт университети "Фалсафа" кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди:**

— Давлат ва халқ бир-бирига таянади. Уларга мажозий маънода таъриф берадиган бўлсак, бир-бирисиз яшаши ва бир-бирисиз нафас олиши ҳам мумкин эмас. Уларни деярли бир хил мақсад ва маслаклар яқинлаштириб туради.

Тўғри, ҳозирги вақтда Ўзбекистонда ҳам фуқароларнинг ўз-ўзини бошқариш органлари, институтлари, бирлашмалари шаклланяпти. Кўппартияли тизимнинг вужудга келиши ҳам шундан далолат бериб турибди. Мисол учун, Ўзбекистон Халқ демократик партияси билан "Миллий тикланиш" миллий-демократик партияси сингари социал-демократик "Адолат", "Фидокорлар" миллий-демократик партиялари ҳам ўз Низом, тартибот, тузилма ва дастурларига эга. Аммо бу сиёсий партияларнинг жамият бошқаруви турли бўғинларидаги аралашуви анча суст. Бундан ташқари, улар ўртасида рақобат муҳитини ҳам сезмайсиз.

*Nigoh*

Хизмат тақозоси туфайли вилоятларга борамиз. Бирор партия аъзоси бўлган кишилар билан суҳбатлашганимизда, уларнинг ўз партияси Низомлари билан ҳам таниш эмасликлари ойдинлашади. Бунинг биз билган, билмаган сабаблари бор. Агар ҳозирги вақтда, кимгадир "Фалон партия аъзолигига киринг" десангиз, энсаси қотади. Чунки чинакам мулоҳаза қилиб кўрсак, партиялар халқнинг дардига дармон бўла олмаяпти. Ўзининг мустаҳкам ўрни, мавқеини топиш учун курашаётган маҳалла хусусида эса халқда ижобий фикр, ишонч аста-секин шаклланмоқда.

Ислоҳотлар, бугунги кунда, ҳамма соҳада ҳам амалга оширилмоқда. Аммо сиёсий партиялар ана шу ислоҳотлар жараёнида ҳам ўз ўрнини топиб олиши керак. Албатта, сиёсий партияларнинг мавқеини кўтариш мумкин. Бунинг учун улар халқнинг ичига "юриш" қилишлари, унинг дардини тинглашлари ва қандай қилиб кўмак бериш йўлларини кўрсатишлари керак. Нодавлат ва жамоат ташкилотлари билан алоқани йўлга қўйиш ҳам, менинг фикримча, сиёсий партияларнинг обрў-эътибор топишига имкон берарди.

**Зикрилла НЕЪМАТОВ, ИИВ Ёнғин хавфсизлиги олий техник мактаби илмий-тадқиқот ва таҳрир-нашриёт бўлими бош муҳаррири:**

— Менимча, сиёсий партиялар қай соҳада мамлакатимиз фуқароларининг конституциявий ҳуқуқ ва манфаатлари бузилаётганлиги, давлатимиз раҳбарининг фармойишлари ва ҳукумат қарорлари ижроси қаерда пайсалга солинаётганлиги, қаерда тадбиркорлик ва фермерлик фаолиятига тўсқинлик қилинаётганлиги, ёшлар орасида гиёҳвандлик ва бошқа иллатларнинг кўпайиб кетаётганлиги билан қизиқишлари керак. Фуқаролардан партиялар ҳақида фикрини сўрасангиз, уларнинг аксарияти мавжуд партиялар номини эслаши мумкиндиру, аммо фаоллиги ҳақида бирор жўяли гап айта олмайди.

Халқимизда "Танқид — келажакнинг меваси" деган ажойиб нақл бор. Биз сиёсий партиялар фаолияти жонланиши ва такомиллашиши тарафдоримиз.

**Ҳ.ТЎЙМАНОВА ёзиб олди**

# МАТЕМАТИКА ИЛМИ ШАЙДОСИ

*Мамлакатимиз илм аҳли Абдурасул Эргашев номини ҳурмат билан тилга олади. Қашқадарё вилоятининг Деҳқонобод туманида туғилган А.Эргашев ўрта мактабни олтин медал билан тамомлагач, Тошкент давлат университетининг математика факультетида таҳсил олди. Шундан буён "фанлар маликаси" — математика илми билан самарали шуғулланиб келади. У ўтган асрнинг етмишинчи йилларида ғоят долзарб мавзу бўлган янги йўналиш — дискрет комплекс функциялар назарияси масалалари билан шуғулланди. Изланишлар борасида чеккан заҳматлари беҳуда кетмади — "Дискрет дифференциал ва дискрет интеграл тенгламалар назарияси"ни яратди. Сўнг квантлар назариясига тегишли масалаларни ечишнинг янги ва ихчам усулларини ишлаб чиқди.*

*Кейинчалик олимни фандаги яна бир очилмаган қўриқ — "Чегаравий шартлари кўп ўзгарувчан дискрет тенгламаларни ўз ичига олган математик дастурлаштириш масалалари" жалб этди. Олим айнан шу мавзуда номзодлик ва докторлик диссертацияларини ёқлади. Академик даражасига эришди.*

*Ўтган асрнинг охирги ўн йиллиги А.Эргашев учун "Мавҳум жараёнларни математик моделлаштириш" масалалари борасидаги чуқур изланишлар даври бўлди. Бу даврда олим чексиз кичик заррачалар, атом ва молекуляр физика, квантлар механикаси, нисбийлик назарияси, фалсафа, дин ва табиат ҳақидаги таълимотларни чуқур ўрганди, таҳлил қилди. Изланишлари бесамар кетмади. Хусусан, олим ёруғлик тезлиги ва ундан катта тезликка эга бўлган жисмлар ҳақида фикр юритар экан, табиатда Ёруғлик тезлигидан ҳам катта тезликда ҳаракатланувчи "Суперэнергия" борлиги ҳақида фаразга тўхталди.. У инсон руҳидир.*

*Изланишлари самараси ўлароқ, "Мавҳум жараёнларни математик моделлаштириш" мавзуидаги монографияси вужудга келди. Китоб илмий доираларда катта қизиқиш уйғотди.*

*Тошкент кимё-технология институти малака ошириш ва қайта тайёрлаш факультети минтақавий филиали директори, иқтисод фанлари доктори, профессор, Халқаро муҳандислик академияси аъзоси А.Эргашев ўнлаб шогирдлар — фан номзодлари ва докторларининг устози, моҳир педагог ўз меҳнатидан бахт топган олимдир.*

**Бўритош НОСИРОВА**

*Quyoshning zarrin shu'lalari ona tabiatni tiriltiradi, parvarishlaydi. Odam javharidagi bitiklar esa mehr vositasida real voqelikka aylana boradi. Avvalo, ona allasi, pokiza suti, padar nasihatlari farzandni yaxshi yo'lga boshlaydi. Muallimlar sabog'i esa uni ma'rifatli qiladi.*

*Ba'zan ilm dargohlarida belgilangan fan soatlaridan o'quvchi yoxud talabaning o'zlashtirish darajasi hisobga olinadiyu, negadir uning ma'naviy qiyofasi e'tibordan chetda qolib ketaveradi.*



# ҲАЙРАТ

## Алишер Навоийнинг “Муножот” асарини ўқиб...

Ҳазрат Низомиддин Мир Алишер Навоийнинг ўн беш жилдлик китоби чоп этилаётган пайтлар эди. Мумтоз адабиётдан сабоқ берган домламиз Муҳаммаджон Мадғозиев билан Фарғона шаҳридаги китоб дўконида учрашиб қолдик. Домла улуғ шоирнинг янги чоп этилган китобини қўлимда кўриб:

— Ҳеч иккиланмай сотиб олаверинг. Ҳозир ўқишга фурсатингиз етмаса, кейин ўқийсиз. Ҳеч бўлмаса китоб жавонингиздан олиб, чангини артиб қўйсангиз ҳам кўнглингиз таскин топади, — дегандилар.

Таассуфлар бўлсинки, Навоийнинг ўн беш жилдлик мажмуалари ичига мен фикр юритмоқчи бўлган “Муножот” асари киритилмаган эди. Шўро мафкураси бунга йўл қўймаганлиги рост. Чунки Навоийнинг дунёвий мазмундаги асарларидан ҳам анъанавий муножот, ҳамд, наът жанрида ёзилган қисмлари олиб ташланиб, нашр этилганини энди тушунмоқдамиз.

Аслида “Муножот” юртимизга мустақиллик билан бирга кириб келди. Бу китоб 1991 йилда жонкуяр ва заҳматкаш олима Суйима Ғаниева томонидан нашрга тайёрланди.

Мана, қўлимда Алишер Навоийнинг “Муножот” асари. Ҳам кирилл, ҳам эски ўзбек ёзувида чоп этилган. Бу мўъжаз китобча йигирма беш бетдан ошмайди. Аммо зиё аҳли қаламига мансуб асарларнинг катта-кичиги бўлмайди. Уларнинг ҳар бирида умуминсоний қадриятлар, ҳаёт фалсафаси ҳақ сўзнинг мукаммал бадиийлиги берилганлиги билан кишини ҳайратга солади.

Ростини айтсам, “Муножот” сўзининг луғавий маъносини тор доирада жуда саёз тушунар эканман: “Муножот” — куй”, “Муножот” — Берта хоним ижросида куйлаб келинаётган “Келмади” радифли қўшиқ, “Муножот” — Абдулла Ориповнинг машҳур шеъри...

Аммо буюк сўз санъаткорининг “Муножот”ини ҳижжалаб ўқирканман, кўп нарсаларни “кашф” қилдим, мўъжизавий сўз таъсиридан ҳаяжонга тушдим...

Асарнинг ёзилганига беш ярим аср бўляпти. Бугунги тилимиз темурийлар давридаги адабий тилдан бир мунча фарқ қилади. Кўпгина сўзларнинг маъносини англаш учун луғатга қарайсан, баъзи сўзларни тахминлаб кўрасан. Масалан, “валад”ни бола, авлод, “залолат”ни адашиш, йўлдан озиш, гумроҳлик, “ёзуқ”ни айб, “офият”ни соғлик, тинчлик, поклик, “тақво”ни диндорлик, “яғмо”ни талон-тарож, “ғайр”ни ўзга, бошқа, бегона деб тушунишимиз мумкин. Аммо ўрта мактабни битираётган аксарият ўқувчиларимиз бу сўзларнинг маъносини тўла англаб етмайдилар. Сабаби, улар мумтоз адабиётимизни кам ўқийдилар, юқорида тилга олинган сўзларни кундалик турмушда деярли эшитмайдилар. Табиийки, оммавий-ахборот воситаларида ҳам бундай сўзлар кам ишлатилади.

Яшириб нима қилай, йигирма йиллик тажрибага эга бўлган адабиёт муаллими сифатида ўзим ҳам дастлаб

### Mutolaa

“Муножот”ни мутолаа қилганимда анча қийналдим. Кейинги ўқишимда луғатга мурожаат қилдим. Тушунмаган сўзларимнинг рўйхатини туздим. Кейин асар ҳам ўзининг сир-синоатларини оча борди.

“Муножот” ёзилгунгача Навоий шоҳ асарлари — “Хамса”, “Хазойинул маоний” ва бошқа машҳур китобларини битган бўлиб, қалами чархланган, даҳо санъаткор даражасига етганди. “Муножот” эса шоир ижодининг қаймоғи, босиб ўтган ҳаёт йўлининг якуни, Оллоҳга илтижою таваллоси эди!

Ёлғизлик фақат Тангри таологагина хос бўлган сифатдир. Баъзан инсон ҳам ёлғизланиб қолиши мумкин. Агар у қалбан Оллоҳга боғланмай имон-нурдан маҳрум киши бўлса, унга ёлғизлик фожиадир. Чунки, у ёлғизликка чидай олмайди, ўз жонига қасд қилади ё руҳий дардга чалинади ёки унинг қалбини иблис эгаллайди. Бундай одамдан яхшилик, эзгулик кутиш амримаҳол.

Киши руҳан покланар экан, у танҳоликни қўмсайди, руҳи Оллоҳ билан боғланади, кўнгли таскин топади. Чунки у ёлғиз қолиб Яратганга қалбини очади. Умри давомида қилган сағира ва кабира гуноҳларига мағфират сўраб, муножот қилади. Муҳаммад пайғамбаримиз (с.а.в.) ҳам Оллоҳга муножот қилганини биламиз. IX - X асрларда ижод қилган мумтоз шоирларимизнинг ҳам китоб бошида ёки охирида махсус муножот ёзиш анъанаси бўлган, шу билан ўзига хос мунажот жанри шаклланган.

Алишер Навоийнинг “Хамса”сига киритилган достонларида таҳрир қилинган муножотларга дуч келамиз. Масалан, “Лисонут-тайр” достони етти боб муножотдан иборат. Лекин бу яхлит, ягона “Муножот” асари аввалги муножотлардан алоҳида ажралиб туради.

— Илоҳи, йўқ эрдим бор этдинг, тифл эрдим, улуғлар жаргасиға қотдинг.

— Илоҳи, ўзлуқ ёмонлигидин ўзлугим била ўта олмайдурмен ва яхшиларнинг этагин ёмонлиғим уётидин тута олмайдурмен.

— Илоҳи, сенинг йўлингда туфроғ етса, тўтиёдир ва кесак йўлиқса, кимёдир, ғайрингдин қизил олтун қора туфроғдек бекадру қимматбаҳодур.

Муножот — моҳиятан келажак авлодларга қарата битилган асар. Унда мутафаккир шоир инсон зотини ўзлигини англашга, маънавий камолот, имон-эътиқод устуворлиги, юксак мақсадлар сари интилишга даъват этади, бу йўлда тўсиқлик қилувчи жамики иллатларга қарши туришга чорлайди.

Мен оддий китобхон сифатида ҳар бир киши Навоийни ўқишга жазм этмоғи, унинг боқий сарчашмаларидан баҳраманд бўлмоғини дилдан истайман.

Миллатини севган, ўзини шу юрт фарзанди деб ҳисобланган ҳар бир киши Навоийни чуқур билиши, унинг ижод булоқларидан баҳраманд бўлишини орзу қиламан.

**Абдулаҳад ЎРМОНОВ,**
**Асака туманидаги**
**7-мактаб ўқитувчиси**

### Mulohaza

# КИМ АЙБДОР: ЗАМОНАМИ ЁХУД ЎЗИМИЗ?

Пойтахтимизнинг сўлим гўшаларида ўриндиқларни банд қилиб, севикли “ёр”ига “дил изҳори”ни тўкиб солаётган “Тоҳир ва Зуҳра”ларга ҳар дам кўзимиз тушади. Совуқдан титраётган паноҳсиз қушчалардек бир-бирининг пинжларига тиқилганча, одамлар кўз ўнгида ялашиб-юлқашаётган йигит ва қизлар орасидаги кечинмаларни муҳаббатга менгзаб бўлармикан? Ҳирс тўла кўзлар билан бир-бирининг нигоҳларини таъқиб этаётган ва гўёки “севги булоғи”дан таскин топаётган ошиқу маъшуқаларнинг қалб туғёнларини-чи?

Албатта, бундай ҳолатларга дуч келавериб кўзимиз пишиб кетган. Баъзида бунга ажабланмаймиз ҳам. Аммо ҳамма айбни замонага ағдариб, сувдан қуруқ чиққан кишидек бокира туйғуни шунчаки бир ҳирс билан алиштириб бўлмайди.

Собиқ иттифоқ тузуми юртимизда ҳукм сурган бир пайтда Оврўпо маданиятининг ўлкамизга кескин таъсирини, миллийлигимиздан бир қадар узоқлашиб кетганимизни тўғри тушуниш мумкин эди. Бироқ истиқлолга эришганимиздан сўнг, ҳеч бир тазйиқ, ҳеч бир мажбурлашларсиз ўзбекнинг буюклигини дунё тан олаётган, ҳавас билан боқаётган бир пайтда ҳам Оврўпога тақлид қилиш қандай оқибатларга олиб келаркан?

Эсга олайлик, тўю базмлардаги беҳисоб ичкиликбозликлару кўча бўйларида ёхуд хиёбонларда туриб, гўё харидоргир матоҳ каби ўзининг ор-номусини, иффатини сотаётганлар қадим ўтмишимизда ҳам кузатилганмикан?

Ён-атрофимизга назар ташлаганимизда, йигитларнинг ҳар бир ҳатти-ҳаракатини таъқиб этиб, уларга “гап отиб”, “илинтириш” пайида бўлган қизларимизни ўзбекнинг Кумушбибиларига қиёслаб бўлармикан? Ёхуд беш кунлик дунё лаззатларига ружу қўйганларнинг ҳолини нима деб изоҳлаш мумкин? Оиладаги бошбошдоқлик, ота-онанинг бола тарбиясига бефарқлиги фарзанднинг гўёки ўзини эркин қушдек сезишига ва кўнгли тусаган турли жимжимадор “қоялар” сари парвоз этишига олиб келади. Натижа эса аён: ресторану барларда, тунги кинозаллару дискотекаларда кезиб юрган ўғил-қизлар ва уларнинг заҳарланиб улгурган хулқу одоби...

Эътибор берсак, сўнгги пайтларда ёшлар томонидан содир этилаётган жиноятлар ибтидоси худди шундай бепарволик оқибатида келиб чиқаяпти

Яқинда эндигина 18 ёшни қоралаган бир танишимнинг бошидан кечирган ҳикоясини эшитиб жуда ажабландим. Айтишича, унинг “севган” қизи ўз ота-онасини дугонамникига кетаяпман, деб алдагану бутун бир кечани йигит билан ўтказган. Афтидан тарбияли, одобли кўринган қизнинг бунчалар эҳтиросга берилишию, балоғат завқи билан талпинган йигитчанинг ҳатти-ҳаракатларини шунчаки “ёшлик”ка ёхуд “севги”га йўйсак, янглишган бўламиз. Пушаймонлик туйғуси уёқда турсин, мароқ билан ҳикоясини давом эттираётган йигитнинг сўзлари мени ўйлантириб қўйди. Наҳотки ота-оналаримиз ўз қарамоғидаги жондан азиз фарзандларига шунчалар беэътибор бўлишса?! Наҳотки ҳеч бир кимса бунинг ёмон оқибатларини ўйламаса?! Мен биргина ҳаётий мисол келтирдим, холос. Бундай ҳолатлар эса, эҳ-ҳе қанча-дан-қанча.

Шу ўринда олдимизга бир саволни қўйсак ва шу доирада атрофлича фикрлашсак, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Хўш, бундай салбий ҳолатларнинг боиси нимада ва бу қандай омиллар билан боғлиқ?

Ўйлашимча, бундай хунук ҳолатларнинг бош сабабчиси ота-оналаримиздир. Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, оила бошлиқларининг фарзандларига кам эътиборда бўлишлари ёхуд бутунлай бепарволиклари оқибатида ота-она ва фарзанд ўртасидаги қалин алоқа ришталари йўқола боради. Натижада бундай заиф тарбия ўсиб келаётган ёш ниҳолларга ўз таъсирини ўтказиши табиий.

Иккинчидан, ҳар бир ёшнинг улғайиб, жамият учун ниҳоятда зарур, етук инсон бўлиб шаклланишида дастлаб боғча, мактаб, сўнгра ўрта махсус ва олий ўқув юртларининг аҳамияти катта. Ўғил ёки қиз маълум ёшга етганда бу масканларда билим олиш билан бир қаторда ўз маънавий дунёсини ҳам бойитиб борадилар. Афсуски, баъзан илм даргоҳларида белгиланган фан соатларидан ўқувчи ёхуд талабанинг ўзлаштириш даражаси ҳисобга олинадию, негадир унинг маънавий қиёфаси эътибордан четда қолиб кетаверади. Кийиниш, юриш-туриш борасида эса ҳар ким ўзига хон, ўзига бек. Ҳаттоки жажжи қизалоқларнинг катталардек ўзига оро бериб, турли бўёқларни афтангорларига чаплаганларию, ҳар хил зебу зийнатларни кўз-кўз қилиб тақиб олганларини кўриб, қандай хулоса чиқаришга иккиланиб қоламиз. Ота-оналари берган пулга (тушлик ёхуд дафтар-қалам учун) яширинча сигарет сотиб олиш пайида бўлган ўсмирларга нигоҳимиз тушиб ҳайратланамиз. Демак,ўқув маскани билан оила ўртасида ҳамкорликни вужудга келтириш, ўсмир-ёшларнинг этика-эстетика борасидаги дунёқарашини тўғри шакллантириш натижасида баъзи салбий ҳолатларнинг олдини олиш мумкин деб ўйлайман.

Учинчидан, бугунги кунда китобхонлик даражаси сусайганди. Бунинг сабабларини телевидение, радио, компьютер каби замонавий техник воситаларнинг мавқеи ошиб бораётганлиги билан изоҳлаш мумкин. Бироқ телеканалларда намойиш этилаётган, “ахлоқсизлик ташвиқоти” дея номлаш мумкин бўлган баъзи сериаллар ва улар қаҳрамонларига хос ҳатти-ҳаракатлар кўпчилик болажонлар ва ҳаттоки ёш ўсмирлар онгини ҳам заҳарлашга улгурди. Шу билан бирга, турли фильмлардан таъсирланиб, ундаги қаҳрамонларга тақлид иштиёқи бола психологиясида турли ёмон иллатларнинг шаклланишига олиб келади.

Бу ўринда юртимизга четдан кириб келаётган ва ҳар бир сотув расталарида харидоргир бўлган беҳаё хориж нашрлари ҳақида ҳам таъкидлаб ўтиш жоиз. Маълумки, бу каби журнал ва газеталарнинг асосий мухлислари ҳам, харидорлари ҳам ёшлар. Кўпчиликнинг эътироф этишича, бундай ҳолатнинг болалар тарбиясига салбий таъсири йўқ, аксинча, улар бундай нашрлар орқали жинсий тарбиядан ҳам воқиф бўлишади. Тўғри, жинсий тарбия мустақил ҳаётга қадам қўяётган ҳар бир ёш учун ниҳоятда муҳим. Бироқ беҳаё хориж нашрларининг ҳали онги тўлиқ шаклланиб улгурмаган болалар қўлига тушмаслигига ким кафолат бера олади? Афсуски, ҳеч ким. Шундай экан, биз келажак авлоднинг баркамол инсонлар бўлиб етишишида, уларнинг маънан комил бўлиб улғайишида тўсиқ бўладиган юқоридаги каби ҳолатларга чек қўйишимиз лозим.

**Фаррух БЎТАЕВ**

### Teran tomirlar

# БУЮК ШАХСЛАР СИЛСИЛАСИ

## (Бешинчи мақола)

*Башарият тарихида донолиги билан дунёни лол қолдирадиган алломалар яшаб ўтганини биламиз. Уларнинг аксарияти “Инсон қандай жонзот ўзи? Унинг табиатини нима ҳаракатга келтиради?” деган саволларга жавоб излаганлар, борлиқни ўрганганлар. Аммо, олам шу қадар мураккаб равишда тузилганки, ўша саволларга то ҳануз узил-кесил жавоб топилгани йўқ.*

*Тасаввур қилинг. Жажжи ўғил-қизлар . Боланикнинг сирли дунёсидан руҳ олиб шўхлик қилишади, ўйнаб-кулишади. Бироқ, баъзи пайтларда бир-бирини юмдалашдан ҳам қайтмайдилар. Уришадилар, қичқиришадилар, йиғлайдилар, бир-бировини ёмонлайдилар. Хўш, ўша жажжи инсонларга бу аъмолни ким ўргатган? Боғча опасими? Ота-онасими? Табиийки, боғча опа ҳам, ота-она ҳам, тенгқуринг билан жанжаллаш, уни тимдала қабилидаги феъллардан сабоқ бермайди. Ундай бўлса бу ҳатти-ҳаракатни бошқалардан ўзлаштирганми? Катталарга тақлидми? Кузатишлар асносида болаларга хос жамики амаллар тақлид эмаслиги, балки уларнинг жавҳарига ёзилганлиги аниқланган.*

*Жавҳар — жонзотнинг ўзлиги. Олимлар шундай тажриба ўтказиб кўришган. Гарбуша навли балиқ дарёнинг бир жойида уруғ туғаркан. Ўша уруғдан балиқчалар пайдо бўлади. Ва балиқчалар дарёнинг турли бурчакларига тарқаб кетишади. Уч йилдан сўнг эса ўша ўзлари туғилган нуқтага қайтиб келиб, уруғ қўйишади. Ва ўладилар.*

*Олимлар шу балиқ нави жавҳарига ўзгартириш киритишган. Натижада балиқлар одатдагидан уч марта кўп — тўққиз йил умр кўрганлар. Аввалги нуқтага қайтиб келишмаган, уруғ тўкмай ҳалок бўлишган... Бу тажриба тафсилотини врач дўстимдан эшитган эдим. Ўша врач қизиқ бир фаразини ўртага ташлади. Инсон ҳам шундай, деди у. Жаъмики хусусиятлари жавҳарига муҳрланган бўлади — дейлик, қачон эмаклаш, қачон қадам ташлаш, қачон тили чиқиши, йиғлаши, кулиши, уришиши, ҳасад, иғво қилиши, балоғатга етиши, қовушиши, кексайиши, кўзлари нурсизланиши ва ҳоказолар. Мабодо, инсон жавҳарига ўзгартириш киритилса, унинг умри бир неча баробар узаймоғи мумкин.*

*Бу қабилдаги фараз фанда исботини топганми, йўқми — билмаймиз. Лекин мантиқан олиб қаралганда ҳақиқатга яқин. Негаки аксарият буюк олимлар инсон жавҳари хусусиятларини тадқиқ этиб ўтганлар.*

*Жавҳар нима ўзи? “Хазойинул маоний” изоҳномасида жавҳар қуйидагича шарҳланади: “асл модда; нарсанинг туб ўзаги”. Инсон руҳияти ана шу жавҳар билан бевосита боғлиқ, дейдилар. Маълумки, руҳ уч тоифага бўлинади. Ибн Сино фикрича: “... ўсимлик, ҳайвон ва инсоний руҳлар. Ўсимлик жони озиқланишга, ривожланишга ва кўпайишга ундайди. Ҳайвоний жон танани ҳаракатлантиришга ва сезишга ундайди. Ҳайвоний руҳга беш турдаги сезиш хосдир — кўриш, эшитиш, ҳид билиш, таъм билиш ва туйиш” (Иқтибос Й. Жумабоевнинг “Ўзбекистонда фалсафа ва аҳлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан” китобидан олинди).*

*Мантиқ юзасидан таҳлилга ўтайлик. Феъл-атвор инсон жавҳарида муҳрланган экан, у ҳолда ҳамма ҳодисотлар аввалдан режалаштирилган эмасми? Шу саволга жавоб изларкан, Жалолиддин Румий оралиқ йўлни танлайди. Яъни, инсон ўз дунёсини бутунлай ўзгартириб бўлмаса-да, баъзи ҳаракатларини жиловлаб туриш, баъзиларини эса равнақ топтириш иқтидорига эга, деб билади.*

*Унинг фикрича, энг асосийси “менлик”ни чуқур англаш. Дейдики: “Ривоят қиладиларки, бир подшоҳ ўғлини ҳунармандлар тўпига қўшиб қўйибди. Улар болага турли билимлардан, жумладан илму нужумдан дарс беришибди. Шоҳ ўғли бутунлай аҳмоқ бўлгани ҳолда, ўзига ўргатилган нарсаларни яхши эгаллаб олибди. Кунлардан бир кун подшоҳ уни имтиҳон қилмоқ учун ҳовучига узугини беркитиб, ўғлига “Бунда не бор?” деди. Бола: “Қўлингдаги думалоқ, сариқ ва ичи бўш нарсадир” дегач, ҳукмдор ҳайратда қолиб: “Аломатларини тўғри айтдинг, исмини айт” деб буюради. Ўғил: “Ғалвир бўлса керак” деб жавоб беради. Подшоҳ: “Мени ҳайрон этиб, олган таҳсил шарофати билан аломатларни аниқ айтдингу, лекин ғалвирнинг ҳовучга сиғмаслигига қандай қилиб ақлинг етмади?” —деди”.*

*Шу нақлни файласуф бекорга келтирмайди. Бола ва илм кишиларини ўзаро қиёслайди: “Худди шундай, замонимиз олимлари ҳам қилни қирқ ёрадилар, ўзларига боғлиқ бўлмаган нарсаларни жуда яхши биладилар, аммо ўта муҳим, ўзлари учун қолган барча нарсалардан янада яқин бўлгани, яъни ўзларини билмайдилар. Ҳамма нарсадан яқин бўлган борлиқ бу уларнинг менлиги. Улар бирор бир иш тўғрисида бу — тўғри, бу — хато, бу —ҳалол, буниси ҳаром деб ҳукм чиқаришадию ўз моҳиятларини ҳалол ё ҳаром эканлигини билмаслар. Шундай экан, шоҳ ўғли айтган ҳалиги аломатлар белгилардир, оловга ташлаганда, уларнинг ҳеч бири қолмас. Бундай аломатларнинг ҳаммасидан қутулмоқ зотга хосдир. Инсонга берилган иш, сўз ва ҳоказоларнинг барчаси аломатдир. Уларнинг жавҳар билан алоқаси йўқ. Улар йўқ бўлгандан кейин қолган нарса жавҳардир. Биз назарда тутган олимлар аломати шундайдир. Улар белгиларини тўғри топиб сўйлайдилару, лекин ғалвирни ҳовучга сиғади деб туриб оладилар. Чунки асосий нарсадан уларнинг хабари йўқ”.*

*Хўш, асосий нарса деганда Румий ҳазратлари нимани назарда тутади?*

*Моҳиятни. Негаки, моҳият шаклда эмас, балки руҳдадир, жавҳардадир. Файласуф юқоридаги фикрини қуйидагича, айтиш мумкинки, образли йўсинда давом эттиради: “Мен қушман, булбулман, тўтиман. Агар менга бошқа хил сас чиқар десалар, буни қилолмайман. Чунки менинг тилим шундай ва бундан ўзгасини сўйлай олмайман. Қуш сасларини ўрганган кимса қуш бўлмагани ҳолда, қушларнинг душмани, овчисидир. Ўзини қуш, дея ўйлашлари учун улар каби овоз чиқаради, ҳуштак чалади. Инсонга булардан бошқача сас чиқар, десалар ҳам, у буни қила олади. Чунки сас уники эмасдир, ясамадир”.*

*Файласуф жавҳар ва ҳаракат орасидаги тафовутга урғу бермоқда. Демак, инсоннинг ўзлиги жавҳарга муҳрланган экан, у битикларнинг реал ҳодисага айланишини кутиш билан умр ўтказмоғи керакми? Албатта йўқ. Негаки, учқуннинг алангага айланиши фаол ҳаракатга боғлиқ. Ерга уруғ қадаб, сўнг эътиборсиз қолдирилса, ниш урган майса парваришланмаса, озиқлантирилмаса, бегона ўтлардан тозаланмаса, у ҳолда экин қовжираб қолмоғи мумкин. Алҳол, ўзлик амалга ошуви эътиборга таянади. “Эътибор не демак? — савол қўяди Румий ҳазратлари. —У ҳатто ўзлик ва маъно билан тенг. Миясиз калланинг иши ҳеч нарсага ярамагани каби қобиқсиз мева ҳам етишмайди. Чунончи, бир данакни қобиқсиз ҳолда ерга эксанг, кўкармас. Қобиғи билан экканинг вақтида унади ва улкан бир дарахтга айланади. Шу нуқтаи назардан вужуднинг ҳам буюк бир асли, хизмати бордир. Бундай бўлиши табиийдир. Усиз бир иш майдонга келмайди. Худди шу асл маънодир. Аммо бу — ўзи ҳам маъноли, маънони ҳам билган, англаган кишилар учун шундоқдир”.*

*Жалолиддин Румий юқорида келтирилган шоҳ ўғли ривоятида инсон жавҳарига эътиборни қаратади. Шоҳ ўғли жавҳарида оламни чуқур биладиган даражада истеъдод учқунлари йўқ. Аммо, сабоқ таъсирида у маълум фанларни қисман эгаллайди. Ва ана шу билим моҳиятга эмас, балки моҳият кўланкаларига хизмат қилади. Унда назарий билим кўникмаси мавжуд, лекин фаросат йўқ.*

*Жавҳар муаммоси ниҳоятда баҳсталабдир. Баъзи олимлар инсон жавҳарини ирсиятга боғлашади. Уларнинг наздида, оқилдан оқил, нодондан нодон туғилади. Бироқ, бу фикр ҳақиқатга унчалик ҳам монанд келавермайди. Инсоннинг руҳи, ташқи қиёфаси муайян даражада ирсиятга боғлиқ. Лекин жавҳар бетакрордир. Оқил одамнинг фарзанди нодон, нодоннинг фарзанди оқил бўлмоғи ҳам мумкин. Тарихдан бир мисол: Мирзо Улуғбек буюк мунажжим, одил шоҳ эди. Ўғли Абдулатиф бунинг тескариси — жоҳил шахс сифатида майдонга чиқди ва отасини ваҳшиёна тарзда ўлимга буюрди.*

*Дунёда соддадан мураккаб тарафга эврилиб борилади. Масалан, ҳайвон жавҳари нисбатан оддий: қуёнда қўрқоқлик феъли бор, йўлбарсда йиртқичлик. Қуённинг ириллаб махлуқларга ташланиши тасаввурга сиғмайдиган ҳол. Худди шунингдек, мусича бургут бажарадиган ишни амалга ошира олмайди. Бинобарин, ҳайвону даррандалар феъли алоҳида бир ақлни тақозо этмайди. Махлуқот ҳаёти борасидаги мантиққа таянмоқ, тажрибалардан хулоса чиқармоқ мумкин. Аммо... аммо, инсоният бутунлай бошқача дунё. Инсонни мукаммал равишда англаш мушкул. Бинобарин, “молнинг оласи ташида, одамнинг оласи ичида” деганлар.*

*Жалолиддин Румий наздида, бу ёруғ оламдаги жаъмики ҳодисалар инсон орқали рўй берар экан, унинг ортидан Ҳақ истаги яшириндир. Дейдики: “Оллоҳ ҳар қандай сас ва ҳарфдан покиза. Унинг сўзи сас ва ҳарфдан ташқаридадир. Фақат сўзини ўзи истаган ҳарф, ҳар сас ва ҳар тилдан чиқарди. Масалан, йўллар устида ва карвонсаройларда ҳар бир ҳовуз бошида тошдан одам ёки қуш ясаб қўйганлар. Уларнинг оғзидан сув чиқиб, ҳовузга қуйилади. Ақлли одамларнинг ҳаммаси сувнинг тош одам ёхуд тош қуш оғзидан чиқмаётганини, балки бошқа ёқдан келаётганини биладилар”.*

*Шу мисолни келтираркан, файласуф “Инсонни танимоқчи бўлсанг, уни гапга сол: сўзидан унинг ким эканлигини билиб оласан” дея қатъий хулосага келади. Юқоридаги мисоллардан файласуфнинг Шахс масаласига ишора этаётганини илғаймиз. Зотан, Жалолиддин Румий дунё ўзгаришларини шахс фаолияти ила боғлайдиган олимлар сирасига киради.*

*Кимликни билиш — инсон ўзлигини билиш, жавҳарда не битик ёзилганини ўқишдир. Бинобарин, ҳатти-ҳаракатига қараб инсон ҳақида бир гап айтиш мушкул. Шунинг учун ҳам файласуф ҳаракатдан руҳ аҳволини устун қўяди. Ҳатти-ҳаракат алдайди, лекин сўз, яъни руҳ товланишларида ҳақиқат жилолари акс этади.*

*Инсоннинг моҳияти сувратида эмас, сийратидадир. Алҳол аввалги мақолаларда зикр этганимиздек, одамзод тақводор сувратида кўриниб ҳам ножоиз ишларга бош қўшмоғи мумкин. “Иймон намоздан устундир” деганида Румий ҳазратлари айнан шу нарсани назарда тутган бўлса, ажабмас.*

*Иймон — ишониш демак. Иймон —Ҳаққа таслим бўлиш демак. Иймонсиз одамдан қўрқгулик. Иймонсизлик вайронагарчиликлар аввалидир. Ана ўша ҳолат — иймонсизлик кўринишлари аксарият шарқ мутафаккирларини безовта қилгани маълум. Чунончи, Ҳазрат Алишер Навоий бу ҳақда шу байтни битган:*

***Накди жон чиққанда иймон гавҳарин кўнглумга сол,***

***Айлагил жондин жудо, лек этма иймондан жудо.***

*Жондан жудолик — тан қафасидан руҳ қушининг чиқиб парвоз айлаши хавфли эмас, бироқ, иймонсизлик ўта хавфли ҳолат. Иймонсиз киши ўзига, яқинларига, қўни-қўшниларига, бутун бир хавфу хатар туғдиради. Иймонсизликнинг бизнинг асрда гиёҳвандлик сувратидаги кўриниши бор. Бирон таълимотга ишонмайдиган, ҳаётдан завқу шукуҳ олмайдиган кимса сунъий равишда ўзлигини унутишни хоҳлайди. Шунинг баробарида оғир жиноятга қўл уради: Ҳақ ато этган ақл-заковатини заифлаштиришга киришади. Бу амалнинг охири войдир.*

*Жумла жаҳондаги ўсимликлар, жониворлар, шу жумладан инсон боласи ҳам тарбияга муҳтож. Қуёшнинг заррин шуълалари она табиатни тирилтиради, парваришлайди. Одам жавҳаридаги битиклар эса меҳр воситасида реал воқеликка айлана боради. Аввало, она алласи, покиза сути, падар насиҳатлари фарзандни яхши йўлга бошлайди. Муаллимлар сабоғи эса уни маърифатли қилади. Инсон бора-бора ўзини ўзи тарбиялашга одатланади. Қусур ва нуқсонларини ақл чиғириғидан ўтказиб хатоларини такрорламасликка чоғланади.*

*Шу ўринда ҳақли равишда савол туғилмоғи мумкин. Хўш, жавҳарни ким ато этади? Оллоҳ. Демак, Оллоҳнинг ўзи жавҳарга ёмон амалларни муҳрламаса бўларди-ку? Хўш?*

*Румий дейдики: “Ҳа, ҳаммаси Оллоҳдан ва Унга кўра ҳаммаси яхшидир. Тўғри, ҳаммаси Оллоҳ наздида мукаммалдир, яхшидир, аммо бизнинг назаримизда бундай эмас. Чунки ифлослик, намозсизлик, намоз, куфр, ислом, ширк ва тавҳид Оллоҳ наздида яхши. Бизнингча эса ўғрилик, ахлоқсизлик, куфр ва ширк ёмон, тавҳид, намоз ва ҳайрат яхшидир. (Аммо буларнинг барчаси Ҳақ наздида яхши). Чунончи, ўлкасида зиндон, осмон, хилат (зарбоф тўн), мол-мулк, раият, тўй, ноғора ва байроқ бўлган бир подшоҳ учун буларнинг ҳаммаси яхши. Зарбоф тўн салтанат камоли учун қандай бир аломат бўлса, дор оғочига тортмоқ, ўлдирмоқ ва зиндон ҳам шундай бир омилдир. Шоҳ назарида буларнинг ҳаммаси камолдир. Бироқ халқ наздида зарбоф тўн билан дор оғочи қандай қилиб бир нарса бўлсин?”*

*Дарҳақиқат, қизиқ таъриф ва ғаройиб таққос. Ўйлаб кўрсак, ҳамма нарса маромида. Иллатлар йўқ. Хатою камчиликлардан холимиз. Хўш, унда яшашнинг қизиғи қоладими ахир? “Яхши” деганда файласуф “зарур” истилоҳини кўзда тутмоқда. Алҳол, Ҳақ наздида дунёнинг шу йўсинда яралмоғи мукаммаллик. Бизнинг назаримизда ундаймас. Яна таҳлилга киришайлик: ички зиддиятсиз Шахс қандай ҳаракатга келади?*

*Ҳақ инсонга танлаш ҳуқуқини беради. Бордию бермаганида эди, дунё ўз маъносини йўқотган бўлур эди. Бинобарин, ҳамма нарса ўз ўрнида. Одамда кўриш учун кўз, яхши-ёмонни фарқлаш учун ақл мавжуд. Инсон ўзини таниши ҳам, танимаслиги ҳам мумкин. Ана шу силсилалар ичидан мукаммал шахсият — комил инсон ажралиб чиқади. Комил инсон ким? Бу келгуси мақоламиз мавзуи.*

**Баҳром РЎЗИМУҲАММАД**

## МУҲОКАМА ЭРТАГА БОШЛАНАДИ

**АҚШ ва Буюк Британия томонидан тайёрланиб БМТ Хавфсизлик Кенгашига тақдим этилган Ироқ борасидаги 2-резолюция пайшанба куни кўриб чиқилади. Расмий Вашингтон ва Лондон наздида Бағдод ўзига берилган имкониятдан фойдаланмаяпти. Аммо Хавфсизлик Кенгашининг доимий 5 аъзосидан бири саналган Франция президенти Жак Ширакнинг билдиришича, Франция Германия билан биргаликда янги резоляцияга қарши чиқади. Боиси, унда Бағдодга қарши бевосита ҳарбий куч ишлатиш назарда тутилмоқда. Шунингдек, Ширакнинг айтишича, кеча Париж, Берлин ва Москва қуролсизлантиришнинг якуний муддати бўйича Хавфсизлик Кенгашига янги таклифни тақдим этишди.**



## ТАКЛИФ ҚАБУЛ ҚИЛИНМАДИ

**Ироқ президенти Саддам Ҳусайн америкалик ўз ҳамкасби Жорж Бушни тўғридан-тўғри теледуэлга чақирди. АҚШнинг Си-Би-Эс телекомпаниясига интервью берган Ироқ Президенти бундай теледуэл ҳар икки раҳбарнинг ҳам жаҳон ҳамжамияти олдидаги ўз позицияларини аниқ-равшан ошкор этади, дея айтган. Лекин бу таклифга Оқ уй маъмурияти жиддий эътибор бермади.**



**Айни пайтда эса расмий Бағдод БМТ Хавфсизлик Кенгаши томонидан қўйилган талабни бажариш ёки бажармаслик масаласини кўриб чиқмоқда. Мазкур Халқаро ташкилот талабига мувофиқ Ироқ ўзининг "Самуд-2" ракеталарини шанба кунидан бошлаб йўқотишга киришиши керак. Боиси, бундай ракеталарнинг ҳаракат радиуси белгиланган чекловдан ортиқ.**

## ХИТОЙ УНИВЕРСИТЕТЛАРИДА ПОРТЛАШЛАР

**Кеча Хитойнинг энг нуфузли икки университетида портлашлар юз берди, дея хабар қилади "Рейтер" агентлиги. Тушлик вақтида Синьхуа университетининг ўқитувчилар учун мўлжалланган қаҳвахонасига овқатланиш учун олийгоҳнинг 40 га яқин муаллимлари тўпланишган эди. Шу пайт тўсатдан портлаш содир бўлди ва 6 нафар ўқитувчи-профессор жароҳат олди. Орадан 1,5 соатлар ўтиб Пекин университети номини олган Байда университетидаги ошхонада ҳам худди шундай воқеа юз берди. Натижада 3 нафар ўқитувчи жароҳатланди. Ҳозирда шикастланганлар шифохонага ётқизилган.**



**Полиция эса воқеа сабабларини ўрганаётган бўлиб, террор акти ҳақидаги тахминлар ҳам йўқ эмаслигини билдирган.**

## НОҚОНУНИЙ САВДО

**АҚШ давлат департаменти ташаббуси билан одамлар савдосига қарши кураш мавзусида Вашингтонда анжуман бўлиб ўтди. Унда АҚШ ҳукумати томонидан келтирилган манбаларга кўра, дунё бўйича ҳар йили 700 мингдан 4 миллионга яқин кишилар ана шундай ноқонуний савдо маҳсулоти бўлишар экан. Мутахассисларнинг фикрича, одам савдоси ҳам гиёҳвандлик савдосига ўхшаб "мўмайгина даромад" келтирувчи ноқонуний манба саналади. Бундай савдо кўринишлари ижтимоий ҳимояланиш паст даражада бўлган давлатларда кўпроқ кузатилади. ЮНИСЕФ вакили Кул Гаутумнинг билдиришича, сўнгги 30 йил ичида Осиё — Тинч океани минтақасидаги мамлакатларда 30 миллиондан ортиқ болалар шундай савдо ўлжасига айланган. Болалардан ташқари, кўпроқ қизлар ва аёллар ҳам замонавий қулдорларнинг товарларига айланиб, сотиб юборилмоқдалар, — дея хабар беради BBC News.**



## ЯПОН ДЕНГИЗИДА РАКЕТА ПАРВОЗИ

**Шимолий Корея Япон денгизининг Япония ороллари ва Корея ярим ороллари оралиғидаги ҳудудда ўзининг ҳаракат радиуси кичик бўлган "Ер-денгиз" русумли баллистик ракетасини учирди. Жанубий Корея мудофаа вазирлигининг билдиришича, ракета парвози АҚШ давлат котиби Колин Пауэлл ва Япония бош вазири Дзюнитиро Коидзумилар иштирок этаётган Жанубий Кореянинг янги президенти Но Му Ҳеннинг қасамёд қабул қилиш маросимидан бир неча соат аввал амалга оширилган. Расмий Пхеньяннинг маълум қилишича, бу ҳаракат мудофаа мақсадларида амалга оширилган. Айни чоғда эса Япония, Жанубий Корея ва АҚШ давлатлари Шимолий Кореядан ракета парвози ҳақида аниқ маълумот беришни талаб қилмоқдалар.**



## ҲУКУМАТ УЙИНИ БАСАЕВ ПОРТЛАТГАН

**Чечен айирмачилари раҳбари Шамил Басаев ўтган йилнинг 27 декабрь куни Грозний шаҳридаги ҳукумат уйини портлатиш жавобгарлигини ўз зиммасига олганлигини маълум қилди. Чечен айирмачиларининг интернетдаги сайти орқали тарқалган хабарда ушбу террор актини Басаев раҳбарлик қиладиган "Риёдус Солихийн" гуруҳи амалга оширганлиги айтилади. Маълум бўлишича, мазкур ҳуружда бир оила аъзолари қатнашган бўлиб, маъмурият биносига яқинлашган портловчи моддаларга тўла "Камаз" автомобилида 45 ёшли ота билан унинг 15 ёшли қизи, "УАЗ" машинасида эса 17 ёшли ўғли бўлган. Ёдга олсак ўшанда 48 киши ҳалок бўлиб, 210 киши турли кўринишда жароҳат олган эди.**



***"Интернет" хабарлари асосида А.АЛМАТОВ тайёрлади.***

*ОООРИЕ "Восточные Вести" Мирабадского района г. Ташкента (код по ОКПО 15115720) ликвидируется. Претензии принимаются в течение двух месяцев со дня публикации обявления по адресу Буюк Турон. 41. тел. 133-02-95*

*Ўзбекистон Давлат жаҳон тиллари университети томонидан 1994 йилда Туйманова Инобат Фозиловна номига берилган инглиз тили ўқитувчиси квалификацияси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.*

Ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини ривожлантириш институти маъмурияти институтнинг илмий котиби Тўлаган Дамаевга акаси **Умид Шофайзиев**нинг вафот этганлиги муносабати билан таъзия изҳор этади.

# ҚИЗҒИН ПАЛЛАДА

***(Давоми. Боши 1-бетда)***

Самарқанд вилоятида "Баркамол авлод" мусобақаларининг 14 та спорт тури бўйича ўтказилаётган беллашувларда ғолиблар аниқланмоқда.

Хусусан, баскетбол бўйича ўғил болалар ва қизлар ўртасидаги беллашувларда 1-ўрин Самарқанд Банк коллежи талабаларига, кураш бўйича 1-ўрин Тайлоқ Бизнес мактаби, белбоғли кураш бўйича эса Пайариқ қишлоқ хўжалик касб-ҳунар коллежи ўқувчиларига насиб этди.

Волейбол бўйича 1-поғона Ургут Иқтисодиёт ва миллий ҳунармандчилик коллежи (қизлар ўртасида), Каттақўрғон Педогогика коллежи (ўғил болалар ўртасида) банд этди.

Ҳозиргача ўтказилган беллашувларда умумий ҳисоб билан биринчи ўринда Самарқанд Банк коллежи ўқувчилари пешқадамлик қилаётир.

Ғолиблар вилоят ЎМКҲТ бошқармаси томонидан қимматбаҳо эсдалик совғалари, 1-, 2-, 3-даражали диплом ва кубоклар билан тақдирланмоқдалар.

Шунингдек, Андижонда ўтказиладиган Республика финал босқичида муносиб иштирок этиш учун ҳозирдан пухта тайёргарлик кўрилаётир. Жумладан, Самарқанд шаҳар Маиший хизмат касб-ҳунар коллежи Республика миқёсидаги мусобақа қатнашчиларини спорт кийимлари билан таъминлайдилар.

Вилоят ҳокими ташаббуси билан жойлардаги ширкат хўжаликлари раисларининг спорт бўйича муовинларини тайинлаш жорий этилган. Жойларда спорт равнақига масъул раҳбарларнинг тайин этилиши болалар спортига катта эътибор қаратилаётган, "Баркамол авлод", "Умид ниҳоллари" спорт беллашувлари қиз-ғин паллага кирган бугунги кунда айниқса, муҳим аҳамият касб этмоқда. Ҳозирда ширкат хўжаликлари раислари ўринбосарлари Самарқанд вилоят ЎМКҲТ муассасалари билан ҳамкорликда болалар спортини ривожлантириш борасида қатор амалий ишларни бошлаб юбордилар.

Буларнинг барчаси Республика миқёсида ёшлар спортига қаратилаётган эътибор ва ғамхўрлик белгиси сифатида буюк ва олийжаноб мақсадларга ҳамоҳанг тадбирлар дебочасидир.

***Салоҳиддин САНАҚУЛОВ.***

## ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИ ЁШЛАР

Президентимиз ташаббуси билан ташкил этилган Ўзбекистон болалар спортини ривожлантириш жамғармаси фарзандларимиз ҳаётида катта аҳамият касб этиши, шубҳасиз. Куни кеча Бухоро шаҳрида ушбу жамғарманинг вилоят бўлими ташаббуси билан ўтказилган мусобақа ҳам фикримиз далилидир. Унда вилоятнинг шаҳар ва туманларидан келган 200 нафар ўқувчилар енгил атлетика бўйича куч синашдилар. 60 метрлик масофага югуриш баҳсларида бухоролик Феруз Ботиров ўғил болалар ўртасида, Шаҳноза Рўзиева қизлар ўртасида ғолибликни қўлга киритдилар. Шунингдек, 100 метрга югуришда Аҳрор Сафаров (Вобкент тумани) ва Олия Акрамова (Бухоро шаҳри), 200 метрга югуришда Жасур Болтаев (Олот тумани) ва Нилуфар Холиқова (Вобкент тумани), 800 метрга югуришда Элёр Эсонов ва Гулбаҳор Боймуроваларга биринчилик насиб этди. Ғолиблар Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси вилоят бўлими, вилоят халқ таълими бошқармаси, "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракати вилоят бўлими ва Касаба уюшмалари вилоят кенгаши совғалари билан тақдирландилар.

## МАМЛАКАТ БИРИНЧИЛИГИ

*МҲСК мажмуида Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва вилоятлардан келган 1,5 минг нафар 8-18 ёшли ўсмирлар ўртасида каратэ бўйича Ўзбекистон биринчилиги бўлиб ўтди. Жамоавий катта беллашувларда пойтахтимиз вакиллари биринчи ўринни эгаллаган бўлсалар-да, лекин Хоразм, Сурхондарё, Қашқадарё, Наманган вилоятларидан ташриф буюрган ёш спортчилар ҳам бошқа жамоаларга нисбатан анчагина кучли эканликларини намойиш этдилар. Клублар ўртасидаги кумитэ баҳсларида "Андижон", "Бекобод", "Алпомиш", "Қашқадарё" клублари ўзларининг маҳоратли эканликларини амалда исботладилар. Биринчи ўрин эса "Каратэ" профессионал маркази вакилларига насиб этди.*

## ТАЙСОН АМЕРИКАЛИКЛАРНИНГ ЯГОНА ИШОНЧИ



АҚШнинг Мемфис шаҳридаги "The Pyramid Arena" саройи бу сафар Тайсонга омад келтирди. Боиси, 2002 йилнинг 8 июн куни темир Майк айнан шу саройда британиялик Леннокс Льюисдан енгилиб, мағлубият аламини татиб кўрган эди. 22 феврал куни Тайсоннинг Клиффорд Этьен билан ўтказган жангидан аввалроқ у грипп хасталигига чалингани боис, учрашувни ортга сурилишини айтган эди. Бироқ, орадан 2-3 кун ўтар-ўтмас Тайсон жангга тайёр эканлигини маълум қилди. Бокс ишқибозларининг наздида, бундай ҳол унинг серқирра характеридан далолат беради. Дарвоқе, Тайсон шу куни юзининг чап қисмига татуировка чиздириб олган ҳолда рингга чиқди. Кутилмаганда 1-раунднинг 49-сониясида ҳакамнинг хуштаги чалинди ва Тайсоннинг ғалаба қозонганлиги эълон қилинди. Рингда кўп бор рақибларини нокаутга учратган Тайсон бу сафар ҳам ўз сўзини айтди ҳамда Этьенни рингнинг ўртасида ётиб қолишга мажбур этди.

Сўнгги 28 ой ичида борйўғи 4 та учрашув ўтказган IBF ва WBC йўналишлари бўйича собиқ чемпион ўзининг энг қисқа жангини 1985 йил Марвис Фрэзерни 30 сонияда нокаутга учратиш билан якунлаган эди. Айнан ўша йиллар бугунги 36 ёшли Тайсоннинг энг гуллаб-яшнаган даврига тўғри келади. Негаки, у бу вақтда 55 та жанг ўтказиб, 49 тасида ғалаба қозонган ва 4 тасида мағлубиятга учраган, қолган 2 та учрашувнинг натижалари эълон қилинмасдан қолган эди. Эътиборли жиҳати, 49 та ғалабасининг 43 тасида у рақибларини нокаут ҳолатига туширганлигининг ўзи катта кўрсаткич. "Қора каркидон" номини олган Этьен эса 26 та жанг ўтказган ва унинг 24 тасида (17 таси нокаут билан тугаган) ғалабага эришган бўлса, 1 марта мағлуб бўлиб, 1 марта дуранг натижага рози бўлган эди.

Бугун америкаликларнинг профессионал боксдаги ягона ишончлари бўлган Тайсоннинг бу галги учрашувини саройга ташриф буюрган 15 минг томошабин тик оёқда туриб кузатдилар. Дарвоқе, "Showtime" компанияси томонидан уюштирилган Тайсон – Этьен учрашувининг чиптаси 10 минг АҚШ доллари миқдорида сотилди. Ушбу



ғалабадан сўнг темир Майк Льюисга қарши рингга чиқишдан аввал жиддий тайёргарлик кўришини ва 2-3 та жанг ўтказишини айтди. Унинг нияти бир йилча аввал амалга ошира олмаган ишининг бу сафар уддасидан чиқмоқчи ва Льюисдан WBC йўналиши бўйича чемпионлик камарини тортиб олмоқчи.

## КЛИЧКО «WBC»НИ СУДГА БЕРДИ

WBC йўналиши бўйича жаҳон чемпиони саналган британиялик оғир вазнли профессионал боксчи Леннокс Льюис украиналик Виталий Кличко билан жанг ўтказишга розилик берган, аммо сўнгроқ у учрашувни рад этган эди. Куни кеча ака-ука боксчиларнинг каттаси Лас-Вегас федерал судига даъво аризаси билан мурожаат қилди. Унинг фикрича, Бутунжаҳон бокс кенгаши (WBC) ўз қонун-қоидаларига амал қилмаяпти. Негаки, WBC талабларига кўра, жаҳон чемпиони унвонини ўзида сақлаб қолиш учун ҳар йили камида бир маротаба чемпионлик камарига расмий талабгорлардан бири билан жанг ўтказиши керак. Ана шундай талабгорлардан бири эса Кличко саналади. Ҳатто Льюис ва Виталий вакиллари ўртасида шартнома тузилиб, апрел ойида бу икки боксчи рингда учрашишлари керак эди. Бироқ, Льюис буни хоҳламаяпти ва у Тайсонга қарши рингга чиқишни мўлжаллаяпти.

## ХОТИРА ҲАР НАРСАДАН УЛУҒ

**Tadbir**

*Дарвоқе, умр оқар сувдек оқиб бораверадики, баъзан унинг қандай ўтиб кетганини сезмай қолади киши. Навоий ҳазратлари ёзганларидек, бу дунёда ҳамма нарса ўткинчи, фақат яхшилик билан ном чиқариш ажаб саодатдир.*

*Тошкент вилояти Тошкент туманидаги "Дилором" номли 2-боғча-мактаб ўйингоҳида Охунбобоев ширкат хўжалиги собиқ раиси, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган қишлоқ хўжалиги ходими Зоирхон Жалилов хотирасига бағишлаб мини-футбол мусобақаси ўтказилди. Унда "Ҳасанбой", "Қизғалдоқ", "Гулистон", "Чоштепа", "Масалбой", "Чувалачи", "Келес", "Кўксарой", "Кўктерак" маҳаллалари жамоалари куч синашдилар. Ғолибликни қўлга киритиб, I, II, III ўринларни эгаллаган "Келес", "Ҳасанбой", "Масалбой" маҳаллалари ҳамда фаол қатнашган жамоаларга туман ҳокимлигининг фахрий ёрлиқ ва эсдалик совғалари топширилди.*

*— Инсон хотираси ҳар нарсадан улуғ ва муқаддасдир, — дейди туман ҳокими муовини Раҳматилла Шерматов. — Бундай азиз инсонларни хотирлаб, мусобақалар ўтказишни аввалги йили бошлаган эдик. Бу тадбирларнинг маҳалла ва мактаб ҳамкорлигида ўтказилиши, уларга туман спорт қўмитаси, "Маҳалла" жамғармасининг бош бўлими спорт ишларига муносабатнинг тубдан ўзгаришига туртки бўлмоқда.*

***Дилфуза ОРИФЖОНОВА, Низомий номидаги ТДПУ III курс талабаси***

## МУРОСАСИЗ БЕЛЛАШУВЛАР

**Quvnoq startlar**

**XX республика "Қувноқ стартлар" телевизион мусобақасининг бу галги саралаш беллашувида Тошкент вилояти Чиноз туманидаги 29-мактабнинг "Истиқлол" ва Хоразм вилояти Хива туманидаги 10-мактабнинг "Феруз" жамоалари майдонга тушди.**

**Дастлабки беллашувданоқ ("Ўрин алмашиш") мусобақа қизғин тус олди. 5 нафар ўғил ва 5 нафар қиз тик қилиб ўрнатилган халқалардан ўтиб, теннис коптогини бир-бирларига отиш ва ўрин алмашишда баҳслашишди. Чинозлик ўқувчилар ўйин бошида илгарилаб кетган бўлсалар, хиваликлар ўзларини қўлга олиб, марра чизиғига биринчи бўлиб келишди ва 3 очкони қўлга киритишди. Учрашувнинг иккинчи ("Халқаларни ўзингдан ошир") баҳсида ҳам "Феруз" жамоси чаққон ҳаракат қилди.**

**Халқ ўйинларидан "Арқон тортиш" мусобақаси жуда қизғин кураш остида ўтди. 6 нафар ўғил болалар ўртасидаги беллашувда Тошкент вилояти вакиллари кучли эканликларини кўрсатишди. Қизлар жамоаси беллашувида ҳам уларга омад кулиб боқди.**

**Лекин, "Тўпни дарвозага уриш" баҳсида хиваликлар моҳирлик кўрсатишди. Сардорларнинг арқон тортиш мусобақасида Тошкент вилояти жамоасининг қўли баланд келди.**

**Учрашувнинг сўнгги икки ўйинида яна ўзини ўнглаб олган "Феруз" жамоаси спортчилари 20:14 ҳисобида ғалаба қозонишди ва чорак финалда қатнашадиган бўлишди.**

***F.МАННОПОВ***

**Samarqanddan xabarlar**

## БОКС

Самарқанд шаҳридаги бокс саройида 1987-88 йилларда туғилган ўсмирлар ўртасида бокс бўйича вилоят очиқ биринчилиги бўлиб ўтди. Мусобақаларда вилоятнинг туман ва шаҳарларидан ҳамда Сурхондарё, Қашқадарё ва Жиззах вилоятларидан келган кучли чарм қўлқоп усталари қатнашиб ғолиблик учун кураш олиб бордилар.

Қизғин ва муросасиз ўтган баҳсларда Ж.Муқумов, Б.Тожиев Ю.Тошқувватов, Х.Бекжонов, Б.Нарзиқулов (Самарқанд вилояти), О.Тошпўлатов (Жиззах вилояти), О.Шайқулов (Қашқадарё вилояти)лар ўз вазн тоифаларида ғолибликка эришдилар.

## ШАХМАТ

Самарқанд вилоят халқ таълими бошқармаси қошидаги болалар-ўсмирлар шахмат-шашка спорт мактабида эркаклар ўртасида вилоят биринчилиги бўлиб ўтди. 24 нафар шахматчи иштирок этган мусобақалар шиддатли ва муросасиз бўлиб, 7 очко тўплаган А.Анорқуловга ғолиблик насиб этди. Иккинчи ўринни СамДУ талабаси М.Ҳакимов, учинчи ўринни Ж.Мустафоев эгаллади.

***М.АҲМЕДОВ, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган спорт устози***

# МАЛАЙЗИЯ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ: КЕЧА ВА БУГУН

**Xorijda ta'lim**

*Малайзияда таълим ўзига хос анъаналарга эга бўлиб, у шахснинг руҳан ва жисмонан ривожланишига қаратилган. Кейинги вақтларда Малайзияда таълим тизими жиддий ислоҳ қилинди. Ана шу муҳим ислоҳотлардан бири 1995-1997 йилларда парламент томонидан кўриб чиқилган соҳа қонунчилик базасини янада мустаҳкамлаш ҳақидаги ислоҳотдир. Мазкур қонунчилик 6 та актдан иборат бўлиб, уларнинг таркибига кирувчи 1996 йилда қабул қилинган "Таълим ҳақида" ва "Миллий кенгашнинг олий таълим ҳақида"ги қонунлари янгиланди.*

*Бу ерда таълим тизими федерал ҳукуматга қарашлидир. Миллий таълим тизими бошланғич ўқиш босқичи давридан бошланиб, олий таълим билан якунланади. Бу ерда қоида бўйича бошланғич таълим 6-7 ёшдан бошланади. Мактаблар давлат томонидан моддий таъминланади. Ўқув йили январь ойидан бошланиб, ноябрь ойида тугайди. Қоида бўйича ўқувчилар мактабнинг бошланғич, ўртанинг қуйиси ва олийнинг ўрта даражаси ҳамда 6-синфни тугатганларидан кейин имтиҳон топширадилар.*

*Бошланғич синф бўғинига 6-7 ёшгача бўлган болалар мўлжалланади. Ўртанинг қуйисига 3 синфлик, 2 йиллик ва 2 йиллик ўртадан юқори даражадаги таълим киради. Навбатдаги бос-қич касбий, шунингдек, академик ўқувлар — университет, коллеж, ижтимоий ва хусусий олий ўқув юртлари томонидан амалга оширилади.*

*Мамлакатдаги олий таълим тизими ҳақида тўхталадиган бўлсак, Мара технология, Малайя, Кебангсаан, Путра, Малайзия Миллий университетлари, Халқаро ислом, Шимолий Малайзия, Султон Идрис педагогика университетларининг давлат тасарруфида эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш керак. Шунингдек, Телеком, Тенага Миллий, Петронас, Малайзия тадқиқот ва технология университетлари нодавлат олий ўқув юртлари ҳисобланади. Уларда юз минглаб талабалар турли йўналишлар бўйича таълим олади.*

*Биз ўзбекистонликлар малака ошириши режалаштирилган Мара технология университети 1956 йили ташкил этилган. У Малайзиядаги йирик университетлардан биридир. Бутун мамлакат бўйича 14 та филиал ва 25 та коллежи бўлган бу даргоҳда 110000 га яқин талаба таҳсил олади. 42000 талаба Шоҳ Аъламда жойлашган бош бинода ўқийди. Ҳозиргача университетни 170000 дан кўпроқ талаба битириб чиққан.*

*Университет Малайзиянинг пойтахти Куала Лумпурдан 40 километр узоқликдаги Шоҳ Аълам штатида жойлашган. У 24 гектар майдонни эгаллаган бўлиб, "Бошқарув ва ҳуқуқ", "Архитектура ва режалаштириш", "Бизнес ва менежмент", "Таълим", "Фармацевтика", "Санъат ва дизайн", "Оммавий ахборот воситалари ва коммуникация", "Меҳмонхона ва туризм" каби жами 18 та факультет бор. Биз сафар давомида навбатма-навбат деярли барча факультетларда бўлиб, уларнинг ўқув жараёни билан танишиб чиқдик.*

*Сафаримизнинг биринчи куни университет ректори, профессор Иброҳим Абу Шоҳ қабулида бўлдик. Ортиқча ҳашам, безаклардан холи, чиройли офисда университетнинг проректорлари, масъул ходимлар, факультет деканлари ҳозир бўлишди. Ректор йиғилганларга яқинда Ўзбекистонда бўлганлиги, мустақил давлатимизнинг ички ва ташқи сиёсати, тарихи, маданияти, айниқса, таълим тизимидаги улкан ислоҳотларни мамнуният билан эътироф этди.*

*Малайзиядаги олий таълим тизими Англияники сингари шаклланган. Факультетларнинг ўқув дастур ва режалари билан танишиб чиққач, бунга амин бўлдик. Таълим давлат ҳисобидан ва шартнома асосида ташкил этилган. Ўқишнинг академик соати 60 дақиқани ташкил этади. Талабалар ҳар куни 3 ёки 4 пара ўқийдилар.*

*Бакалаврлар 3 йил, магистрлар эса 2 йил таълим олишади. Улар ўқишни муваффақиятли тугатгач, дипломга эга бўлишади. Малайзиянинг олий ўқув юртлари дипломлари хорижий давлатларда ҳам тан олинади. Университетда ўқув жараёни тўлиқ компьютерлаштирилган. Барча маълумотлар компьютер орқали олинади.*

*Университет кутубхонасида 600000 китоб заҳираси бор. Кутубхона йилига 42000 талаба ва тингловчига хизмат кўрсатади. Китоблар номма-ном компьютер хотирасида жойлаштирилган. 2001 йилдан бошлаб кутубхонада маълумотларни интернет орқали тўлиқ олиш йўлга қўйилган.*

*Малака оширишга борган биз — ўзбекистонлик профессор ва ўқитувчилар ҳам малайзиялик касбдошларимизга республикамиздаги таълим тизимининг ўзига хос жиҳатлари, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури бўйича олиб борилаётган кенг қўламдаги ишлар ҳақида гапириб бердик.*

*Шуни мамнуният билан қайд этиш керакки, сафаримиз сермазмун бўлди. Сафар давомида Мара технология университети билан I Тошкент Давлат тиббиёт, молия институтлари ўртасидаги меморандум имзоланди.*

*Университет ректори, профессор Иброҳим Абу Шоҳ ҳар биримизга янги технологик асослар курси бўйича малака оширганлигимиз ҳақидаги сертификат (гувоҳнома)ни топширди. Шунингдек, у ўз университети номидан ўзбекистонлик ҳамкасбларига 50 та компьютер ва 1200 та турли дарслик, ўқув қўлланмалари совға қилишини билдирди.*

***Юсуф ҲАМДАМОВ, филология фанлари номзоди***

*Esbornning qarindoshlari va mehmonlari birga yashashni boshlayotgan kelin-kuyovning eng baxtli kunida qatnashyapmiz deb ishongandilar.*

*Prokuratura maktab direktori ustidan jinoiy ish qo'zg'atib, buni bolaga nisbatan xo'rlashning jiddiy turi deb baholadi.*



## Ko'ngil bitiklari

### БАҲОРИМ

Соҳибжамол баҳорим,
Кўнгилда ифтихоримДалалари ям-яшил
Сепин ёйган диёрим.

Ҳар дарахту ҳар оғоч,
Гуллади оппоқ қийғоч,
Айвонимга ин қурди
Бир жуфт қаро қалдирғоч.

Баҳорим-ай, баҳорим,
Гулдек тоза наҳорим.
Далаларга хуш ёқар
Атринг билан ифоринг.

Боғимдаги атиргул,
Юзи гул, сочи сумбул.
Ишқ ўтида ўртанар
Тонглар отгунча булбул.

Баҳорим-ай, баҳорим,
Эрир тоғларда қорим,
Гоҳ йиғлайсан, гоҳида
Кўнгилда йўқ наҳорим.

Қизғалдоқ, қизил лола —
Қизил юзли қиз бола.
Яраланган юрак у —
Қондек қип-қизил нола.

Баҳорим-ай, баҳорим,
Қўлимдаги дуторим.
Тилимдаги қўшиғим,
Дилимдаги ашъорим.

### КЎНГИЛ

Кўнгил ишлари нафис,
Кўнгил гулдек муаттар.
Атирни топса ҳамки
Дилни тополмас аттор.

Кўнгил кўзгудек нозик,
Кўнгил баҳордек танҳо.
Баҳор топилса ҳамки,
Кўнгил топилмас асло.

Кўнгил сотилмас, сотманг,
Қалб кўзига тош отманг.
Дилни чегалаб бўлмас,
Кўнгилни ҳеч йўқотманг.

***Ойшабегим УСМОНХЎЖА қизи, нафақадаги ўқитувчи***

**Халқаро телеканалида ҳар якшанба куни намойиш этилаётган "Инглиз тили Сиз учун" масофавий инглиз тили курсининг саволлари:**

**QUESTIONS for Episode 17**

1. How do you get a group of people to work on a project together effectively?
2. What kind of entertainment would you show a foreign visitor as a representation of your country's art and culture? Please explain your choice.
3. If a friend asks your advice adout marrying before or after graduating from the university, what will you suggest he do?

**QUESTIONS for Episode 18**

1. Write about one of the most influential people in your community.
2. If you are in favor of changing a program in your university, how do you let the leaders know your opinion?
3. By what process are leaders elected in your city?

**QUESTIONS for episode 19**

1. Why do you think a bribe and groom would have jitters, be nervous, on their wedding day?
2. In your country, how are weddings announced and guests invited to the wedding party?
3. In American weddings, the bribe wears something old, something new, something borrowed, and something blue. Describe some special traditions for the bribe in your country?

**Бизнинг манзил: Тошкент 700011, Навоий кўчаси 69, ТВ-4, "Инглиз тили Сиз учун" кўрсатувига ёки uztv-4@uzpak.uz электрон почтаси.**

# ҚЎНҒИРОҚ ЧАЛИНГУНЧА

**(Дам олиш саҳифаси)**

**А.ГРИН**

## АВГУСТ ЭСБОРННИНГ НИКОҲИ

**HIKOYA**

Кемасозлар шерикчилик корхонасининг ҳиссадорларидан бири, 29 ёшли Август Эсборн — ўктам ва бой йигит — 1903 йили Лондонда ўзидан тўққиз ёш кичик Алиса Безант деган бир етим қизга уйланди. Эсборн Алисанинг кетидан узоқ юргани йўқ; қиз тарбиячи сифатида бировга қарам аҳволда эди ва Эсборннинг ёқимтойлик қобилияти тезда кутилган жавобга имкон яратди.

Ёшлар черковдан қайтиб Эсборннинг турар жойига кириб келишганди. Эсборннинг қариндошлари ва меҳмонлари бирга яшашни бошлаётган келин-куёвнинг энг бахтли кунида қатнашяпмиз деб ишонгандилар. Эсборннинг ҳашаматли хоналари гуллар ва ёниб турган шамларга тўла, дастурхонда бебаҳо биллур ва чинни буюмлар ярқирарди, мусиқачилар қулоқни қоматга келтирадиган табрик тароналари билан келин-куёвни кутиб олишди.

Бахтлиларга хос дўлвор ва худбинона самимийлик кўпчиликка таъсирини ўтказа бошлади. Алиса билан Августнинг юз ифодалари, ички дунёларини ойнадек акс эттириб турган икки жуфт ғоят бахтли кўзлар, ҳеч тўхтатиб бўлмайдиган масъуд табассумлар — ҳамманинг кайфиятини кўтариб юборди.

Шу аснода полковник Рипс айтган биринчи қадаҳ сўзидан кейин Эсборн бир гулни айлантириб турган қўлига эргашиб ниманидир ўйлаб қолгани кўпчиликнинг эътиборидан четда қолмади. У бошини кўтаргандан кейин кўзларидан паришонлик кетмай қолди, аммо бу тез орада ўтиб кетди ва у аввалгидай ҳазил-ҳузул қилиб ўтирди.

Зиёфат тугаб, меҳмонлар тарқалишгач, Эсборн хотинига яқин келиб, кўзларига қаради, қўлини ўпиб, сал боши оғриётгани, буни тарқатиш учун ўн дақиқа тоза ҳавода айланмоқчилигини айтди. Кун бўйи обдон кезган, масъудлик, ҳаяжон ва чарчоққа тўла Алиса, Эсборннинг эгилган бошини нўноқлик билан ўпиб, эрининг қайтишини кутиб ўтиргани келинлик хонасига кириб кетди.

У кўзгу олдида ёйилган сочларини бир-бир ўриб, шаҳло кўзлари акс этиб турган ойнанинг теран-теранларига тикилганча хаёл суриб ўтирарди. Сўнг ўйланган нарса ростдай кўринувчи тасаввурлар ўйини содир бўлди. Алисанинг кўзига ўтирган курсисининг ортида эри турибдию, аммо кўзгуда акс этмаётгандай кўринди. Бу туйғу охири унинг тинчини бузди; ялтираб турган қора сочларини силтади, ҳолбуки, буни ҳеч кўрмаслигини биларди; шу пайтда тепасидаги соат ярим кеча бўлганини билдириб занг урди. Бу, Эсборннинг чиқиб кетганига бир соат бўлганини билдирарди ва бу шундай соат эдики, тақдир ўзгариши муносабати билан бир туйғу иккинчи туйғуга тез-тез ўрин бўшатаётган ғала-ғовурда Эсборн ғойиб бўлган эди.

Нима деб ўйлашни ҳам билмай безовталанган келин хизматкорни чақирди ва маҳаллани, яқин орадаги хиёбонни айланиб чиқишни илтимос қилди, хизматкор бир ўзи қайтиб келганида орадан яна ярим соат ўтган эди. Алиса хавотирдан ўзини қўйишга жой тополмасди. Агар қиш пайтида шинам бир хонага эшик-деразаларни ланг очиб совуқ ва ёқимсиз ҳид киритилса, одам ўзини қандай ҳис қилса, ҳозир Алиса ҳам ўзини шундай ҳис қиларди. Эрталаб бешга яқин у оёқда зўрға туриб полицияга телефон қилди. Полициядагилар ғойиб бўлган Эсборннинг белгиларини ёзиб олишди ва тез ошиғич суръат билан "ҳамма чоралар"ни кўришга ваъда беришди.

Шу машъум кеча Алиса орзуларидан, эридан, бахтиёр руҳий илиқлик билан эр кутиш тароватидан бир умрга айрилди, уларни бирваракай дафн қилди. Кейин унда кучли мия чайқалиши юз берди. У Эсборнни яна икки кун кутди, аммо учинчи куни эрталаб машъум бир тепаликдаги сўнгги тош узилиб тушгандай, унинг юрагида алланима чирт этиб узилди. У ўша тошни тутганча, ҳолдан тойиб тўсатдан пайдо бўлган жар узра осилиб қолганга ўхшар, ҳамма нарса, ҳамма ёқ куп-қуруқ бўшлиқдан иборат эди.

У касал бўлиб қолди, аввал ўзи тарбиячи бўлиб ишлаган уйига, ўзи яшаган хонага кетгиси келаётганини айтди, хоҳишини инобатга олиб, уни ўша ерга олиб бордилар. Хўжайинлари Алисанинг тақдирига фавқулодда ҳамдардлик билдириб, қайтадан қабул қилишди. У шифо топиб кетди, аммо никоҳ кечасидан кейин заиф тортган қизнинг қалбида бир қўрқув сақланиб қолди — эшик қўнғироғи чалинса ё тақилласа, даҳшатга тушиб каловланиб қоларди. Алисанинг хаёлида энди қабул қилиш маҳол бўлган, кўнгил абадиян рад этган Эсборн кириб келаётганга ўхшайверарди... Ҳар неки бўлмасин, Алиса энди Эсборнни, майли ҳатто бир дақиқалик бўлса-да, эмин-эркин илк дақиқаларида ташлаб кетгани учун сира кечира олмас эди.

Орадан бир йил ўтди, галдагиси ўтди. Унинг тарихидан таъсирланиб кўнгил берган одам учради, ўшанга эрга тегди.

II

Август Эсборн беозор фириб шайтонининг кўз қисиб берган кулгили амри билан кўчага чиққанди. У бахт қўйнида эди ва саодат ҳавосидан очкўзлик билан нафас олди. Унинг сал боши оғриётгани рост эди ва у полковник сўзлаётганда "ёш келин-куёвга бутун умр бўйи қўлни қўлга бериб, қўша қаришларини" тилагани учун кўчага чиққан эди, у ўзига хос ўткир тасаввур билан, ажрашувдан кейинги кучли қувонч қандай бўлишини тасаввур қилди. У шафқатсиз ё қўпол одам эмасди, аммо унга шундай бир куч келдики, бунга қаршилик қилолмасди, ўзи буни ғалати қилиқ деб изоҳларди. Бу тагида нима борлигини англанмайдиган изтироб ва тавбага ташналик эди. Эсборн эсга олди: у ҳали болалик чоғларида ҳам қоронғи жавонга бекиниб олишни яхши кўрар ва уйда ундан хавотир олишлар ҳаддан ошиб, хизматкорлар қидиришга киришганда сакраб чиқиб келарди. У йиғлаганча кўзларида шашқатор ёши билан, қувониб ва азобланиб, онасига ўзини отар, бамисоли келгусида, анча кейин, ўзининг бошига тушиши муқаррар бўлган қайғуни олдиндан билгандай эди.

Хиёбонда олислаб кетган Эсборн уйга қайтиб кирганда, Алиса қисқа қўрқувдан кейин қандай севиниб кетиши тўғрисида ўйлади. У бир соат тентираб юришни мўлжаллаган эди, аммо ширин хаёллар оғушида тез-тез юриб олислаб кетганини ва вақт алламаҳал бўлиб қолганини пайқамаганди, соат бирга занг урганини эшитганда, ҳайратланиб қотиб қолди, кўчаларда одамлар сийраклашган эди. У шарт бурилиб, тез уйга қайтмоқчи бўлди, аммо кўринмас ва мавҳум бир қаршиликка учради, бу қаршилик унинг руҳида юз берди. Бу шундай бир нарса эдики, буни аёллар тушунмайдилар; бундай ҳолга дуч келсалар, ақл-фаросат важларига қулоқ солмай, ўзларига очиқдан-очиқ зиён келтириб, сиқилганча: "Э, бор-е, билмайман, ҳеч нимани билмайман!" дейишади. Эркаклар эса ўз хатти-ҳаракатларидаги зиддиятларга боғлиқ тақдирнинг яқинлашиб келаётган одимларини ҳис қиладилар. Эсборн ўзи яратган ҳолатдан қўрқиб кетди, таъби хира бўлди ва миясига эртага эрталаб қайтган яхшироқ деган фикр келди, шунда, деди у ўзига ўзи, шунда туннинг иккинчи ярмида юз бериши мумкин бўлган машмашадан қутулиб қолиш мумкин бўлади. Инчунин, эрталаб хотинига ҳаммасини бехос чўзилиб кетган бемаъни, ножўя ҳаракат сифатида кўрсатишдан умидвор эди. Олдинига бу, ёввойи ва тоқат қилиб бўлмайдиган қарор бўлиб кўринди, аммо бошқа чора ҳам йўқ эди. Эсборн меҳмонхонага йўл олди ва бир жой олиб, гули оқ бўйинбоғ билан, фракда, уйдирма фамилия қайд қилиб тунади, — хона совуқ ва қоронғи эди.

Хизматчилар уни ресторанга келган меҳмон деб ўйлашди. Уйни ва ўз аҳволини ўйлаб, юрак-бағри тилка-пора бўлган Эсборн бир шиша тоза виски билан туйғуларини карахт қилиб, расвогарчиликда уйқуга кетди. Бу, юракни сиқадиган, изтиробли терс ҳаракат одамнинг амрига юрмайдиган қора игна уйга интилаётган юрагига санчилиб, уни бир зум ўз ҳолига қўймас эди. Охири у уйқуга чўмди ва эрта билан соат ўн бирда уйғонди. Шунда "энди нима қилмоқ керак" деган савол унинг олдида кўндаланг бўлди.

III

У ҳамма нарса ҳалок бўлгани, ҳалок бўлаётгани ва агар бир қарорга келмоқчи бўлса, дарҳол келиши кераклигини кўриб турарди. Эрта билан бораман, деган кечаги аҳди ҳозир амалга ошиши даргумон бўлиб кўринди. Кечаси билан кўзёшлари дарё бўлиб, қўрқиб, номусдан ерга кириб ётган қиз уни аранг, фидойилик билан, зўр бериб тушунган тақдирда ҳам, бари бир бундай ҳаракатни муҳаббат ёки ҳурмат деб бўлмаслигини айтиши муқаррар. Унинг фикрлари айқаш-уйқаш бўлиб, ўзига ва хотинига қарши исёнга келди, фикрларини жамлашга ҳалақит берувчи аллақандай марказдан қочирма куч энди ҳеч тўхтатиб бўлмайдиган ашаддий касаллик ҳолига етган ва бу қандай бўлмасин табиий бир қарорга келишига йўл бермас эди. У мактуб ҳам ёзмоқчи бўлди, аммо хоҳлаганларини ёзай деса, сўзлар унга бўйсунмас, жиддий равишда зўр бериши биланоқ уни қаттиқ бир толиқиш қамраб оларди. Эсборн энди ёниб кул бўлган, чунки бу саноқли соатлар ичида ҳаддан зиёд нарсаларни бошидан кечирган эди.

Эсборн кўзларини силаб қўйди. Тўсатдан одамлар мен ҳақда ўйлашса керак, деган фикр хаёлига келди, газет олиб келишга одам юборди; уни варақлаб, А.Эсборннинг сирли шароитларда ғойиб бўлгани ҳақидаги ёвуз хабарини қидириб топди. Қайд этилган шароитларни ўзи билар, аммо хабарларни ўқиркан, ўша Эсборн ўзи ҳақда ўқиб ўтирган ўзи эканлигига шак келтиришга тайёр эди.

Ёвузлик, ўнглаб бўлмайдиган ёмонлик содир этилди, севгилисига интизор шу қўллари билан келинчак-хотинга оғир зарба берилди. У энди мутлақо ортга қайта олмас, чунки Алисада Эсборндан абадий қўрқув сақланиб қолганини билар, инчунун, Алиса у ёқда турсин, унинг ўзи ҳам ўз қалбини билмас эди. Жонли ҳаётдагидай томири уриб турган, ушлаб кўрса бўладиган ёлғонни эса эплаб тўқиёлмаслигини ҳис қиларди.

Қайтишнинг иложсизлиги ҳақидаги фикр ҳарчандки ғалати бўлмасин, ҳар қалай унинг енгил тортишига сабабчи бўлди. У ўйлаганидан ҳам кўпроқ изтироб чекар, аммо янги тақдирнинг юзига тик қараш жасоратига эга эди. Қоп-қоронғи тунги йўлда ярим ҳушсиз ҳолда чўзилиб ётган ҳорғин гавда аста-секин ўзига келгани каби, у ҳам ҳушига келди, фикрлари жамлана бошлади.

У бир дўстига, ҳеч кимга айтмайман деб қасам ичгандан кейин, бошидан ўтганларни гапириб берди ва исми-шарифини ўзгартирди, эски бир тарихни қайд қилиб, шу дўстига вексел (тилхат) бериб, банкдан пулларини олди. Кейин шаҳарнинг чекка бир жойиға кўчиб ўтиб, бошқа иш билан шуғулланди, бу иш тез орада юришиб кетди. Эсборн "бедарак" йўқолган одамга айланди. Унинг ўрнига ҳамма қатори Жон Тернер бўлиб ҳаётдан ўрин олди. Бўлиб ўтган воқеалардан унга оқарган сочлар ва биргина ўзгармас, антиқа фикр эсдалик бўлиб қолди, бу фикр Алиса, эндиликда Алиса Ренголд билан боғлиқ эди.

IV

У Алисани бегона одам деб ўйлай олмади, вақти-вақти билан унинг ҳаёти ҳақида суриштириб маълумот йиғар, хусусий хуфия орқали асосий воқеалар манзарасини кўз олдига келтириб юрарди. У Алисанинг аввал касал бўлгани, мияси чайқалгани, кейин эрга тегканини билиб олди. Ўзини савдо идорасида ишловчи Ренголд қиёфасида доим Алиса билан бирга тасаввур қилиш Эсборн-Тернернинг ҳайдаса ҳам кетмайдиган доимий фикри эди. Ўз кўнглида у гўё Алисанинг олисдаги кўринмас ва балки мавжуд бўлмаган ҳақиқий эри эди. Эсборн ўз хуфияси етказиб турган қўполдан-қўпол маълумотлар рўйхати асосида Алисанинг кундалик оилавий ҳаёти манзарасини, унинг ташвишлари ва унинг эзгу орзу-умидларини кўз олдига келтирарди. У Алисанинг фарзанд кўрганини ҳам билди, эндиликда Ренголдлар уйида ҳаёт оқими хотиржам бўлса, ҳаяжонланар ва қувнар, болалари касал бўлса ё моддий қийинчиликлар босимидан эзилса, қайғурар ва тинчини йўқотарди. Бу ўз ҳаётида юз бериши мумкин ва лозим бўлган оилавий ҳаёт ҳақидаги орзу ҳам эмас, узлуксиз фикрий воқелик ҳам эмасди. Баъзи бир пайтларда у шартта бориб, "Мана мен" деса ҳаммаси ўз-ўзидан тўғри изга тушиб кетади, деган хаёлга борар, аммо бундай қилиш ҳеч мумкин эмасдай кўринарди... ҳақиқий Жон Тернерга айланиш мумкин бўлмаганидай...

Ўн бир йил шундай бўлиб келди ва шу тарзда ўтди-кетди. Ўн иккинчи йили домдараксиз Эсборн, Ренголднинг олти ойга Ҳиндистонга кетганини эшитди ва унда барча руҳий-ахлоқий таъқиқларга қарамай, Алисани кўриш истаги орта бошлади. Ва кунлардан бир кун, иссиқдан ҳамма лоҳас юрган, ҳавода қилт этган ҳаракат қолмаган бир фурсатда худди қатлга кетаётгандай Алиса Ренголд турган уйга жўнаб кетди.

Автомобиль бахтсиз одамни таъқиқланган, фикрлашга йўл бермайдиган учрашув сари учириб олиб кетди, тезлик ошгани сайин у ўзини ўтган йиллар, ўтган замон ичкарисига кириб кетаётгандек, кўп эмас, оз эмас, изтироблар дунёсига кираётгандек ҳис қиларди. Ҳаёт орқасига ағдарилаётган эди. Ортига қайтаётган ўтмишнинг тароватидан юраги дук-дук урарди. Туйғуларнинг ғайриихтиёрий оғир тўлқинлари уни ўйлашга қўймасди. Бирдан бўшашиб кетган бўлса ҳам зинама-зина кўтарилиб, эшик ёнида тўхтади ва қўнғироқ тугмасини босди.

У туш устига туш кўраётганга ўхшар, меҳмонхонанинг очиқ эшигига ким бошлаб бораётганини, қандай бошлаб бораётганини фаҳмламас, аъзойи бадани қалт-қалт титраб ва ғам-ғуссага ботиб, минг бир қийноқлар ичида кириб борарди. У гиламга ҳатлаб ўтди, хона ёруғида ўзига яқинлашиб келаётган бирмунча қариган, чиройли бир хотинни кўрди. У кулранг-мовий кўйлакда эди. Аввалига уни танимади, кейин худди кеча кўргандек таниди.

Алиса бўздай оқариб кетди ва шундай қичқириб юбордики, бу овозда ҳамма нарса маълум бўлди-қўйди. Эсборн гандираклаб бориб тиз чўкди ва қўлларини узатиб, аёлнинг муз бўлиб кетган қўлини ушлаб олди.

— Кечир! — деди у,бу сўзидан ўзи ҳам даҳшатга тушди.

— Шукур, тирик экансиз, Эсборн, —деди ниҳоят Алиса Ренголд, овози узоқдан эшитилгандай ва у Эсборнга аламли даражада таниш эди. —Келганингиз учун сиздан миннатдорман. Шунча йилдан бери... — у креслога ўзини ташлади-ю тез-тез ҳўнграб йиғлаб олди, сўнг айтар гапини айтди: — Шунча йилдан бери мен ёмон хаёлда эдим... Аммо ҳозир ундай эмас. Кетинг ва айтар гапингизни ёзиб юборинг. О! Менга шундай оғирки, Август!

— Мен кетаман, — деди Эсборн. — У ерда кундалигим... Мен ҳар куни ёзганман. Ўқисангиз, эҳтимол, тушунарсиз...

Унинг юраги бу машъум дақиқага дош беролмади, ҳиқиллаб хотинининг оёқларини қучоқладию, ўлди. Чунки у аллақачон ўлган эди.

***Русчадан Миразиз АЪЗАМ таржимаси.***

## Xullas...

### МЕҲНАТГА АКС МУНОСАБАТ

Меҳнат инсонни тарбияловчи восита. Танбал, маҳмадона, кези келса, безорилик қиладиган мактаб ўқувчиларини йўлга солишда ҳам фақат меҳнат ёрдам беради.

Днепропетровскдаги 84-ўрта мактабнинг 2-синф ўқувчиси Владислав Косяникнинг ота-онаси эса бутунлай бошқача фикрда. Гап шундаки, уларнинг эркатойи синфдаги барча болалар қатори мактаб шанбалигида иштирок этган, яъни супурган, сидирган, ахлат ташиган. Бу ҳақдаги маълумотни боласидан эшитган ота-она дарғазаб бўлишиб, Владиславнинг номидан прокуратурага ариза ёзибди. Бу ёғини энди кутилган томоша деса ҳам бўлади. Прокуратура мактаб директори устидан жиноий иш қўзғатиб, буни болага нисбатан хўрлашнинг жиддий тури деб баҳолади.

84-мактаб ўқитувчилари ҳайрон. Ҳали бунақа аҳмоқгарчилик бўлмаган. Меҳнат қилган одам ниятига эришганини улар кўп йиллик тажрибаларидан билишса ҳам, тегишли идоранинг акс хулоса чиқариши таажжуб уйғотмоқда эди.

Алқисса, "жиноят иши"-га Владиславнинг ўзи нуқта қўйди. Қандай қилиб дейсизми? Ақлли гаплари билан. "Бу судга оширишга арзийдиган иш эмас. Агар арзиганда эди, синфдошларим ҳам прокуратурага югуриб келишарди".

Ақл ёшда эмас, бошда...

### ТИРИЛИШ БАХТИ

Жаноб Роберт де Симон 79 ёшда. Ҳозир нима кўп, ойнаи жаҳон орқали намойиш қилинаётган "даҳшатли" фильмлар кўп. Бу отахон ҳам шундай экран маҳсулотларидан бирини томоша қилаётиб, инфаркт бўлиб қолди ва ўша лаҳзадаёқ нариги дунёга риҳлат қилди.

Унинг яқинларининг кузатишича, ҳали жони тўлиқ чиқиб кетмагандек эди. Шу боис Роберт отани синчиклаб текширишга зудлик билан шифокорлар чақирилди.

Шифокорларнинг бош чайқашидан билиндики, у сўнгги манзилга равона бўлибди. Шундан сўнг, дафн маросими бошланиб кетди. Тобутга жойлангач, марҳум билан видолашиш онлари етиб келганида, не бахтки, мурда бехосдан қимирлай бошлади. Ё, астағфуруллоҳ! Орадан лаҳзалар ўтиб, марҳум кўзини очиб, сув сўради.

Марҳумнинг дафн маросимига йиғилган қариндошлар мўъжиза рўй беришини, табиийки, кутмаган эдилар. Азанинг бу тарзда хурсандчиликка айланиб кетишини ким ўйлабди дейсиз?

Қайта тирилиш бахтига муяссар бўлган отахонни шошилинч равишда касалхонага олиб кетишди.

### ЭССИЗГИНА ҚУШ...

Жанубий Африка Республикасидаги туяқуш боқиладиган фермалардан бирига томоша қилиш учун борган қиз ҳали ўзини аёвсиз "жанг" кутаётганини билмас эди.

Туяқуш, афтидан, унинг "бегона" эканлигини билди ва кутилмаганда 19 ёшдаги бу қизга ташланиб қолди. Қўрқувдан титраб кетган қиз қичқириб юборди: "Ҳозир мен сени ўлдираман!". Одамнинг қушдан кучли эканлигини исботлаб ўтиришнинг ҳожати ҳам йўқ.

Олишув Корлиз Штейн исмли бу қизнинг ғалабаси билан тугади. Аммо энди у қушни ўлдиргани учун катта миқдорда жарима тўлаб қўйишга мажбур.

**ana shunaqa gaplar**

## Ватан манзаралари



**Бурҳон РИЗОҚУЛОВ олган сурат.**

## "КОМПЬЮТЕР"

**венгерча кроссворд**

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Б | И | Т | Р | Е | К | Б | О | Л | Б | А | О | Л | И | К |
| А | Т | Д | О | Н | Е | Т | Х | С | Н | Й | Б | Д | А | С |
| Р | Х | И | Х | Е | Н | Р | А | И | О | Т | А | О | П | Т |
| В | И | Ф | А | Т | И | Е | Р | Ч | Қ | Т | Й | Ч | Р | У |
| А | Р | Е | К | М | Н | Т | Д | В | Е | Р | Н | Т | А | Н |
| Ц | М | А | Н | О |  | | | | | К | О | Р | Т | О |
| И | Я | Й | И | Т | | | | | | Л | А | В | Р | А |
| О | Р | К | С | О | | | | | | О | В | И | У | П |
| С | Т | Ф | О | Р | | | | | | Р | А | А | Т | Р |
| О | В | Е | Р | Б | | | | | | П | Й | Е | Ц | О |
| Ф | П | Ч | Д | О | Л | Ь | Д | И | Р | Е | Д | С | А | Й |
| Т | Е | А | Т | М | У | Т | Е | Я | П | Р | О | С | С | Т |
| Т | Н | А | Н | У | З | И | М | И | Р | Р | В | Д | Р | Е |
| И | С | К | Е | Р | П | А | К | Н | Т | Е | И | О | С | Т |
| У | М | К | О | М | П | Ь | Ю | Т | Е | Р | Н | Ч | Е | С |

1. Энг кичик ахборот бирлиги (3).
2. Файлларни сиқиштириш жараёни (9).
3. Сичқончадаги ҳаракат механизми (7).
4. Бепул хизмат кўрсатадиган халқаро ахборот тармоғи (7).
5. Ашаддий компьютер билимдони (5).
6. Компьютер техник таъминоти (6).
7. Киритиш маникулятори (8).
8. Саккиз бит (4).
9. Халқаро электрон ахборот тизими (8).
10. Компьютер экрани, дисплей (7).
11. 1024 байт (8).
12. Маълум операцияларни бажаришга мўлжалланган буйруқлар кетма-кетлиги (6).
13. Энг оммавий электрон хабарлар етказиш тизими (5).
14. Энг оммавий дастурий қобиқ (6).
15. Маълумотларни киритиш қурилмаси (10).
16. Интернет хизматини кўрсатувчи ташкилот (9).
17. Компьютернинг ахборотларни сақлайдиган ва қайта ишлайдиган қурилмаси (9).
18. Интернет саҳифаси (4).
19. Дискли операцион система (3).
20. Ахборотларни сақлаш қурилмаси (9).
21. Маълумотларни чоп этиш қурилмаси (7).
22. Электрон ҳисоблаш қурилмаси (9).
23. Ўзбекистондаги Интернет хизматини кўрсатувчи суперсервер (5).
24. Видео, овоз ва анимацияларни ўзида бирлаштирган дастурлар тўплами (11).
25. Қоғоздаги маълумотларни компьютер хотирасига ўтказувчи қурилма (6).
26. Интернетда суҳбат (3).
27. "Intel" корпорацияси савдо белгиси (7).
28. Компьютернинг дастурий таъминоти (7).
29. Ахборот узатиш тезлиги бирлиги (3).
30. Энг йирик дастурий таъминотни ишлаб чиқарувчи корпорация (10).

***Тузувчи:* Муҳаммад АЛИХОН**

Ma'rifat

ТАЪСИС ЭТУВЧИЛАР: Ўзбекистон Халқ таълими вазирлиги, Ўзбекистон Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси Марказий Қўмитаси.

Бош муҳаррир: Ҳалим САИДОВ

Таҳрир ҳайъати: Йўлдош АҲМЕДОВ, Жуманазар БЕКНАЗАРОВ, Икром БЎРИБОЕВ (бош муҳаррир ўринбосари), Шукур ЖОНБОЕВ, Фахриддин КАРИМОВ (масъул котиб), Қурбонбой МАТҚУРБОНОВ, Усмонали МУСАЕВ, Абдусамат РАҲИМОВ (бош муҳаррир ўринбосари), Хулкар ТЎЙМАНОВА, Нурлан УСМОНОВ, Саъдулла ҲАКИМОВ, Ўткир ҲОШИМОВ

Газета Ўзбекистон Республикаси Давлат Матбуот Қўмитасида № 20 рақам билан 12 июнь 1998 йил рўйхатга олинган.

ИНДЕКС: 149, 150. Г-127.
Тиражи 33034 Г. 1 2 3 4 5 6 Ҳажми 4 босма табоқ.
Офсет усулида босилган, қоғоз бичими А-2

Навбатчи муҳаррир: Насиба ЭРХОНОВА,
Навбатчи: Муҳаммаджон ИСРОИЛОВ.

«Маърифат»дан материалларни кўчириб босиш таҳририят рухсати билан амалга оширилиши шарт.
Таҳририятга юборилган материаллар муаллифга қайтарилмайди.
Ⓜ белгиси остида реклама материаллари берилади

МАНЗИЛИМИЗ: 700083, Тошкент, Матбуотчилар кўчаси, 32.

E-mail: marifat@ars-inform.uz

ТЕЛЕФОНЛАР: масъул котиб—136-56-42, олий таълим янгиликлари бўлими, мактабгача ва мактабдан ташқари таълим янгиликлари бўлими —136-55-58, хатлар, маънавий ва сиёсий ҳаёт янгиликлари бўлими —136-54-23, умумий ўрта таълим янгиликлари бўлими, ўқувчиларни касбга йўналтириш ва ўрта махсус таълим янгиликлари бўлими — 136-54-03, реклама ва тарғибот бўлими — 136-54-69.

Баҳоси сотувда эркин нархда

Pentium компьютерида Лилия БИНАШЕВА ва Малоҳат ТОШОВА саҳифалади.

«Шарқ» нашриёт-матбаа акциoнерлик компанияси босмахонаси.
Корхона манзили: «Буюк Турон» кўчаси 41-уй

Босишга топшириш вақти—21.00.
Топширилди — 21.00